3. Шернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.
4. Shernaev, A. A. (2021). Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning rolini oshirish masalalari. Интернаука, (20-7), 58-60.

5. Шернаев, А. А. (2020). Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах. Интернаука, (12-2), 43-45.
6. Jumanazarova, Z. J., & Shernayev, A. A. (2020). Budjetdan tashqari jamg 'armalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish yo 'nalishlari. Студенческий вестник, (1-6), 87-89.



HARAKATLI O‘YINLAR

Kazakov Sodiq Ramazonovich*Buxoro davlat tibbiyot instituti “Reabilitatsiya, sport tibbiyoti va jismoniy tarbiya” kafedrasi dotsenti.*

ANNOTATSIYA

Maqolada Harakatli o‘yinlar va uni o‘tkazish turlari haqida tushuncha, uning o‘ziga xosligi, harakatli o‘yinlarni o‘tkazish metodikasi va maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakat turlari haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, ishni bajarishda turli tadqiqot metodlari qo‘llanilgan, shu bilan birga ularning ta’lim sifatiga ta’siri haqida ma’lumotlar, tavsiya va xulosalar berib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Harakatli o‘yinlar maktabgacha ta’lim, o‘yin bolalar, jismoniy vositalar jismoniy rivojlanish, ta’lim, jismoniy tarbiya, bilim, ko‘nikma, malaka, mashq.

Kirish.

Harakatli o‘yinlar bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishiga, harakat ko‘nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg‘ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijodiy ta’sir etadi. Bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asosida turli to‘siqlarni yengib o‘tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi. harakatli o‘yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko‘nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida bola o‘z e’tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. Harakat faoliyati sifatida harakatli o‘yin muayyan o‘ziga xos xususiyatlarga ega: u boladan signal va o‘yinda to‘satdan bo‘ladigan o‘zgarishlarga tezda javob berishni talab qiladi. Deyarli har bir harakatli o‘yinda harakatlar va bolalar harakatiga oid signallar mavjud. Masalan «chumchuqlar va avtomobil», «samolyotlar». O‘yindagi faol harakat faoliyati bola qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirgan holda asab tizimini mashq qildiradi, kuzatuvchanlik, topqirlik, atrof- muxitda mo‘ljal olish qobiliyatini, botirlik, chaqqonlik tashabbus ko‘rsatish, maqsadga erishishning mustaqil usulini tanlashni tarbiyalaydi.

Adabiyotlar tahlili: *harakatli o‘yinlarning kelib chiqishi.* Harakatli o‘yinlarning kelib chiqishi xalq pedagogikasiga borib taqaladi. O‘yinlarning kelib chiqishi va tarixi haqidagi ma’lumotlar bizgacha XI asrning buyuk tilshunos, tarixchi, etnografi Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» kitobi orqali yetib kelgandir. Asarda o‘zbek harakatli o‘yinlarini boshlashdan oldin amalga oshiriladigan chaqirish, to‘planish, o‘yin boshi, chek tashlash kabi o‘yin shakllaridan namunalar

keltirilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida ham sport o‘yinlaridan qilichbozlik, kurash, ko‘pkariga alohida e‘tibor berilib, ularni yoshlarni jismonan baqquvat bo‘lishlariga katta ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatib o‘tilgan.

P.F.Lesgaft «o‘yin bolani hayotga tayyorlashga yordam beruvchi mashq deb hisoblaydi». Bu mashq mustaqil faoliyat bo‘lib, unda bolaning shaxsiy tashabbusi rivojlanadi va axloqiy sifatleri tarbiyalanadi. U har bir o‘yin maqsadga ega bo‘lishi kerak deydi. Buning uchun o‘yindagi harakatlar bolaning o‘zini boshqara olish malakasiga mos bo‘lishiga; bu harakatlar tizimli mashqlarda oldindan o‘zlashtirilgan bo‘lishi lozim. Harakatli o‘yinlarni muntazam o‘tkazish bolalarda o‘z harakatlarini boshqarishni rivojlantirishga yordam beradi, ular gavdasini tartibga soladi, ya’ni turli zo‘riqishda harakat qilishga o‘rgatadi. O‘yinlar bolani juda chaqqonlik, muayyan maqsad va tezkorlik bilan harakat qilishga; qoidalarni bajarish, o‘zini tutish, o‘rtoqlikni qadrlay olishga o‘rgatadi. P.F. Lesgaft harakatli o‘yinlar nazariyasini ishlab chiqdi, uning izdoshlari esa uni ijodiy rivojlantirdilar. (E.A.Arkin, N.N.Kelko, T.I.Osokina). O‘zbekistonda harakatli o‘yinlar nazariyasini rivojlanishiga Ta’lat Usmonxo‘jaev, Faxriddin Xo‘jaev, Abduraxmonov I.R, Galiyev Sh va boshqalar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shganlar. T.Usmonxo‘jayev o‘zining «1001 o‘yin» nomli kitobida harakatli o‘yinlarni bola organizmiga ta’siri, uning ahamiyatini to‘liq ochib bergan. Shuningdek o‘yinlar orqali bolalarda halollik, adolatlik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. O‘yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, tafakkur, tushuncha va mo‘ljall olishni aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi; uyinlar ijodiy hayol, xotira, topqirlik, fikr yuritish faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o‘yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Bola o‘yin faoliyati tufayli fazo va buyum voqeligini amalda o‘zlashtiradi, shu bilan birga fazoni idrok etish mexanizmini o‘zi ham juda takomillashadi. Masalan, bola tomonidan harakat yo‘nalishini mustaqil tanlash va harakatini o‘yin qoidasida qat’iy belgilangan yo‘nalishda bajarishi bir tomondan o‘yin vaziyatini (bevosita idrok qilinadigan) va ko‘rish-motor reaksiyasini (o‘yin harakatlarini) darhol baholashni, ikkinchi tomondan o‘z harakatlarini fazo-o‘yin muhitida anglash va tasavvur qilishni talab yetadi. Harakatli o‘yinlar bolalarda oddiy vaqt mo‘ljallini shakllantiradi. Ular quyidagilarda ifodalaniladi: o‘yin harakatlarining izchilligini tushunib olishda avval, so‘ng, bundan keyin, bundan oldin, barini bir vaqtda kabi o‘yin topshiriqlarini signalga ko‘ra, bolalar uchun belgilangan muddat doirasida tez bajarishida ko‘rinadi. Bu o‘yinlarga bolalar fazoda mo‘ljall olishni, harakatlar izchilligi va ularga vaqt davomida amal qilishni mashq qiladi. O‘yinlar mazmunini, butun o‘yin vaziyatini, uning qoidalarini, personajlar harakatini mustaqil tushuntirish, bolalarning joylashish o‘rnini, o‘yin atributlarini va harakat yo‘nalishlarini fazoviy iboralarni ishlatgan holda ko‘rsatish, o‘tkazilgan o‘yinga baho berish bolalarning aqliy

rivojlanishiga xizmat qiladi. Harakatli o‘yinlar katta bog‘cha yoshidagi bolalarda ijodiylikni rivojlanishi uchun qulaylik yaratadi. Bunda bolalar eshitgan ertaklari mazmuni asosida kichik o‘yinlar o‘ylab topishlari mumkin harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni va shakliga ko‘ra estetik faoliyat hisoblanadi. O‘yin harakatlarining rang-barangligini ularni bolalar aniq chaqqonlik bilan, o‘ziga xos ifodali bajarishlarida ifodalanadi. Harakatli o‘yinlarda musiqani qo‘llash katta estetik ahamiyatga egadir.

Metadalogiya: harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda harakatlar go‘zalligini va madaniyatini unutmaslik kerak: diqqatni harakatlari birmuncha ifodali bolalarga qaratish, obrazlarni ifodali, muvaffaqiyatli bera olganlarni rag‘batlantirish kerak.

Harakatli o‘yinlarning turlari: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan o‘yinlarni quyidagi turlari mavjud:

1. Qoidali harakatli o‘yinlar.
mazmunli o‘yin
mazmunsiz o‘yinlar.
2. Milliy harakatli o‘yinlar
3. Sport o‘yinlari.
4. Syujetli rolli o‘yinlar

Mazmunli harakatli o‘yinlar hayotiy va afsonaviy epizodlarni shartli shaklda aks ettiradi. Bolalarni ijodiy amalga oshiriladigan o‘yin obrazlari jalb yetadi. («Chumchuqlar va avtomobil», «Bo‘ri va g‘ozlar», «Maymunlar va ovchilar»).

Mazmunsiz harakatli o‘yinlar. Bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan, tushunarli bo‘lgan maksadga erishishda ularga yordam beruvchi harakatli o‘yin topshiriqlardan iboratdir. Ular ham o‘z navbatida yugurib o‘tish, quvlashmahoq tipidagi o‘yinlar; musobaqa elementlari mavjud o‘yinlar («Kimning zvenosi tezroq saflanadi», «Kim o‘z bayroqchasiga tezroq etib bora oladi); murakkab bo‘lmagan o‘yin-estefetalar («Kim to‘pni tezroq uzatadi»), buyumlar (to‘plar, c hambaraklar, arg‘imchoqlar, kegmilar) bilan bajariladigan o‘yinlar, harakat mazmuniga ko‘ra farqlanadigan o‘yinlar (yugurish, sakrash, uloqtirish). Shuningdek, kichik yoshli bolalarga mo‘ljallangan o‘yin ertaklar («Chapak-chapak», «Shoxli echki) ham mavjud.

Sport o‘yinlari-bularga voleybol, basketbol, badminton, stol tennisi, futbol, xokkey kiradi. Sport o‘yinlarida eng avvalo maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi, shuning uchun sodda, biroq harakat texnikasi-qoidalari, o‘yinni tashkil etishning haqiqiy elementlari tanlanadi. Shu tufayli o‘yin omillari katta kishilarda bo‘lganidek jismoniy va asabiy zo‘riqish uyg‘otmaydi. Ayni paytda ular maqsadga intilganlik, o‘rtoqlik va ma’suliyat hissini va sportga muhabbatini tarbiyalaydi. Bolalar bog‘chalarining katta va maktabgacha tayyorlov guruhlarida sport o‘yinlarini o‘tkazish mumkindir. Ularda bolalar musobaqasi, o‘yin estafetasi elementlari mavjud. Sport uyinlari xarakatli o‘yinlarni uyushgan holda o‘ynaydigan va harakatli o‘yinni mustaqil tashkil yetadigan

bo'lganda asta-sekin joriy etiladi. Sport o'yinlari harakatli o'yinlardagidan ko'proq o'zini tuta bilishini, uyushqoqlikni, kuzatuvchanlik muayyan harakat texnikasini, harakatining tezkor reaksiyasini egallashni talab qiladi. Agar harakatli o'yinlarda bolalar ijodiy tashabbus ko'rsatgan xolda turli harakatlardan foydalansalar, sport o'yinlarida harakatlarni bir qadar chegaralanganligi kuzatiladi, bu mazkur o'yinning o'ziga xos xususiyati va xarakter faoliyati texnikasining aniqligi bilan belgilanadi. Sport o'yinlarida qatnashuvchilar soni aniq belgilangan, ularning vazifalari taqsimlangan, o'yin muddati vaqti chegaralangan bo'ladi. O'yinlarni o'tkazish shartlari maxsus tayyorlangan joyni, belgilangan maydonchani, tegishli jihoz va inventarlarni talab qiladi. Bolalarning sport o'yinlarini (basketbol, voleybol, tennis) o'ynashi uchun ular to'pni erkin egallash ko'nikmasiga ega bo'lishlari muhimdir. To'p bilan harakat qilish, tutib olish, fazoda to'g'ri mo'ljal olish kabi zarur malakalarni rivojlantiradi.

Harakatli o'yinlarni har bir yosh guruh uchun tanlashda ularni murakkablashib borishini hisobga olishi lozim. Harakatli o'yinlar bolalarda mushak zo'riqishi: kuchli, o'rtacha, sust xarakatchanlik darajasiga qarab bo'linadi. Harakatli o'yin turlari o'z ichiga asosiy, saflanish va umumrivojlantiruvchi mashqlarni oladi. Harakatli o'yinlarni o'zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Biroq variantlar faqat o'yinni rang-baranglashtirish bolalarning unga nisbatan qiziqishini saqlab turish uchunгина emas, balki pedagogik vazifalar- harakatlarini takomillashtirish, birmuncha murakkab o'yin harakatlari, qoidalarini bajarishga o'yin vaziyati sharoitining o'zgarishi uchun kerak bo'ladigan jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun ham zarurdir. Ular bolalardan muayyan aqliy va jismoniy kuchni va shu bilan birga o'yinga nisbatan ortib boruvchi qiziqishni talab qiladi. Masalan, «Qopqon» o'yinining bir necha varianti mavjud: To'p bilan o'ynaladigan «Qopqon» o'yini, «Oyoqni erdan uzib o'ynaladigan «Qopqon o'yini». Shuningdek, harakatli o'yinlar variantlarini tarbiyachining o'zi yaratishi mumkin. Bunda u o'z guruhidagi bolalarni aqliy va jismoniy rivojlanganligini hisobga oladi va ularga quyiladigan talablarning tobora oshib borishini ko'zda tutadi.

Harakatli o'yinlarga rahbarlik qilish: Tarbiyachining o'yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo'lishi o'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Pedagog o'yin faoliyatiga rahbarlik qilgan ekan, bolalarni asta-sekin va «sezdirmasdan» qiziqarli o'yin vazifalarini bajarishida mustaqillik va topqirlik ko'rsatish, yuzaga kelgan o'yin vaziyatida chaqqon intilib harakat qilish, o'rtoqlik yordami berish, hamma uchun umumiy bo'lgan maqsadga erishishga va bundan quvonishga o'rgatib boradi.

Harakatli o'yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko'nikmalarining

rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, uyini o‘tkazish o‘rni, shuningdek bolalar qiziqishlarini o‘ziga xos xususiyatlari. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o‘zgartirib turiladi. Kichik guruhda mazmuni va qoidasiga ko‘ra sodda bo‘lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o‘yinlar tashkil etiladi. Bu o‘yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat topshirig‘ini tarbiyachining bevosita ishtirokida (barcha bolalar – qushchalar, tarbiyachi – ona qush bo‘ladi...) bajaradilar. 3 yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o‘rgatib boriladi (barcha bolalar qushlar, bitta yoki ikkita bola avtomobil bo‘ladi). O‘rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o‘yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o‘tkazish mumkin. Katta guruhda bolalar uchun harakatli o‘yinlar o‘z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshiriqni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko‘ra murakkablashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o‘yinlar, shuningdek jamoa musobaqalaridan iborat komanda o‘yinlarni, o‘yin estafetasi, sport o‘yinlarini o‘ynaydilar.

Bolalarning o‘yin faoliyatini tashkil etish. O‘yin o‘zining mazmuni, o‘yin topshiriqlarining navbatma-navbat bajarishlariga qarab barcha bolalar bilan bir vaqtda yoki kichik guruh (bu vaqtda bolalarning qolgan qismi boshqa faoliyat bilan band bo‘ladilar) bilan o‘tkaziladi. Bolalarni o‘yinda to‘g‘ri tashkil etish kerak, o‘yinda navbatni kutib qolish, holatlarning bir xilligi, kichik yoshdagi bolalarda qiziqishning, harakat reaksiyasi tezligining susayishiga olib keladi; bolalar arzimagan bahona bilan o‘yindan chalg‘iydilar. Ma‘lum bir harakatda, uzoq vaqt qo‘zg‘alish holatida bo‘lganda markaziy asab tizimida umumiy toliqish yuz beradi. Shunday qilib, faqat o‘yinni to‘g‘ri tanlashgina emas, balki uni katta samara beradigan darajada o‘tkazish muhimdir.

Bolalarni yangi o‘yin bilan tanishtirish. Uning mazmuni va qoidalarini tushuntirishi tarbiyachidan puxta tayyorgarligini talab yetadi. Ayrim o‘yinlarning mazmuni oldindan bo‘ladigan suhbatlar asosida bolalarni bilimlarini oydinlashtirish mumkin. Ularning tasavvurlari aniqlashadi, o‘yin obrazlarga nisbatan munosabat tarkib topadi, asosiy xayol o‘sadi. O‘yinlarni tushuntirish ularning turlariga ko‘ra har-xil o‘tishi mumkin. Masalan mazmunsiz o‘yinni tushuntirish qisqa, aniq va ifodali oxangda bo‘lishi lozim. Tarbiyachi o‘yin harakat izchilligini tushuntiradi, bolalar va o‘yin atributlarining joylashish o‘rni (kichik va o‘rta guruhda buyumlarni mo‘ljallab, katta guruhlarda esa mo‘ljalga olmay ko‘rsatadi) fazo iborasidan foydalangan holda ko‘rsatadi va qoidalarni aniqlashtiradi. Shundan so‘ng tarbiyachi bolalarga bir necha savollar beradi. O‘yinni qoidasi bolalarga tushunarli bo‘lsagina o‘yin quvnoqlik va uyushqoqlik bilan bilan o‘tadi. Musobaqa elementlari mavjud o‘yinlarni o‘tkazishda tarbiyachi o‘yinni tushuntirayotib qoidalarni, o‘yin usullarini,

musobaqa shartlarini aniqlashtiradi, bolalarni topshiriqlarni yaxshi bajarishga harakat qilishlar va yaxshi uddalashga ishonch bildirgan holda rag‘batlantiradi. Tarbiyachi bolalarning jismoniy qomoloti va yakka o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqalashayotgan kuchlari teng guruhlar – komandalarni birlashtiradi; o‘ziga ishonchsiz, tortinchoq bolalarni faollashtirish maqsadida ularni jasur, faol bolalar bilan qo‘shib qo‘yadi. Ba‘zan o‘yinga sport ko‘rinishini berish uchun komanda kapitanlari, sudya va uning yordamchilarini saylash mumkin. Mazmunli o‘yinlarni tushuntirish: tarbiyachining vazifasi bolalar ko‘zi o‘ngida o‘yin vaziyatining ko‘rgazmali manzarasini gavdalantirishdan, o‘yin obrazlarini yorqin tasvirlashdan, bolalar tasavvuri va hislariga ta’sir etishdan, ularning ijodiy tashabbusni faollashtirishdan iboratdir. Buning uchun kichik guruhlarda o‘yinchoq va hikoyadan foydalanishi mumkin. O‘rta guruhlarda – tinish o‘yinni taklif etib, qoidalarini eslatib o‘tish bilan cheklanishi kifoya. Katta guruhlarda o‘yin mazmuni eslashni bolalarning o‘zlariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ulardan biri fazo terminalogiyasidan foydalangan holda o‘yinchilarning joylashish o‘rnini belgilaydi, o‘yin harakatlarining borishini bayon qiladi, ikkinchisi qoidalarni sanab beradi. Keyinchalik bolalar o‘zlari tarbiyachining yordamisiz o‘yinni tashkil eta boshlaydilar.

O‘yinda rollarni taqsimlash. Tarbiyachi pedagogik vazifalarga amal qilib (yangi kelgan bolani rag‘batlantirish yoki aksincha, faol bola misolida botir bo‘lish qanchalik muhim ekanligini isbotlash yoki o‘ziga ishongan bola iltimosini rad etib, bu rolni qo‘rqib tortinchoq bolaga topshirish) boshlovchi tayin etishi yoki bolalarni xursand qilgan holda o‘yinga o‘zi kirishib o‘z zimmasiga boshlovchi yoki oddiy ishtirokchi rolini oladi. Shuningdek, boshlovchi saylashni bolalarni o‘ziga xavola etishi va ulardan bu rolni mazkur bolaga nima uchun topshirganlarini tushuntirib berishlarini so‘rashi mumkin. Kichik guruhda boshlovchi rolini tarbiyachini o‘zi bajaradi. O‘yin jarayonida tarbiyachi bolalar xarakati va o‘zaro munosabatlar, qoidalarini bajarilishini kuzatib boradi, qisqacha ko‘rsatmalar beradi, bolalarning hissiy holatlarini boshqarib boradi. Qoidaning ayrim bolalar tomonidan buzilishi haqida o‘yinni qayta o‘tkazishdan oldin gapiradi.

O‘yinni yakunlash. Harakatli o‘yin jismoniy yuklamani kamaytiradigan va pulsni normal xolga keltiradigan umumiy yurish bilan tugallanadi. Yurishni ahamiyatiga ko‘ra bir xil bo‘lgan kam harakatli o‘yin bilan almashtirish ham mumkin. O‘yin tugagan zahoti uni yakunini chiqarish kerak emas: bolaning tez harakatdan dam olishga asta-sekin o‘tmasligi yurak faoliyatini va butun organizmiga noxush ta’sir yetadi. Tarbiyachi o‘yinni baholashida uning ijobiiy tomonlarini ta’kidlaydi, o‘z rollarini muvaffaqiyatli bajargan, jasurlik, chidamlilik, o‘zaro o‘rtoqlik yordami ko‘rsatgan bolalar nomini ataydi va qoidalarning buzilishi hamda bolalarning shu bilan bog‘liq harakatini kuyinib ko‘rsatib o‘tadi. Katta guruhlarda

tarbiyachi bolalarni harakatli o'yinlarni mustaqil tashkil etishga tayyorlaydi, bunda o'yinlarning borishini va ayniqsa, qoidalarni bajarilishini hamda bolalar o'rtasidagi munosabatlarni kuzatib beradi. U bolalarga harakatli o'yin variantlarini uning mazmuni, qoidasini, o'yin harakatlarini o'zgartirgan holda o'ylab topish, keyinchalik yangi o'zi o'ylab o'yin topish kabi topshiriqlar beradi.

References:

1. О.С.Ушакова, Л.Г.Шадрина, Е.М.Струнина. Развитие речи и творчества дошкольников. Учебник. М: - 2020 г.
2. D.N.Raxmatova, L.Z.Xolmurodov, L.B.Sobirova. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. O'zbek kitob savdo nashriyoti, 2020
3. Bobomurodov A.E. jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati (jismoniy sifatlarni umumiy tasnifi). "O'zbek kitob savdo "nashriyoti, 2020
4. T.Usmonxo'jayev o'zining «1001 o'yin»
5. R.S. Salomov. Theory and methodology of physical education. (Volume II) T. 2015
6. R.S Salomov, Y.Y Aripov. Fundamentals of the methodology of physical education of school-aged children. T. "Molya" 2011.
7. State educational standard and curriculum in the subject of physical education of general secondary education. (Grades 1-9). Tashkent-2017.
8. Abdullaev A, Sh. Honkeldiev. Theory and methodology of physical education. Textbook - T.: 2013. 462 p.

ЗНАЧЕНИЕ ГИМНАСТИКИ НА УРОКАХ ФИЗКУЛЬТУРЫ.

Казоков Содик Рамазонович

*Бухарский государственный медицинский институт,
доцент кафедры реабилитации,
спортивной медицины и физического воспитания.*

Аннотация. Воспитание и тренировка учащейся молодежи осуществляется в ходе воспитательной работы на уроках и внеурочных мероприятиях, а также в общественно полезном труде. Гимнастике уделяется большое внимание в национальных программах подготовки кадров, в правилах среднего общего образования и высшего образования, а также в новых формах обучения.

Ключевые слова. Физкультура, студенческая молодежь, группы, гимнастика.

Введение. Как сказал президент Шавкат Мирамонович Мирзияев, "новая модель образования ведет к формированию свободной личности, независимо мыслящей в обществе. У нас будет возможность воспитывать молодых людей, обладающих сильной волей, полных веры и четкой цели в жизни, осознающих свою ценность. После этого осознанный брак становится главным критерием жизни общества.

Настоящая инструкция в полной мере относится к работе по физическому воспитанию студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. Занятия по физическому воспитанию проводятся в такой форме, что охватывают всех студентов. Занятия проводятся в составе групп с этих факультетов. Это позволяет улучшить организацию и проведение тренинга с учетом конкретных условий и подготовки участников. Занятия физкультурой проводятся по установленному расписанию, в определенный день недели, продолжительностью 45 или 90 минут в течение определенного периода времени.

Надлежащее обучение гарантирует, что учащийся правильно выполняет различные упражнения, связанные с повышением успешности самостоятельной работы. Учащиеся выполняют эти упражнения самостоятельно дома или в группах. Уроки являются основой самостоятельной или групповой деятельности учащихся.

На занятиях, которые обычно проводятся в студенческих общежитиях или перед началом занятий, с используемыми материалами знакомятся в протоколах занятий гимнастикой, переменами и физкультурой. Из коротких

бесед учителя во время урока учащиеся получают четкую информацию о важности упражнений по физическому воспитанию и их необходимости для здоровья.

Учащиеся чувствуют, что физическое воспитание имеет большую практическую ценность только тогда, когда они овладевают методами работы с человеческими органами (предметами и без предметов) во время изучения независимых упражнений.

Среди физических упражнений, используемых на уроках физкультуры, есть много жизненно важных упражнений, которые можно применять в повседневной жизни. Цель этих упражнений - приучить учащихся использовать средства физического воспитания каждый день в различных условиях учебы, работы и отдыха. Всем этому молодые люди учатся в первую очередь на уроках физического воспитания.

Занятия по физическому воспитанию имеют свои особенности в соответствии с их содержанием и организацией. Они проводятся дома, в зале, на поле, в таких местах передвижение молодежи менее ограничено, что создает особые условия для выполнения упражнений и проведения тренировок.

Упражнения по физическому воспитанию отличаются большим количеством самых разнообразных двигательных ощущений, которые воздействуют на тело. Для хорошего освоения упражнений необходим индивидуальный подход.

Все эти характеристики повышают ответственность за физическое воспитание молодежи.

Требования к уроку при выполнении упражнений.

- Каждое упражнение по физическому воспитанию должно служить основным инструментом в решении задач, поставленных на уроке.

- Комплекс упражнений для решения определенных общих и специфических задач, общие задачи включены в упражнения, выполняемые на всех уроках или серии уроков, а конкретные задачи включены в упражнения, выполняемые на отдельном уроке.

- Упражнения должны быть методически правильно структурированы.

- Составить комплекс упражнений утренней гимнастики, минутных упражнений по физической подготовке в терминах и графических записях и преподавать его различными способами.

- Создание упражнений, воздействующих на все части тела, которые помогают в всестороннем физическом развитии, укреплении здоровья, формировании фигуры.

- Правильное использование комплекса упражнений лечебной гимнастики и методов его выполнения.

Требования к объему практических упражнений, которые должны выполняться молодыми людьми.

- Регулярное включение упражнений в тренировочные занятия студента.
- Изучить профессиональные навыки определения работоспособности и физической подготовленности организма.
- Выполнение личных и нормативных требований к изученным методам физических упражнений.
- правильное использование гимнастического инвентаря.

Использование новых технологий в обучающих упражнениях. Образовательные технологии могут быть использованы в обучающих упражнениях. В этом случае уместно использовать теоретические и методологически-описательные заметки по разработке упражнений физической подготовки с помощью диаграмм, мультимедиа, картинок и необходимой новой литературы, по улучшению структуры тела и развитию физических показателей лечебной гимнастики, применяемой при различных заболеваниях, формирующих фигуру.

Задачи упражнений по физическому воспитанию. Результаты процесса упражнений по физическому воспитанию зависят от качества учебной и воспитательной работы, проводимой на тренинге. В этом случае каждого урока можно достичь, только последовательно решая поставленные задачи. Упражнения по физическому воспитанию делятся на 3 типа:

- 1) Образовательные задачи
- 2) Образовательные задачи
- 3) Здоровье разделено на задачи.

Образование: Учебные задачи состоят в том, чтобы научить студентов выполнять упражнения, предусмотренные программой, совершенствовать выученные упражнения, а также развивать навыки и умения, применять выученные упражнения в различных условиях.

Последовательное выполнение образовательных заданий приводит к систематическому и основательному усвоению всего учебного материала программы. Для решения некоторых образовательных задач требуется относительно много времени, и для решения некоторых из них достаточно одного урока.

Реализация образовательных задач обычно осуществляется вместе с задачами воспитания и здравоохранения.

Образовательные задачи. Культивируются внимание, дисциплина, воля, организованность, бережное отношение к вещам, а также дружба, товарищество, стремление к цели, независимость и настойчивость в преодолении трудностей. Развитие качеств настойчивости и храбрости

осуществляется с помощью упражнений (прыжки, балансирование, бег), которые требуют проявления тех же качеств на тренировках. Гимнастические упражнения - это произвольные движения, контролируемые разумом. При формировании двигательных навыков выполнение движений повышается до уровня автоматизации. Это не означает, что сознательного движения нет, потому что доведение движения до уровня автоматизации требует сознательного изучения физических упражнений. Учителя и тренеры отслеживают, оценивают и исправляют ошибки. Тем не менее, важно развивать способность участников оценивать и контролировать свои собственные действия. При этом часто используются методы предварительного зондирования и тестирования движений. После того, как изученные техники и навыки гимнастических упражнений сформированы, их обучают серии более сложных физических упражнений. Легкие упражнения снижают активность учащихся. Следовательно, необходимо давать им физические упражнения в соответствии с их физическим уровнем и совершенствовать их. Тела учащихся адаптируются к одной и той же форме упражнений. Увеличение количества, объемности и формы упражнений обеспечивает физическое развитие детского организма. В противном случае тело учащихся адаптируется к одной и той же форме упражнений, и их организм физически не развивается. Принцип результативности и индивидуализации означает учет особенностей учащихся и того, насколько сложно или легко дается им задание. Это означает, что процесс обучения физическому воспитанию должен быть организован с учетом возможностей участников, возрастных и гендерных особенностей, уровня подготовки, а также индивидуальных различий в физических и духовных способностях. Умение выполнять гимнастические упражнения, с одной стороны, зависит от возможностей участников, а с другой стороны, зависит от объективных трудностей, возникающих во время выполнения упражнения. Когда преподаватель устанавливает стандарт успеваемости, он сначала основывается на программах и нормативных требованиях, определенных для определенного контингента учащихся на основе научной информации и обобщенного практического опыта. Способности сотрудников определяются тестами на физическую пригодность, медицинским наблюдением и педагогическими наблюдениями. Принцип исполнения можно понимать как определение стандарта физических действий, которые могут быть выполнены с помощью физических и духовных сил участников. Кроме того, если считается, что интенсивные формы упражнений выходят за рамки возможностей занимающегося, это становится непосильной нагрузкой. В последующие периоды такие нагрузки также могут быть рассчитаны исходя из возможностей занимающихся. Если гимнастические нагрузки обеспечивают

физическое развитие и здоровье организма, то это нагрузки, которые можно выполнять. Физические нагрузки, которые оказывают негативное воздействие на организм и наносят вред здоровью, считаются невыполнимыми нагрузками. Тем не менее, с развитием организма спортсмена уровень нагрузок, которые нельзя выполнять, снижается. Попытки выполнять посильную нагрузку также должны осуществляться под наблюдением педагога и врача, поскольку они дают инструкции по устранению негативного воздействия нагрузок на организм. В дополнение к условиям, определенным на каждом этапе физического воспитания, стандарт выполнения определяется целесообразностью выбранного метода и организацией тренировки в целом. Компетенции и умения являются основой ранее приобретенных навыков. Следовательно, проблема способности к выступлению неразрывно связана с другими методами воспитания и тренировки, с методами регулярного увеличения продолжительности тренировок и трудностей. Одним из решающих условий результативности в процессе физического воспитания является продолжительность гимнастических упражнений. Непрерывность достигается за счет естественных взаимосвязей между различными формами движения и структурой. Тренировка должна быть организована таким образом, чтобы заученные двигательные задания обеспечивали легкое усвоение будущих тренировочных заданий. Этот шаблон называется переходом от известного к неизвестному или от освоенного к не освоенному заданию. Одним из наиболее важных условий при переходе от одного задания к другому, от простого к сложному, является последовательность. Польза регулярных физических упражнений неизмерима. Регулярность процесса физического воспитания в основном определяется тем, насколько он зависит от наиболее удобной последовательности нагрузки и отдыха. Непрерывность - физическое воспитание - это непрерывный процесс, охватывающий все периоды человеческой жизни. функциональные и структурные изменения, происходящие в организме из-за гимнастических упражнений, вступают в противоречие, условно-рефлекторная связь начинает угасать, достигнутый уровень функциональных возможностей снижается, и даже некоторые регрессивные изменения становятся очевидными после 5-7 дней отсутствия физических упражнений. Понятно, что процесс физического воспитания должен быть непрерывным, то есть следует исключить ненужные перерывы, и только после этого будут созданы условия для достижения физической зрелости. Повторение и возобновление упражнений В процессе физического воспитания повторению уделяется больше места, чем в большинстве других видов образования. В дополнение к повторению для процесса физического воспитания важно также варьировать, то есть часто менять условия

гимнастических упражнений и их выполнения, постепенно увеличивать нагрузки и применять различные методы их использования, а также изменять форму и содержание тренировок в целом. Нагрузка является фактором уровня воздействия гимнастических упражнений на организм и развития функциональных возможностей организма. При восстановлении, как следствие и эффект нагрузки, отдых неразрывно связан с нагрузкой. Принимая во внимание органическую связь и сосуществование процессов утомления и восстановления, можно понять взаимозависимость нагрузки и отдыха. Результаты научных исследований показывают, что трудоспособность человека меняется во время работы и отдыха.

Список литературы

1. Мирзиеев Ш.М. Мы построим наше великое будущее вместе с нашим храбрым и благородным народом. "Узбекистан", 2017.
2. Указ Президента Республики Узбекистан "О мерах по коренному совершенствованию системы управления в области физического воспитания и спорта". 5 марта 2018 года. PF-5368.
3. Указ Президента Республики Узбекистан "Об утверждении стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан". 7 февраля 2017 года. PF-4749.
4. Р.С. Саломов. Теория и методика физического воспитания. Т. 2014
5. Р.С. Саломов. Теория и методика физического воспитания. (Том II) Т. 2015
6. Р.С. Саломов, Ю.Ю. Арипов. Основы методики физического воспитания детей школьного возраста. Т. "Молья" 2011.
7. Государственный образовательный стандарт и учебная программа по предмету "Физическое воспитание" общего среднего образования. (1-9 классы). Ташкент-2017.
8. Абдуллаев А, Хонкельдиев Ш. Теория и методика физического воспитания. Учебное пособие - Т.: 2013. 462 с.
9. Д.Н. Рахматова, Л.З. Холмуродов, Л.Б. Собирова. Теория и методика физического воспитания в дошкольном и начальном образовании. Издательство "Узбекская книжная торговля", 2020
10. Бобомуродов А.Е. Физическая подготовка, теория и методика спорта (общая классификация физических качеств). Издательство "Узбекская книжная торговля", 2020.

**ВОЛЕЙБОЛЧИЛАРНИНГ МАШҒУЛОТ САМАРАДОРЛИГИНИ
ОШИРИШДА САКРОВЧАНЛИК СИФАТИНИ МАХСУС
ҲАРАКАТЛИ ҲИЙНЛАР ЁРДАМИДА ШАКЛЛАНТИРИШ**

Қазоқов Содиқ Рамазонович

*Бухоро давлат тиббиёт институти реабилитология, спорт
тиббиёти*

ва жисмоний тарбия кафедраси доцентни

З.С.Рамазонава

*Бухоро давлат педагогика институти 1-босқич
магистранти*

Аннотация: Мақолада ёш волейболчиларда сакраш, сакровчанлик ва чидамкорлиги, сакраш баландлигини, Абалаков усули билан баҳолаш ва уни махсус машқлар ёрдамида ривожлантириш самарадорлигини аниқлаш бўйича ўтқазилган тадқиқот натижалари таҳлил қилинган. Волейболчиларда сакровчанликни таъминловчи кинематик элементларни шакллантириш афзаллиги ғояси илгари сурулган.

Калит сўзлар: Сакраш, сакровчанлик ва сакраш чидамкорлиги, сакраш баландлиги, машғулот юкламаси кўрсаткичи, тайёргарлик даври, юклама ҳажми.

Долзарблик; Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги қонунини “Кадрлар миллий дастури “ , “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида “ ги қонунини, 2017йил 3 июн, жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора – тадбирлари тўғрисидаги ПҚ – 3031 – сон, 2018 йил 5 мартдаги “ Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора – тадбирлари тўғрисида “ ги ПФ – 5368 – сонли фармон ва қарорлари шунингдек, жисмоний тарбия ва спортга оид чиққан ҳукумат қарорларида белгиланган вазифалар, барча таълим муассасаларида бугунги кунда энг долзарб масала, яъний аҳоли ўртасида жисмоний тарбия ва спорт ҳаракатини кучайтириш, унинг оммавийлигини ошириш, шу жумладан, барча таълим тизимидаги ёш авлодни жисмоний бақувват , чаққон иродали , ватанпарварлик руҳида тарбиялаб вояга етказиш учун жисмоний тарбия ва спорт машғулотларини янги усул ва воситалар орқали ташкил қилиш ва ўтказиш, кўпроқ ўқувчи – ёшларни спорт машғулотларига янги усул ва воситалар орқали ташкил қилиш ва ўтказиш, кўпроқ ўқувчи – ёшларни спорт машғулотларига оммавий равишда узлуксиз жалб қилишга ва ривожлантиришга қаратилган ҳамда оммавий – спорт тадбирларини ташкил қилишга йўналтирилган .

КИРИШ


Волейбол машғулотларини илмий асосда ташкил қилиш зарурлиги ушбу спорт турига хос бир неча долзарб масалалар билан асосланади. Биринчидан, волейбол – жамоали спорт турларига мансуб бўлиб, унда 6 – кишидан иборат ҳар бир жамоа аъзолари нисбатан кичик майдоннинг (9x18) ярмида (9x9) ўзаро ҳамжиҳатлик билан фойдали мақсадга қаратилган техник – тактик усуллар ва комбинацияларни ўта кескин ўзгарувчан йўналишларда ва максимал тезликда ижро этиш талаб қилинади . Иккинчидан, бугунги волейболда деярли барча ўйин усуллари (ҳужум зарбалари, тўсиқ қўйиш, тўп узатиш, тўп киритиш) сакраб бажарилади. Л.Р.Айрапетянц, (2006) маълумотларига қараганда мусобақа давомида ўйинчилар фақат зарба бериш учун 242 – 394 марта, тўсиқ қўйиш учун 244 – 441 мартага сакрар эканлар. Тайёрликнинг бир мезосикли давомида фақат зарба ва тўсиқ қўйиш учун жами 1830 мартагача сакрашга тўғри келар экан . Агар бу миқдорда тўп узатиш, тўп киритиш ва чалғитувчи сакрашлар сони қўшилса ва бундай юкламаларни узоқ муддат давомида сакраш баландлигини (сакровчанликгини) туширмасдан ижро этилиши зарурлиги эътиборга олинса волейболчи учун сакраш, сакровчанлик ва сакраш чидамкорлиги қанчалик муҳим эканлиги аён бўлади . Тўғри, сўнгги йилларда волейбол бўйича чоп этилган дарсликлар ва ўқув қўлланмаларида мазкур мавзу ёки масалаларга бағишланган маълумотлар ҳамда тадқиқот натижалари талқин этилган (Л.Р.Айрапетянц, М.А.Годик. 1991 йил: Ю.Д.Железняк, 1998, 2005 йил: А.В.Беляев ,М.В.Савин, 2000,2009 йил: Ю.Н.Клещев ,2003: Л.Р.Айрапетянц , 2006: Л.Р.Айрапетянц , А.А.Пулатов, 2012 йил). Шу билан бир қаторда ушбу манбааларда, турли зоналарда зарба бериш, тўсиқ қўйиш, сакраб орқага ёки олдинга тўп узатиш, тўп киритиш учун ижро этиладиган сакрашлар координацияси, баландлиги, ҳолат – югириб келиш, оёқларни букиш бурчагини танлаш масалалари тадқиқот предмети сифатида атрофлича ўрганилмаган . Боз устига сакровчанлик (сакраш баландлиги) фақат Абалаков ёки “диагонал экран” (кассой экран) ўлчов усули билан баҳоланади. Дарвоқе, айрим тадқиқотларда “тезометрик платформа” асбобида ҳам ушбу сифатлар суръати аниқланган. (А.Б.Беляев, М.В.Савин,2009). Аммо тензометрик асбоблар ўзининг оғирлиги, эксплуатацион жиҳатдан кўп вақтни талаб қилишлиги билан сакровчанликни тезкор баҳолаш ва назорат қилиш имконини бермайди. Ана шу ва сакровчанликни таъминловчи бошқа хусусиятларни (юқорида муҳокама этилган) эътиборга олган ҳолда биз ушбу сифатнинг турли кирраларини ўрганиш имкониятини яратадиган янги технологик асбобни ихтиро қилишга эришдик. Муҳокама этилаётган мазкур маълумот, муаммо ва омиллар мақолада ўта долзарб амалий аҳамиятга лойиқ эканлигидан далолат беради.

Ёш волейболчиларнинг жисмоний


Тайёргарлиги ўртача кўрсаткичлари

Тестлар	Шуғулланувчи ёши			
	10ёш	12 ёш	14 Ёш	16 ёш
30 м га югуриш (м/сек)	4,50	4,00	3,70	3,60
Аблаков усулида сакраш (см)	45,8	49,0	46,3	68,3
Узунликка сакраш (см)	198	206	235	260
Узунликка югуриб келиб сакраш (см)	339	421	450	459
Тўлдирилган тўпни улоқтириш (м)	8,22	12,70	13,21	13,62

Абалаков усулида сакраш



(1-расм.)



(2-расм.)

Тадқиқот мақсади: ҳаракатли ўйинлар орқали замонавий волейболга хос сакраш турлари, сакровчанлик ва сакраш чидамкорлигини таъминловчи кинематик омилларни ўрганиш асосида мазкур қобилиятни жадал ҳамда самарали шакллантириш воситаларини аниқлаш.

Тадқиқот методлари: ёш волейболчиларда сакровчанлик ва уни таъминловчи кинематик омилларни амалдаги Абалаков усули ёрдамида ўрганиш

.Сакровчанликни назорат қилиш ва баҳолаш мақсадида ишлаб чиқилган технологик асбобни синовдан ўтказиш. Сакровчанликни таъминловчи кинематик элементларни шакллантириш бўйича ишлаб чиқилган махсус машқлар самарадорлигини аниқлаш. Сакрашчанлик ва сакраш чидамкорлигини аниқлашда биз томонимиздан ясалган махсус асбоб синовдан ўтказилди.

ТАДҚИҚОТ МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАРИ

Жорий тадқиқот натижаларидан маълум бўлдики. БухТИда 2 йил давомида шуғулланган 19-21 ёшли волейболчиларда сакровчанлик ва сакраш чидамлиги мувофiq меъёрий мезонларга нисбатан жуда суст ривожланганлиги кузатилди. Жумладан, жойдан вертикал сакраш 30,2 см. дан 33,0 см. гача, сакраш чидамкорлиги еса 6,34 мартадан 9,66 мартагача ўсганлиги қайд этилди. Замонавий волейболда сакраб ижро этиладиган техник – тактик усулларнинг самарадорлиги сакраш баландлиги (сакровчанлик), сакраш координациясининг ушбу усуллар хусусиятларига боғлиқ эканлиги исбот талаб қилмайди. Шундай экан сакраш кўникмаларига ўргатишда, сакровчанлик ва сакраш чидамкорлигини ривожлантиришда мазкур кўникмаларни ижро этиш зоналари, уларнинг ўзига хос координацияси, кинематик фазаларни ва элементларни эътиборга олиш муҳим амалий аҳамият касб этади. Алоҳида таъкидлаш жоизки, сакраш кинематикаси, сакровчанлик ва сакраш чидамкорлигини назорат қилиш ҳамда баҳолаш уларни шакллантириш жараёнини мақсадли ташкил қилиш имконини яратади. Лекин бугунги кунда волейболчилар амалиётида қўлланилаётган назорат услублари сакраш кинематикаси, сакровчанлик ва сакраш чидамкорлигига хос хусусиятларни тўла – тўқис ўрганишга имкон яратмайди. Муҳокама этилаётган ушбу муаммолар айни кунда мавжуд ўқув ва илмий – услубий адабиётларда батафсил кўриб чиқилган. Бинобарин, мазкур масалаларни тадқиқот асосида ўрганиш ўта долзарб илмий –амалий аҳамиятга эгадир. Айниқса сакраш кўникмалари, сакровчанлик ва сакраш чидамкорлигини назорат қилиш ҳамда баҳолашда мўлжалланган янги услуб ёки технологик асбоб – воситаларни яратиш замонавий волейболнинг муҳим талабларидан. Ушбу мақоланинг асосий мақсади қайд этилган муаммонинг тадқиқот асосида ҳал этишга қаратилган.

ХУЛОСА

Мавзуга доир адабиётларни таҳлил қилиш, волейболчилар тайёрлаш тажрибасини визуал кузатув асосида ўрганиш ва ўтқазилган тадқиқотлар натижаларига биноан қуйидаги хулосаларни эътироф этиш мумкин. Сўнги йилларда волейбол бўйича чоп этилган манбаларда сакраб ижро ўйин усулларига хос сакраш техникаси, координатсияси, кинематик ва аэродинамик элементларига асосланиш масалалари очиб берилмаганлиги аниқланди. Ушбу масалаларга турли ёшли волейболчилар тайёрлаш амалиётида жиддий эътибор

қаратилмаслиги визуал натижалари билан ҳам тасдиқланди. Биз томонимиздан сакровчанлик кўрсаткичларини баҳолаш мақсадида яратилган асбоб-мослама ва ноанъанавий тестлар жорий тадқиқотлар ҳамда педагогик тажриба давомида сакраш баландлиги ва сакраш техникасини таъминловчи ўта муҳим кинематик ҳамда аэродинамик элементлар ролини очиб беришга имкон яратди. Жумладан, сакраш учун депсиниш вақтида ўнг ва чап оёқнинг асимметрик нисбатда ривожланган портловчи кучи-сакраш техникасига салбий таъсир кўрсатиши аниқланди. Тажриба юзасидан ўтказилган тадқиқот натижаларидан шу нарса маълум бўлдики, 4 ой давомида анъанавий мазмунли машғулотларда шуғулланиб келган НГ да сакровчанлик 0,8-1,3 см. га ўсди холос. ТГ да эса ушбу кўрсаткич 5,0-6,3 см. гача ортганлиги кузатилди. Сакраш чидамкорлиги НГ да 1,3 марта, ТГ да 7,1 марта ўсганлиги билан фарқланди. Тажриба давомида яратилган асбоб-мослама ва ноанъанавий тестларни қўллаш натижасида шу нарса исботландики, сакраб ижро этиладиган ўйин усулига мос сакраш техникасига ўргатиш, сакраш баландлиги ва сакраш чидамкорлигини ривожлантиришда аэрокинематик элементлар интеграциясига эътибор қаратиш сакраш ҳаракатининг барча кўрсаткичларини янада юксакроқ намойиш этишига асос бўлади. Олинган натижалар ва уларга асосан эътироф этилаётган хулосаларга мувофиқ волейболга ўргатиш назарияси ва амалётига “сакраш техникаси ва тактикаси”, “сакровчанлик ва сакраш чидамкорлигини таъминловчи аэрокинематик элементлар” деган тушунчаларни махсус атама сифатида киритиш таклиф этилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Пўлатов. А. А. Волейбол жисмоний тарбия институти. Курс талабаларига мўлжалланган маърузалар тўплами. Тошкент. 2004 й
2. Айрапетьянц. Волейбол. Учебник для высших учебник заведений Тошкент: 3ўр қалам. 2005 й
3. Айрапетьянц. Л. Р. Пўлатов. А. А. Волейбол назарияси ва услубияти Тошкент: фан ва технология: 2012 й
4. Қурбонова. М. А. Қосимова. М. У. Миллий ҳаракатли ўйинлар. Олий ўқув юртлари умумий курс учун ўқув қўлланма Тошкент: 2009 й
5. Пўлатов. А. А. Волейболнинг расмий қоидалари. ЎЗЖТИ нашриёти матбуот бўлими Тошкент: 2002.

ГИЁХВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИ ВА ПСИХОТРОП МОДДАЛАР БИЛАН ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА МУОМАЛА ҚИЛИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
301 гуруҳ курсанти Акрамов Асадбек Назиржон ўгли
301 гуруҳ курсанти Хамидов Сухроббек Икромжон ўгли*

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилиш жиноятларининг ўзига хос хусусиятлари ва уларнинг ноқонуний айланмалари тўғрисида илмий асосланган маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: гиёҳвандлик, психотроп моддалар, ҳуқуқий онг, ҳуқуқ, жиноят.

КИРИШ

Ҳар қандай мамлакат ўз келажагини ёшлар тимсолида, аниқроғи уларнинг жисмоний ва маънавий жиҳатдан баркамол бўлиб вояга етишида кўриши табиий ҳолдир. Ҳуқуқий демократик давлат тараққиётининг ривожига ҳам айнан ўсиб келаётган ёш авлоднинг таълим ва тарбия даражаси билан бевосита боғлиқдир. Бунга эришиш учун эса аввало, жамият аъзоларининг, шу жумладан, ёшларнинг сиёсий, ижтимоий, маънавий ва ҳуқуқий савияси юқори даражада бўлиши талаб этилади. Мамлакатимизда ёшларнинг баркамол инсон бўлиб, улғайишига давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилмоқда. Бу борада мамлакат Президенти Ш.М.Мирзиёев —Бугунги мураккаб замонда ёшларни жисмоний ва маънавий баркамол инсонлар этиб тарбиялаш биз учун ғоят муҳим вазифа бўлиб қолмоқда — деб таъкидлаб ўтди. Мазкур устувор вазифадан келиб чиқиб, ёшларни жисмоний ва маънавий жиҳатдан камол топтириш, уларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ривожлантириш, ҳуқуқий фаоллигини ошириш борасида мамлакатимизда мунтазам равишда турли тадбирлар амалга ошириб келинмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2018 йил 27 июнда имзоланган —Yoshlar – kelajagimiz|| Давлат дастури тўғрисида||ги Фармон бу борадаги ишлар самарадорлигини оширишга қаратилган муҳим ҳужжат бўлди. Фармон билан —Yoshlar – kelajagimiz|| жамғармаси ташкил этилди ҳамда ушбу жамғарма ёшларнинг бизнес ташаббуслари, стартаплари, ғоялари ва лойиҳаларини амалга ошириш учун тижорат банклари орқали йиллик 7 фоиз ставка билан имтиёзли кредит ва мол-мулкни лизингга бериши белгилаб қўйилди.

МЕТОДОЛОГИЯ

Бугунги кунда мамлакатда ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, уларга зарур шарт-шароитлар ва имкониятларни яратиб бериш борасида мустаҳкам ҳуқуқий база яратилган ва бу тизим замон талабларига ҳамоҳанг равишда такомиллаштириб борилмоқда. Хусусан, бугунгача парламент томонидан ёшларга оид 40 дан зиёд қонун ҳужжатлари қабул қилинган бўлиб, 30 дан ортиқ халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар ратификация қилинган. Шунингдек давлат раҳбари томонидан ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги саъй-ҳаракатларни тизимли асосда йўлга қўйиш бўйича 5 та муҳим ташаббуснинг илгари сурилиши Ўзбекистон тарихида ёшлар таълим-тарбияси бўйича яна бир янги босқични бошлаб берди. Биринчи ташаббус – ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади. Иккинчи ташаббус – ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган. Учинчи ташаббус – аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган. Тўртинчи ташаббус – ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган. Бешинчи ташаббус – хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутди. Дарҳақиқат, бугунги кунда мамлакат аҳолисининг 40 фоизини 18 ёшгача бўлган болалар, 64 фоизини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этган Ўзбекистон учун баркамол авлодни тарбиялаш, уларга эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучи сифатида ишонч билдириш, шунингдек уларнинг ҳаётда, шу жумладан, жамиятда тинчлик ва осойишталикни, жамоат тартибини сақлаш, ҳар қандай кўринишдаги ҳуқуқбузарликларга қарши курашда фаол иштирок этишини таъминлаш қанчалик долзарб вазифа эканлиги барчамизга маълум. Бироқ мамлакатда ёшлар учун шундай шарт-шароит ва имкониятлар яратиб берилаётганига қарамасдан, улар орасида носоғлом муҳит таъсирига тушиб қолаётган ёшларимиз ҳам учраб турмоқда. Айниқса ёшлар орасида кенг авж олиб бораётган гиёҳванд ва психотроп моддаларни истеъмол қилиш, унинг таъсирига тушиб қолиш ҳолатлари жуда аянчли ҳолатдир.

МУҲОКАМА

БМТ Бош Ассамблеясининг 1987 йил 7 декабрда қабул қилган резолюциясига биноан ҳар йили 26 июнда Халқаро гиёҳвандлик ва бангифурушликка қарши кураш куни (International Day against Drug Abuse and Illicit Trafficking) нишонланади. Таҳлилчиларнинг фикрича, гиёҳванд моддаларнинг кенг тарқалиши бир қатор ижтимоий муаммоларга сабаб бўлади.

Жумладан, демографик фожеаларни келтириб чиқаради, ижтимоий-иқтисодий ҳаётда жинойтчилик кўзга ташланади. БМТ Бош Ассамблеясининг тан олишича, кўрилади чора-тадбирларга қарамай, жаҳонда гиёҳванд моддалар ноқонуний савдоси муаммолигича қолмоқда. Бу муаммо ҳамон жиддий таҳдид сифатида кўрилади. Статистик маълумотларга кўра дунёда 500 миллиондан ортиқ одам гиёҳвандлик дардига йўлиққан. Унинг аксарият қисмини 30 ёшгача бўлганлар ташкил этмоқда. Бунинг оқибатида ҳар йили 200 мингдан ортиқ киши ҳаётдан кўз юмади. Шу билан бирга, жаҳонда содир этилади жинойтларнинг 57 фоизи гиёҳвандлар ҳиссасига тўғри келади. Шу боисдан, гиёҳвандликка қарши курашни кучайтириш мақсадида, БМТ томонидан —Наркотик моддалар тўғрисидаги, —Психотроп моддалар ҳамда —Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш тўғрисидаги конвенциялар қабул қилинган. Маълумотларга кўра, 15 ёшдан 64 ёшгача бўлганлар орасида қайд этиладиган ўлимларнинг 1,3 фоизи гиёҳвандлик оқибатида юз берар экан. Бир йилда 211 мингта ўлим айнан гиёҳвандлик оқибатида келиб чиқади. Европада гиёҳвандлик оқибатида ҳалок бўлади гиёҳвандларнинг ўртача ёши 35 ёшни ташкил қилади. Мутахассисларнинг сўзларига қараганда гиёҳвандлик оқибатида 1,6 миллион киши ВИЧга мубтало бўлади. 7,2 миллион киши эса гепатит С вирусини юқтириб олади. 1,2 миллион киши гепатит В вирусига чалинади. Гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш билан боғлиқ хасталикларга учраганлар сони дунё бўйича 29 миллион кишидан ортиб кетган. Гиёҳванд моддалар истеъмоли сўзсиз аҳоли соғлиғи ва жамоат хавфсизлигига таҳдид сифатида кўрилади. Бир қатор мамлакатларда бу иллат жамиятнинг барқарор ривожланишига ҳалақит бераётганидан асло кўз юмиб бўлмайди. Жумладан, гиёҳвандларни даволаш учун катта миқдорда маблағлар сарфланади. Бу маблағлар давлат бюджетидан ажратилади. Мутахассисларнинг ҳисоб-китобларига қараганда, бугунги кунда ҳар олти гиёҳванднинг биттаси даволаниш имкониятига эга экан. Уларни даволаниши учун бир йилда ўртача 35 миллиард доллар сарфланади. Уларни даволаш учун ажратилган сарфхаражатлар ўз йўлига. Аммо уларнинг жамият ҳаётига таҳдид солишларини ҳам асло ёддан чиқариш керак эмас. Шу сабабли ҳам гиёҳвандлар соғлиқни сақлаш тизимидан ташқари ижтимоий ҳаётга ҳам муаммо яратувчи сифатида тан олинади. Гиёҳвандликка қарши кураш доирасида гиёҳванд моддаларни ноқонуний савдосига чек қўйиш ҳам асосий вазифалардан ҳисобланади. Трансмиллий гиёҳванд моддалар савдосига қарши курашда халқаро ҳуқуқни муҳофаза қилиш ташкилотлари, жумладан Интерпол, Жаҳон Божхона ташкилоти каби ташкилотлар ҳамкорликда фаолият юритишмоқда. Экспертларнинг фикрича, гиёҳванд моддалар ноқонуний савдо айланмаси бир йилда 300 миллиард доллардан 800 миллиард долларни ташкил қилади.

Гиёхванд моддалар савдоси ва уюшган жиноятчилик Осиё, Африка, Лотин Америкаси мамлакатларининг иқтисодий, сиёсий барқарорлигига катта хавф солмоқда. Гиёхвандлик замонавий ҳаётнинг энг хавфли кўринишларидан бири ҳисобланади. Ҳар куни гиёхвандлик деб аталмиш кўрқинчли қармоққа минглаб одамлар тушиб қолмоқда. Ўзбекистон Республикаси гиёхванд моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш бўйича халқаро ҳамжамият олдидаги ўз мажбуриятларини тўлақонли бажаришга алоҳида эътибор қаратмоқда. Ўз ортидан бошқа қора иллатларни ҳам етаклаб юрадиган гиёхвандлик балосига қарши курашишда юртимизда мустаҳкам ҳуқуқий асослар ишлаб чиқилган. Таъкидлаш жоизки, мамлакатимиз 1995 йил февраль ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1961 йилдаги —Наркотик моддалар тўғрисидаги Ягона Конвенцияси, 1971 йилдаги —Психотроп моддалар тўғрисидаги ҳамда 1988 йилдаги —Гиёхвандлик воситалар ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш тўғрисидаги Конвенцияларига аъзо бўлган. Бундан ташқари, 1999 йилда Ўзбекистон Республикасининг —Гиёхвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисидаги Қонуни қабул қилинган бўлиб, мазкур қонунга мувофиқ гиёхвандлик воситалари ва психотроп моддалар билан қонунга зид равишда муомалада бўлишнинг ҳар қандай кўринишларига қарши жиноий жавобгарлик белгиланган. Мамлакатимизда гиёхванд моддалар савдоси ва истеъмолига қарши кескин чоралар кўриляётган бўлса-да, бугун гиёхвандлик воситаларининг ноқонуний айланиши энг хатарли ва долзарб муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Гиёхфурушлар янги усул ва найранглари кўллаб, захри қотилни сотиш ҳаракатларини давом эттиришмоқда. Улар манфур мақсадларини амалга ошириш йўлида ҳали дунёқараши шаклланмаган, ўзгалар таъсирига тушиб қолишга мойил ёшлар умрига зомин бўлишмоқда.

ТАҲЛИЛ НАТИЖАЛАРИ

Ёшлар ўртасида назоратсизлик, қаровсизлик, ҳуқуқбузарликларни олдини олиш, уларни салбий таъсирлардан сақлаш, энг хавфли жиноятлардан бири ҳисобланган, инсоният томонидан —Аср вабоси деб тан олинган гиёхвандлик иллатига қарши кураш, айниқса ўсиб келаётган ёш авлодни бу иллат домига тушиб қолишларини олдини олиш олдимизда турган долзарб масалалардан ҳисобланади. Ўзбекистонда бугунги кунда ёшлар ўртасида анъанавий гиёхвандлик моддаларидан воз кечиб, айниқса, психотроп ва кучли таъсир этувчи моддаларни истеъмол қилиш ҳолатлари кўпаймоқда. Ҳозирги ёшларда трамадол ва янги пайдо бўлган тропикамид дорилари истеъмоли ҳам кучаймоқда. Улар таъсирида эса ёшлар томонидан оғир турдаги жиноятлар содир этилмоқда. Афсуски, ҳозирги кунда ёшлар орасида таркибида гиёхвандлик воситалари бўлган (—Трамадол, —Налбуфин, ва ҳ.к.) психафаол (—Лирика, —Регапен, —Галарал ва ҳ.к.) дори воситаларини истеъмол қилиш

ҳолатларининг учраб туриши ҳамда ёшларимизнинг руҳан ва жисмонан соғлом бўлиб етишишлари, замонавий билим ва касбга эга бўлишлари учун барча шартшароитлар яратилиб берилган бўлишига қарамай наркотик моддалар билан боғлиқ жиноятларни содир қилишлари ва гиёҳвандлик йўлига кириб кетаётганлиги ачинарли ҳолдир. Гиёҳвандликка мубталло бўлиш нафақат бир шахснинг муаммоси балки, уларнинг оиласи, жамимят учун ҳам бош-оғриғидир. Сўнгги йилларда жаҳон мамлакатларида гиёҳвандликка қарши кенг қамровли кураш олиб борилоқда. Унинг учун турли тадбирлар ўтказилмоқда. Бунда ижтимоий рекламалардан ҳам кенг фойдаланилмоқда. Энг муҳими соғлом турмуш тарзини тарғиб этиш йўлида кўп ишлар амалга оширилмоқда. Инсоният таррақиётининг янги-янги чўкқиларини забт этмоқда. Бироқ жаҳонда халқлар, миллатлар келажагига таҳдид туғдирувчи бир қанча омиллар ҳамон сақланиб келмоқда. Ана шундай хатарлардан бири гиёҳвандлик балосидир. Глобал муаммога айланган ушбу иллатга қарши курашишда давлатлараро ҳамкорлик муҳим аҳамият касб этади. Ўтган асрдан бизга — мерос бўлиб қолган трансмиллий жиноятчиликнинг учта энг хавfli тури инсоният келажагига хавф солиб келмоқда. Хусусан халқаро терроризм, дин никоби остидаги экстремистик, фундаменталистик ва сепаратистик хуружлар, наркотик моддалар билан савдо қилиш (наркобизнес), одам савдоси ҳисобланади. Ҳозирги кунда ер юзидаги наркобизнесда айланаётган пул маблағи дунё аҳолисининг озиқ-овқат, кийим-кечак, турар-жой, таълим тизими ва тиббий хизматга сарфланаётган харажатларидан анча кўплиги билан фарқланиши ҳеч кимга сир эмас. Энг ачинарлиси, гиёҳвандлик оғир жиноятларнинг содир этилишига, оилалар ва миллат генофондининг бузилишига сабаб бўлмоқда. Дунё бозорида тарқаладиган қора дорининг асосий қисми Афғонистонда етиштирилиб, уни ноқонуний йўл билан Марказий Осиё мамлакатлари орқали Ғарбга етказишга бўлган уриниш йилдан-йилга кучайиб бормоқда. Шунинг учун юртимизда наркотик моддаларни истеъмол қилиш ва уларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш масаласига давлат ва миллатнинг эртасини ҳал этувчи омиллардан бири сифатида қараб келинмоқда. Ушбу иллатга қарши курашиш мақсадида бир қатор қонунлар ва халқаро шартномалар қабул қилинди.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш керакки, дунёқараши эндигина шаклланиб бораётган, бор куч-ғайратини фақат билим олишга, изланишга, хунар ўрганишга сарфлаши керак бўлган бир пайтда, ўсмирларни алдов йўли билан гиёҳвандлик қурбонига айлантираётган кимсалар озми? Қанчадан-қанча оилаларнинг ёстиғини қуритаётган гиёҳвандликка қарши ҳар бир инсон ўзи курашмоғи, ташқи таъсирлардан ҳимояланмоғи лозим. Вояга етаётган фарзандларимиз ўтмиши қадим, тупроғи олтин, осмони мусаффо Ўзбекистоннинг келажак

ворисларидир. Уларни мана шундай соғлом муҳитда, эзгу тушунчаларни юракларига жойлаб вояга етказайликки, ҳеч қанақа ташқи салбий хуружлар ва қора иллатлар ўққони уларни ўзига жалб қила олмасин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги —Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз|| номли нутқи. – Янги Ўзбекистон газетаси, 2021 йил 8 ноябрь сони.
2. Юридик энциклопедия / Юридик фанлар доктори, профессор У. Таджихановнинг умумий таҳририда. — Т.: «Шарқ», 2001. — 656 б.
3. Криминология: Дарслик / З.С. Зарипов, А.С. Якубов, Г.А. Аванесов ва бошқ. Проф. З.С. Зарипов таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2006. – 166 (539) б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. М5. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 май куни қабул қилинган «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонун.
5. Ички ишлар органлари профилактика хизматининг фаолияти: Дарслик / И. Исмаилов, М.З. Зиёдуллаев, Ж.С.Мухторов ва бошқ. Масъул муҳаррир Ш.Т. Икрамов. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б. 531
6. Ўзбекистон Республикасининг —Ички ишлар органлари тўғрисидаги Қонуни.

**DASTURLASH KUSIDA SHART OPERATORILARI MAVZUSIDA
MA'RUZA MASHG'ULOTINI O'TISH METODIKASI.**

TATU Samarqand filiali assistentlari

Shamsutdinova N.Sh., Turkmenova R.T.

nodira237@gmail.com , rukhiyet@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ishda zamonaviy pedagogik va innovasion ta'lim texnologiyalari hamda ilg'or xorijiy tajribalarini oliy ta'lim jarayonlariga tadbiiq etish hamda ta'lim jarayonida dasturiy ta'minotni testlashni amalga oshirish va tekshirish uchun bajariladigan amallarni ketma-ketligi va testlash usullari haqida batafsil so'z yuritilgan. Dasturlash usullarini bayon qilib bergan. Bajarilgan ishlar natijasida oliy ta'lim tizimidagi yo'nalishlarida "Dasturlashda C++ da if shartli operatori " mavzusini o'tish jarayonida foydalanishga samara berishi mumkinligi va ushbu mavzu ishlanmasi misolida tavsiya qilingan.

Talabalarga "Sharti operatorlarida ishlash"ni o`qitishni samarali usullari.

Talabalarga dasturlash asoslarini o'rgatishda asosiy maqsad o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. Ya'ni, ularga algoritmik fikrlash uslubi deb ataladigan vazifani tahlil qilish, uni kichik vazifalarga bo'lish, ijodiy fikrlashni o'rgatish kerak. Bularning barchasini o'quvchilarda o'rganishga qiziqmasa, o'rganish qiyin bo'lsa, ularni rivojlantirib bo'lmaydi. Mavjudlik printsipi o'quv materialining hajmi va mazmuni barcha o'quvchilarning ixtiyorida bo'lishini, ularning aqliy rivojlanish darajasiga, bilim, ko'nikma va malakalar zaxirasiga mos kelishini talab qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'limning soddalashtirilgan mazmuni uning rivojlanish va tarbiyaviy imkoniyatlarini pasaytiradi.

O'quv jarayoni nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari darajasiga moslashishi, moslashishi, mazmuni va usullarini o'zgartirishi, balki har bir o'quvchi tomonidan eng muhim natijalarga erishishga, eng muhimi, fikrlash, kognitiv rivojlanishga qaratilgan bo'lishi kerak[1].

1. Visuallashtirish usuli.

1. Visuallashtirish usuli. Dasturni bajarilishining vizual taqlid qilish vizual taqlid - talabning dasturni bajaruvchi rolini bajarishiga asoslanadi: u kodni o'qiydi, buyruqlarni tegishli tartibda bajaradi va boshqaruv oqimini nazorat qiladi. Ushbu mashg'ulot unga dasturning qanday ishlashini tushunishga yordam beradi[1].

Bunday mashqni bajarish orqali talaba nafaqat dasturning qanday ishlashini tushunibgina qolmay, balki o'qituvchiga o'z tushunchasini konkret tarzda namoyish qilishi kerak.

Dasturni vizualizatsiya tizimlari:

■ Dasturni vizualizatsiya tizimlari - matn yoki grafik rejimida- dasturning borishini aks ettiruvchi maxsus dasturlar yordamida vizual simulyatsiyani qanday bajarishni yangi boshlagan dasturchilarga o'rgatish qulay.

■ Maletik va boshqalarning muammoga yo'naltirilgan tasnifiga ko'ra, dasturni vizualizatsiya tizimlari birinchi navbatda quyidagi parametrlarga ko'ra tasniflanadi[2]:

■ tomoshabinlar - vizualizatsiyaga muhtoj bo'lganlar (masalan, tajribali ishlab chiquvchi, guruh rahbari);

■ maqsad - tizim nimani tasavvur qiladi (masalan, manba kodi, dasturni bajarish natijalari);

■ vazifa - dasturlashning boshlang'ich kursini o'rganishda yordam berish;

■ maqsad dasturlarning bosqichma-bosqich bajarilishini tasavvur qilishdir;

Standart dasturiy muhitda ishlash jarayonida yangi boshlagan talabalar ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishadi:

■ dasturlash muhitini o'rnatish va sozlash;

■ dasturlash bilan bog'liq masalalarni tushunish va dastur kodini yozishda dasturlash tili sintaksisiga oid bilimlarni qo'llash;

■ kompilyatsiya xatolarini tushunish;

2.Juft dasturlash usuli

Juft dasturlash - bu ikkita dasturchi bitta kompyuterda yonma-yon ishlashda ekstremal dasturlash amaliyoti. Ulardan biri "etakchi" rolini oladi, ya'ni kodni teradi va taktik nuqtai nazardan muammolarni hal qiladi, ikkinchisi "navigator" ga aylanadi - u strategik fikr yuritadi, savollar beradi va koddagi xatolarni kuzatadi. Ular ko'pincha joylarini o'zgartiradilar[1].

Ishlab chiqarishda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra juft dasturlashning bir qator afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1)kamroq xatolar;

2) kodni yaxshiroq tushunish;

3) yaxshiroq kod;

4) sherikdan o'rganish imkoniyati;

5) dizaynni takomillashtirish;

6) doimiy ravishda kodni ko'rib chiqish;

7) ijodkorlik va aqliy hujum;

8) sinov va disk raskadrovka sifatini oshirish;

9) paydo bo'lgan muammolarni tezkor hal qilish.

Trening samarali bo'lishi uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak:

1) juftlik tarkibiga o'xshash qobiliyatlarga ega talabalarni kiritish maqsadga muvofiq;

2) talabalar juftlikda ishlaydigan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

- 3) juftlikni tashkil etadigan talabalar bir-birlari bilan yonma-yon o'tirishlari kerak, ikkalasi ham monitor, sichqoncha va klaviaturadan oson foydalanishlari kerak;
- 4) semestr davomida juftliklar tarkibi o'zgarishi kerak;
- 5) talabalar vaziyatni to'g'irlash uchun imkoniyat berish uchun sherik bilan bog'liq muammolar o'qituvchiga zudlik bilan etkazilishi kerakligini tushunishlari kerak;
- 6) dasturchilar juft bo'lib, umumiy maqsadga erishish uchun ishlashi kerak;
- 7) haftalik laboratoriya mashg'ulotlarida bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalarni taklif qilish o'quvchilarning sinfdan tashqarida, ehtimol moddiy-texnik qiyinchiliklarni boshdan kechirishini kutishdan ko'ra yaxshiroqdir;
- 9) ikkala talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarda hamkorlik, o'zaro hurmat va umumiy javobgarlik printsipligiga rioya qilish;
- 10) talabalar sheriksiz qolmasliklari uchun davomat va kechikishni nazorat qilish;
- 11) talabalarning individual va jamoaviy ishlashi o'rtasidagi muvozanat ustidan nazoratni amalga oshirish;

XULOSA

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish;

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy jarayon mazmunining sifat jihatdan o'zgarishini;


Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy jarayonning bajarilish holatining sifat ko'rsatkichiga ega bo'lishiga olib kelishi;

Dasturlash fanida "If shart operatori" mavzusini o'qitish jarayonini nafaqat idrok qilish asosida qurish, balki talabalarni nazariya va amaliyotni mustaqil ravishda bajarishi uchun faol va turli-tuman mashg'ulotlarga jalb qilish zarur. Ushbu maqsadlarga yangi pedagogik texnologiyalar, masalan, visuallashtirish va juft dasturlash usullari yordamida erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bazar Dzhumaevich Ulugov. (October 2021). Application of Pedagogical Information Technologies in the Educational Process of Universities in Uzbekistan. International Journal of Information and Communication Technology. https://www.researchgate.net/publication/354852360_Application_of_Pedagogical_Information_Technologies_in_the_Educational_Process_of_Universities_in_Uzbekistan_Scopus_Q-2_58_quartile_Manuscript .
2. Taxir Tavukcu, Aydar M Kalimullin, Aleksandr Letvinov, Nataly

3. N.Shindryaeva. (December 2020) Analysis of Articles on Education and Instructional Technologies (Scopus). International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET
4. https://www.researchgate.net/publication/347702932_Analysis_of_Articles_on_Education_and_Instructional_Technologies_Scopus



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Mamatqulov Parvoz Xolboyevich

Jizzax viloyati Baxmal tumani

47-maktab amaliyotchi psixologi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv motivlarining shakllanish muammosi yoritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining boshqa psixologik xususiyatlari va irodaviy sifatlarining tarkib topish muammolari va ularning motivatsiya shakllanishiga ko‘rsatuvchi ta’sirlari muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, boshlang‘ich ta’lim, motiv, o‘quv motivlari, tafakkur, xotira, intellekt, mantiq

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема формирования мотивов учения у учащихся начальной школы. Также обсуждались другие психологические особенности и волевые качества учащихся начальной школы, проблемы нахождения содержания и их влияние на формирование мотивации.

Ключевые слова: школьник, начальное образование, мотивация, учебная мотивация, мышление, память, интеллект, логика.

Abstract: This article discusses the psychological characteristics of preschool children. The characteristics of the development of higher mental functions in children, especially in infancy, are widely covered.

Keywords: infancy, early childhood, preschool, thinking, emotions, perception, will, intellect.

KIRISH Boshlang‘ich sinflarda yuqori bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o‘quvchilarning motivlari sohasini o‘rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta’lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta’kidlab o‘tiladi. Shu munosabat bilan ta’lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o‘quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Avvalo, ta’limda o‘quvchilar maqomini yangilash, ularni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirish

ehtiyoji tug'iladi. Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya'ni o'quvchining ta'lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog'liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya'ni o'quvchini o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. [1,5]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Boshlang'ich sinf o'quvchilari motivlari sohasini o'rganishga oid anchagina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay, motivlar sohasining korellyasiyasi muammolari hali ham yetarli darajada o'rganilmaganligi sezilmoqda. Keyingi yillarda o'zbek pedagog olimlari tomonidan ham o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda o'quv-biluv faoliyatining turli qirralari yoritilgan bo'lsada, ularda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos. Chunonchi, R.Safarova o'quvchilarning amaliy faoliyati til materiallarini o'zlashtirish ehtiyojiga ko'ra boshqarilishi zarurligi xususida fikr yuritgan. U o'quvchilarning qiziqishi, faolligi oshirilgan sari amaliy faoliyati ham rivojlana borishini ta'kidlagan. K.Zaripov esa o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish komponentlarini ajratib ko'rsatadi. N.Ortiqov o'quvchilar faoliyatida qiziqish, intilish, maqsad, ishonch kabi qator xarakterli xususiyatlarni ajratadi. Bular faoliyatning mahsuldorligi va yo'nalishini belgilaydi. O.Roziqov o'quv topshiriqlarida mazmun, maqsad, vazifa, usulni ularning invariantlari sifatida ajratgan.[2,8] U o'quv topshiriqlari invariantlarini o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish, boshqarish vositasi sifatida asoslagan edi. B.Adizov boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etish orqali, A.Hamroyev esa boshlang'ich sinf ona tili ta'limi sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini kuzatib, uni an'anaviy ta'lim metodikasidan farqli o'laroq, ijodiy tashkil etish natijasida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatiga rag'bati, layoqati va qiziqishi oshirilishi mumkinligini asoslab beradilar. G.Najmiddinova tadqiqotlarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini shakllantirish masalalariga alohida yondashilib, o'quv material va uning ustida ishlash orqali o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish mumkinligi asoslab beriladi. [3,15]

O'quv-biluv faoliyatiga oid psixologik tadqiqotlar ilmiy izlanishlarning katta qismini tashkil etadi. L.S.Vigotskiy inson faoliyati va psixikasi – ruhiyatining uzviy bog'liqligi tamoyilini asoslagan edi: psixika faoliyatsiz, faoliyat psixikasiz amal qilmaydi. L.S.Vigotskiyning qarashlarini S.L.Rubinshteyn o'z tadqiqotlarida yanada rivojlantirdi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, hissiyotlar faoliyat dinamikasi, sur'ati va tonusini belgilaydi. Shuning uchun ham har bir yosh davri uchun xos bo'lgan

motivlar sohasining belgilangan rivojlanish qonuniyatlari ta'limning yangi dasturlarini ishlab chiqish hamda unda maxsus vazifalarni belgilash orqali o'quv-biluv motivlarini faollashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. A.N.Leontyev esa motivlar insonga faoliyati uchun, shuningdek, o'quv faoliyati uchun ham turtki bo'ladi va uni yo'naltiradi deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, faoliyat – bu subyektning borliqqa faol munosabatidir. Motiv va maqsadning bir-biriga mos kelishi faoliyatning eng muhim xususiyatidir. O'tkazilgan psixologik tadqiqotlar natijasida o'quvchilar faoliyati taraqqiyot darajasini o'rganish, ta'lining psixologik asoslarini bayon qilish, ularda aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, qobiliyat va layoqatni tahlil qilish, o'zlashtirish, o'quvchilarning psixik rivojlanishini bayon qilish, ijodiy faoliyat muammolarini yoritish kabi psixologik hodisalar tadqiq qilingan.

NATIJALAR Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o'qitish omillari ichida o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish omili birinchi o'rinda turar ekan, ya'ni ta'lim samaradorligi 92% o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog'liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo'lsada tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e'tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va uni to'g'ri yo'naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. Motivlashtirish – (lotincha *moveo* – harakatlantiraman, siljitaman degan ma'nolarni anglatadi) bu o'quvchilarni samarali o'quv-biluv faoliyatiga, o'quv materialini mazmunini faol o'zlashtirishga yo'naltiradigan jarayonlar, metodlar, vositalarning umumiy nomidir. Obrazli qilib aytganda, motivlashtirish tizginlarini o'qituvchi ham, o'quvchilar ham o'z qo'llarida tutib turadilar. O'qitish faoliyati nuqtai nazaridan qarasa, ta'limni motivlashtirish, o'qish faoliyati nuqtai nazaridan qarasa, o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish haqida gapirish mumkin. Motivlashtirish shaxsning ruhiy holati va munosabatlarining o'zgarish jarayoni sifatida motivlarga asoslanadi. Motiv deganda shaxsni u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirishga majbur qiladigan muayyan sabab, turtki tushuniladi. [4,20]

Shuningdek, motiv deganda o'quvchining o'z faoliyati perimetriga munosabatini ham tushunish mumkin. Motivlar ehtiyoj va qiziqishlar, intilish va hissiyotlar, tayanch tushuncha va ideallar shaklida amal qilishi mumkin. Shuning uchun ham motivlar juda murakkab tuzilma bo'lib, alternativlar, tanlov va qarorlar tahlil qilinadigan, baholanadigan dinamik tizimdir. Motivlashtirishni o'rganish didaktika va pedagogik psixologiyaning markaziy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan, ammo muammoning to'la yechimiga hali erishilgani yo'q. Motivlarning o'zgaruvchanligi, harakatchanligi, xilma-xilligi tufayli ularni muayyan tarkibiy tuzilmasini belgilash, boshqarishning aniq usul va vositalarini belgilash qiyin bo'lib hisoblanadi.

MUHOKAMA Ta'lim tizimida mavjud bo'lgan motivlarni turli mezonlarga ko'ra tasnif etish mumkin. Turiga ko'ra ijtimoiy va biluv motivlari farqlanadi. Darajasiga ko'ra esa motivlar quyidagilarga bo'linadi: – Keng ijtimoiy motivlar (burch, mas'uliyat, o'qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish). Eng avvalo, bu shaxsning o'qish orqali o'zining jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini tasdiqlashi bilan belgilanadi. – Tor ijtimoiy (yoki pozisiyali) motivlar (kelajakda muayyan kasb-korni egallashga, atrofdagilarning e'tiboriga tushishga, o'z mehnatiga yarasha munosib taqdirlanishga bo'lgan intilish). – Ijtimoiy hamkorlik motivlari (atrofdagilar bilan turli ko'rinishdagi o'zaro hamkorlik qilishga, sinf jamoasi orasida o'z pozisiyasi va o'rinini belgilashga intilish). – Keng biluv motivlari. Erudisiyaga ko'ra yo'nalish olish, ta'lim jarayoni va uning natijalaridan qoniqish hissi bilan belgilanadi. Kishining o'quv-biluv faoliyati uning hayot faoliyatida yetakchi o'rin egallaydi. – O'quv-biluv motivlari (bilimlarni egallash usullari, muayyan o'quv predmetlarini o'zlashtirishga yo'nalganlik). – Mustaqil ta'lim motivlari (qo'shimcha bilimlarni egallashga yo'nalganlik). Amaliy pedagogikada bu motivlar yo'nalishi va mazmuniga ko'ra alohida guruhlariga birlashtiriladi:

- 1) ijtimoiy (ijtimoiy qimmatga ega) motivlar;
- 2) biluv motivlari;
- 3) kasbiy ahamiyatga molik motivlar;
- 4) estetik motivlar;
- 5) kommunikativ;
- 6) mavqe-pozisiyali motivlar;
- 7) tarixiy-an'anaviy motivlar;
- 8) utilitar-amaliy motivlar.

Aniqlanishicha:

a) jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'quvchilar o'quv motivlarining u yoki bu gurhlari yetakchilik qiladi;

b) motivlarning gurhlari o'zaro dinamik bog'liq holda muayyan shart-sharoitlarga ko'ra amal qiladi. Ana shu bog'lanishga ko'ra o'qishning (o'quv-biluv faoliyatining) harakatlantiruvchi kuchi degan tushuncha paydo bo'ladiki, uning xarakteri, yo'nalganligi va ko'lamli motivlarning mujassam ta'siriga ko'ra belgilanadi.

Turli xildagi motivlar didaktik jarayonlarning kechishi va natijalariga turlicha ta'sir ko'satadi. Masalan, keng biluv motivlari ko'proq ta'lim mazmunini qamrab olishga intilishda namoyon bo'ladi, amm shunga qaramay bu motivlar o'quv-biluv motivlariga nisbatan kuchsiz bo'ladi. Chunki o'quv-biluv motivlari tor sohada mustaqil faoliyat yuritishga stimullashtiruvchi eng yaxshi vosita bo'lib hisoblanadi. Raqobatchilik muhitida esa ko'proq utilitar-amaliy motivlar hukmronlik qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda maktab o'quvchilari motivlarini maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlar asosida yotuvchi - qo'zg'otuvchi hamda umumahamiyatga molik

bo'lgan qadriyatlarni shaxsiy qadriyatlar darajasiga olib chiqadigan mohiyat kasb etuvchi motivlar singari turlarga ajratish mumkin.

XULOSA Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishda o'qituvchi juda muhim o'rin egallaydi. Chunki u ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni stimullashtirish ularda o'quv-biluv motivlarining boshqa motivlardan ko'ra kuchliroq bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi. 210 b
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU. 102 b
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41–46. b
4. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
5. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272-274. b
6. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82. b
7. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(3), 2677-2684.b

**MAKTABLARDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING
KAMCHILIKLARI**

*Toshkent viloyati Chirchiq shahar
21-umum ta'lim maktabining
informatika va axborot texnologiyalar
fani o'qituvchisi L.N.Asadov*

Annotatsiya. Maqolada sun'iy intellektdan foydalanish va maktablarda foydalanishning kamchiliklari, xususan ta'lim sohada sun'iy intellektdan foydalanish haqida malumotlar keltirilgan bo'lib, individual ta'lim va an'anaviy o'qitish bilan birgalikda sun'iy intellektdan foydalanish borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, individual ta'lim, ta'lim, maktab, o'quvchilar, o'qituvchi, kompyuter, an'anaviy o'qitish.

Kirish: Maktablarda sun'iy intellektning umumiy ko'rinishi

Sun'iy intellekt - ta'lim natijalarini yaxshilash va o'rganish tajribasini yaxshilash salohiyati tufayli bugungi kun maktablarida tobora ommalashib bormoqda. Sun'iy intellekt - bu kompyuter fanining sohasi bo'lib, u tarixan inson aql-zakovati talab qilingan usullarda ishlaydigan va vazifalarni bajara oladigan aqlli mashinalarni yaratishga qaratilgan. Maktablarda Sun'iy intellekt turli xil ilovalar uchun ishlatilishi mumkin, masalan, avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohazalar, shaxsiylashtirilgan o'rganish va hatto davomat maqsadlarida yuzni aniqlash. Ko'pgina afzalliklarga qaramay, maktablarda sun'iy intellektdan foydalanish o'ziga xos xavflar, axloqiy mulohazalar va bunday texnologiyani joriy etishdan oldin ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan xavfsizlik muammolari bilan birga keladi degan xavotirlar mavjud. Ushbu inshoda biz maktablarda sun'iy intellektdan foydalanishning kamchiliklarini va ta'lim muassasalarida Sun'iy intellekt integratsiyasini baholashda nima uchun ularni hisobga olish kerakligini ko'rib chiqamiz.

2. Ishonchsiz baholash: Avtomatlashtirilgan ball tizimlarining qiyinchiliklari

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq asosiy tashvishlardan biri bu baholashning ishonchsizligidir. Ushbu tizimlar cheklangan parametrlar to'plami bo'yicha o'qitiladi va inson tili va ifodasining nuanslari va murakkabliklarini qamrab ololmasligi mumkin. Natijada, ular haddan tashqari baholangan yoki kam baholangan baho berishlari mumkin, bu esa baholash xatolariga olib keladi. Bu, ayniqsa, yozilish sifati sezilarli darajada farq qiladigan insholar yoki tadqiqot ishlari kabi murakkabroq topshiriqlar bo'yicha o'quvchilar baholanganda qiyin bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan

baholash tizimlari noxolis bo'lishi mumkin, bu esa teng bo'lmagan baholashga olib keladi.

Bu boshqa qiyinchiliklarga olib kelishi va turli xil ijtimoiy-iqtisodiy muhitga ega bo'lgan talabalar o'rtasidagi yutuqlar orasidagi farqni kuchaytirishi mumkin. Shunday qilib, avtomatlashtirilgan ball tizimlaridan foydalanishning mumkin bo'lgan afzalliklariga qaramay, o'qituvchilar ushbu tizimlarni sinfda joriy etishdan oldin ularning ishonchliligi va adolatligini hisobga olishlari kerak.

3. Shaxsiylashtirishning yo'qligi: individual ta'lim ehtiyojlarini qondirishda Sun'iy intellekt cheklovlari

Individual ta'lim ehtiyojlarini qondirishda Sun'iy intellektning cheklovlari maktablarda bunday texnologiyani joriy etishning muhim kamchiligi hisoblanadi. Sun'iy intellektga asoslangan ta'lim dasturlari har bir talaba uchun o'rganishni shaxsiylashtirish qobiliyatiga ega emas, bu ularning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturlar individual taraqqiyotni kuzatishi va ishlash ma'lumotlari asosida tavsiyalar berishi mumkin bo'lsa-da, ular odamlarning o'zaro ta'siri va moslashuvini almashtira olmaydi. Har bir talabaning o'rganish uslubi, sur'ati, kuchli va zayif tomonlari o'ziga xos bo'lib, ularning individual ehtiyojlarini samarali qondirish uchun ta'limga shaxsiy yondashuv zarur. Shu sababli, sun'iy intellektning shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taklif etaolmasligi turli xil o'rganish uslublariga ega bo'lgan talabalar o'rtasida begonalashuv va ajralib chiqishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellektga asoslangan dasturlar faqat ma'lumotlar tahliliga tayanganligi sababli, mavjud noto'g'ri qarashlarni, ayniqsa, marginal talabalarga nisbatan davom ettirish xavfi katta.

4. Ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga e'tibor bermaslik:

O'qitishda sun'iy intellektga haddan tashqari tayanish xavfi. Ta'limda sun'iy intellektga haddan tashqari ishonish tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini e'tiborsiz qoldirishga olib kelishi mumkin. Sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish uchun o'quvchilar qanday ishlashini tushunishlari va ular ishlab chiqaradigan natijalar haqida tanqidiy fikr yurita olishlari kerak. Biroq, agar bu vositalar juda tez-tez ishlatilsa yoki an'anaviy o'qitish usullari o'rniga qo'llanilsa, o'quvchilar o'zlariga xotirjam bo'lib qolishlari va bu hayotiy ko'nikmalarni rivojlantira olmasliklari mumkin.

Bundan tashqari sun'iy intellekt vositalari odatda aniq javoblar yoki natijalarni taqdim etish uchun dasturlashtirilgan bo'lib, muqobil g'oyalar yoki ijodiy fikrlash uchun kam joy qoldiradi. Ushbu tor diqqat o'quvchilar ning o'ylash qobiliyatini cheklashi va real muammolarga o'zlarining innovatsion echimlarini yaratishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilar o'qitishda sun'iy intellektga juda ko'p tayanmaslikdan ehtiyot bo'lishlari va o'quvchilar ning tanqidiy fikrlarini

rivojlantirishda davom etishlarini ta'minlashlari kerak.

5. O'qituvchilar uchun potentsial ish yo'qotishlari: maktablarda sun'iy intellektni joriy etishning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari

Maktablarda sun'iy intellektni qo'llash natijasida o'qituvchilar uchun potentsial ish joylarini yo'qotish ushbu texnologiyaning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari haqida jiddiy tashvish uyg'otadi. Nafaqat o'qituvchi va ma'muriy ishchi kuchining muhim qismi ko'chiriladi, balki kengroq jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, daromad va ish xavfsizligini yo'qotish xarajatlarni kamaytirishga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiy faollikning pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar insoniy aloqalarni rivojlantirishda va o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, buni sun'iy intellekt bilan to'liq almashtirib bo'lmaydi.

Shuning uchun maktablarda sun'iy intellektni joriy etishning ta'sirini diqqat bilan ko'rib chiqish va ish o'rinlarini saqlab qolish va barcha manfaatdor tomonlarning ijtimoiy va hissiy farovonligini birinchi o'ringa qo'yish muhimdir.

6. Xulosa: Sun'iy intellektdan foydalanishni an'anaviy o'qitish amaliyotlari bilan muvozanatlash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellektdan foydalanishni an'anaviy o'qitish amaliyoti bilan muvozanatlash o'quvchilarni kelajakka tayyorlaydigan har tomonlama ta'lim olishlarini ta'minlash uchun juda muhimdir. Sun'iy intellekt ko'plab afzalliklarni, jumladan shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasi va takomillashtirilgan ma'muriy funktsiyalarni taklif qilishi mumkin bo'lsa-da, u odamlarning o'zaro ta'siri va o'qituvchilarning o'ziga xos o'qitish uslublarini almashtira olmasligini yodda tutish kerak. Sun'iy intellektni an'anaviy o'qitish usullari bilan birgalikda qo'llash orqali maktablar har ikkita usulni eng yaxshi tomonlarini birlashtirgan muvozanatli va samarali ta'lim muhitini yaratishi mumkin. Oxir oqibat, ta'limning maqsadi o'quvchilarni o'z martaba va shaxsiy hayotlarida muvaffaqiyatga tayyorlashdir va bunga faqat texnologiya va insoniy aloqani birinchi o'ringa qo'yadigan yaxlit yondashuv orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Xolms, Ueyn. "SUN'IY INTELLEKT va ta'lim". Siyosatchilar uchun qo'yllanma, Miao, Fengchun, UNESCO Publishing, 08.04.2021
- 2) Jon F. Pane. "Taraqqiyot haqida ma'lumot berish". Shaxsiylashtirilgan ta'limni amalga oshirish va effektlari bo'yicha tushunchalar, RAND korporatsiyasi, 1/1/2017
- 3) Andre A. Rupp. 'Avtomatlashtirilgan ball qo'yish bo'yicha qo'llanma.' Nazariya amaliyotga, Duanli Yan, CRC Press, 26/2/2020
- 4) Yu Lu. "Ta'limda sun'iy intellektga kirish". Shengquan Yu, Springer tabiati, 29.11.2021

ОСОБЕННОСТИ УДАРЕНИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Икрамова Азиза Марат қизи**Магистрант по направлению филологии ДЖГПУ*

Аннотация: Данная статья посвящена изучению особенностей ударения в узбекском и русском языках. В статье излагаются сведения обобщающего характера теоретических исследований узбекских и русских ученых об свойствах и роли ударения в двух контактирующих языках. Автор рассматривает более актуальные вопросы о правильной постановке ударения в обоих сопоставляемых языках.

Ключевые слова: ударение, особенность, свойство, русский и узбекский язык, сопоставление.

Abstract. This article is devoted to the study of the features of stress in the Uzbek and Russian languages. The article presents information of the generalized nature of the theoretical studies of Uzbek and Russian scientists about the properties and role of stress in two contacting languages. The author considers more topical questions about the correct placement of stress in both compared languages.

Key words: stress, feature, property, Russian and Uzbek languages, comparison.

В русском и узбекском языках ударения играют огромную и особую роль, является неотъемлемой частью при грамотном и смысловом описании того или иного предмета, а также фраз и предложений прямой речи.

Правильная постановка ударения в словах — необходимый признак культурной, грамотной речи. Раздел языкознания, изучающий особенности и функции ударения, называется акцентологией (от лат. *accentus* – ударение и греч. *logos* – слово, учение).¹ Акцентологические нормы — это правила, определяющие место ударного слога в словах. Ударение — своеобразный фонетический «паспорт» слова.

Описанию структурных типов ударения для разных групп русских, узбекских слов, выявлению минимального набора акцентных кривых, проблеме объединения их в акцентные парадигмы в современном в узбекском языке посвящены работы таких лингвистов, как Решетов В.В., Азизов, О., Алиева Э. А., Бегматова А.М., Файзуллаев, М.Б., Салиева М.А., Бердиева М.А., Магзумова, З.А., также и в русском языке Р.И. Аванесов, А.А. Зализняк, Н.А. Еськова, Л.Л. Касаткин, Н.А. Федянина и многие другие.

¹ Розенталь Д.Э. и др. Словарь лингвистических терминов. Электронный ресурс. URL: https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/DicTermin/z.php.

²В научных исследованиях А. Алиевой, ударение русского языка, в первую очередь, выполняет звукооформляющую функцию. При этом ударение помогает вместе со звуками оформлению внешнего облика слова. Кроме этого, ударение может выполнять смысловозначительную и формозначительную функции. А в научных исследованиях У.Д.Поливанова описываются важнейшие особенности и функциональные характеристики ударения в русском и узбекском языках. ³Отмечается, в частности, стремление узбекского ударения на конец слова (при возможности постановки русского ударения на последний, предпоследний, третий, четвертый, пятый и даже шестой и седьмой слоги с конца слова). Важным следствием этих различий является то, что узбекское ударение «не только определяет единство слова (то есть позволяет сосчитать количество слов в воспринимаемой фразе), но и позволяет провести границы между словами, так как отмечает собой последний слог каждого слова», а русское ударение «способствует дифференциации слов (и грамматических форм)».

Другой, чрезвычайно полный, по мнению автора статьи, сопоставительный анализ фонологических систем русского и узбекского языков представлен в труде И.А. Киссена. ⁴В работе, помимо детального описания и сопоставления системы гласных и согласных звуков русского и узбекского языков, рассматриваются особенности сочетаний звуков (стечение согласных в начале и в конце слова, сочетания согласных с гласными, двойные согласные и др.). Кроме того, автор уделяет существенное внимание ряду важнейших позиционных изменений звуков в русском и узбекском языках.

Результаты исследований сравнительных анализов русского и узбекского языков показывают, что оба языка относятся, в соответствии с морфологической классификацией, к языкам, имеющим аффиксы. Однако при этом русский является флективным (т. е. «гибким», лат.), тогда как узбекский – агглютинативным (что в переводе с латыни означает «склеивающий»).

Как это понимать? Оказывается, в узбекском языке каждое отдельно взятое морфологическое значение слова выражается отдельным аффиксом, причем аффиксы добавляются к основе в определенной последовательности (если их несколько).

² Алиева Э. А. Современный русский язык. Фонетика // Ташкент: «Go To gint», 2020. С. 43–46.

³Поливанов, Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком [Текст] / Е.Д. Поливанов. – Ташкент: 1999 г.

⁴. Киссен, И.А. Краткий очерк фонетики русского языка в сопоставлении с фонетикой узбекского языка [Текст] / И.А. Киссен. – Ташкент: 2001г. – 88 с.

Ударение как правило падает на последний слог. Повышение голоса к концу фразы, по этой причине наблюдаются стойкие трудности определения границ предложения.

⁵В русском языке морфологическое значение слова включает род, число, а также падеж, залог, наклонение и вид и образуется различными способами:

1. Внешней флексией – т. е. суффиксами, приставками и окончаниями, добавляемыми к корню слова – при-ехать, про-ехать-ся,
2. Внутренней флексией, т. е. замещением одних букв в корне слова на другие: лежать – ляг,
3. Чередованием фонем: искать – ищу, часто – чаще,
4. Супплетивным методом: человек – люди, ребенок – дети,
5. Сменой ударения: ищущий – искать.

В узбекском языке предлоги практически отсутствуют – их успешно заменяют разновидности суффиксов либо дополнительные слова, размещаемые после основного слова.

В русском присутствуют такие грамматические категории, которых нет и никогда не было в узбекском.

Таким образом язык как средство общения нуждается в единообразии как письменного, так и устного оформления. Неправильное произношение, ошибочное ударение не только отвлекают внимание слушающих на внешнюю сторону речи, но и свидетельствует о недостаточной образованности говорящего, низком уровне его речевой культуры. Ударение - один из самых сложных для усвоения фрагментов речевого пользования, так как оно отличается наличием большого количества акцентных вариантов. Орфоэпия и акцентология ставят своей задачей повышение произносительной культуры носителей русского и узбекского языков.

Список используемой литературы:

1. Алиева Э. А. Современный русский язык. Фонетика // Ташкент: «Go To rint», 2020. С. 43–46.
2. А.Т.Нурманов, С.Б.Королева, Д.С.Саъдуллаев, Ю.В.Тураходжаева. Методика преподавания русского языка. [Текст]: учебник. – Т.: Издательство «ZEBO PRINT», 2022 – 256 с.
3. Поливанов, Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком [Текст] / Е.Д. Поливанов. – Ташкент: 1999 г.
4. Киссен, И.А. Краткий очерк фонетики русского языка в сопоставлении с фонетикой узбекского языка [Текст] / И.А. Киссен. – Ташкент: 2001г. – 88 с.
5. <https://dzen.ru/a/YbgEBuqlrBOXudfK>

⁵ <https://dzen.ru/a/YbgEBuqlrBOXudfK>

**EKOLOGIYAVA DEMOGRAFIYA. EKOLOGIYA VA XALQARO
MUNOSABATLAR.**

To‘lqinboyev Hojiakbar Sodirjon o‘g‘li

Farg‘ona politexnika instituti talabasi.

tolqinboyevhojiakbar@gmail.com

+998976660512

Annotatsiya: Ekologiyava demografiya. Ekologiya va xalqaro munosabatlar. borasidagi muammo va yechimlar haqida umumiy ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Demografiya, konvensiya, qishloq xo‘jaligi, tendensiya, davlat ekologiya qo‘mitasi.

Demografiya (yunoncha. Demos — odamlar va ... grafika) — aholi soni va uning rivojlanish qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitda o‘rganuvchi fan. Ikkinchisi demografiya ijtimoiy fanlarga tegishli ekanligini bildiradi. Demografiyada markaziy o‘rinni aholining ko‘payishini, ya‘ni odamlarning ayrim guruhlarini boshqalar bilan almashtirish jarayonini o‘rganish egallaydi. Aholining takror ishlab chiqarilishi, birinchi navbatda, avlodlarning tabiiy o‘zgarishi natijasida, ya‘ni tug‘ilish va o‘lim darajasi yoki aholining tabiiy harakati deb ataladigan narsa orqali sodir bo‘ladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo aholisining juda tez va notekis o‘lishidan iborat. Miloddan avvalgi 10 ming yil qishloq xo‘jaligi inqilobining boshida sayyoramizda 10 million kishi yashagan, yangi davr boshida esa -100 - 250 million kishi. 1830 yilda Yer aholisi 1 milliardga yetdi, 1930 yilda - 2 milliardga etdi, ya‘ni aholini ikki barobarga oshirish uchun 100 yil kerak bo‘ldi. Yer aholisi 1960 yilda 3 milliardga yetdi, 1990 yilda Yerdagi 4 milliard, 2003 yilda - 6,1 milliard kishi yashagan. BMT ekspertlarining ma‘lumotlariga ko‘ra, 1999-yil 17-iyulda GMT bilan soat 8:45da Sarayevoda Yerning olti milliardinchi aholisi tug‘ilgan.

O‘tgan mingyillikda Yer aholisi 18 baravar ko‘paydi. Birinchi ikki barobarga 600 yil, ikkinchisi 230 yil, uchinchi 100 yil va oxirgi 38 yil davom etdi. 1975 yildan 1985 yilgacha aholihar yili 77 millionga o‘tdi, ya‘ni. o‘rtacha 1,8% ga, rivojlangan mamlakatlarda - 0,5% ga, rivojlanayotgan mamlakatlarda - 2,1% ga, Afrikada - 3% ga. Bunday o‘shish sur‘atlari insoniyat tarixida hech qachon qayd etilmagan. Har soniyada aholi zichligi 3 kishiga oshadi. 90-yillarning ikkinchi yarmida o‘shish yiliga 80 mln.ni tashkil etdi (1,4%). Dunyodagi demografik vaziyatning rivojlanish tendentsiyalari. 21-asrda barqarorlashtirish imkoniyatlari. Prognozlar har yili e‘lon qilinadi va 1990 yilda 2000 yilda Yerdagi 6,25 milliard odam, 2025 yilda - 8,5 milliard, 2100 yilda - 11,3 milliard kishi yashaydi (1988 yil prognozi). 1990 yildan 2025 yilgacha iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi sezilarli

darajada qayta taqsimlanadi. Davlat ekologiya qo‘mitasi delegatsiyasi xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo‘lgan suvli-botqoq joylar to‘g‘risidagi konvensiyasining (Ramsar konvensiyasi, 2.02.1971, Ramsar, Eron) Bosh kotibi Marta R. Urrego xonim bilan uchrashuv o‘tkazdi. Bu haqda Davlat ekologiya qo‘mitasi matbuot xizmati xabar berdi. Uchrashuvda suvda suzuvchi qushlarining yashash joylari uchun muhim bo‘lgan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni kengaytirish bo‘yicha erishilgan yutuqlar va keyingi rejalar haqida so‘z yuritildi. O‘zbekiston tomoni tabiiy resurslarni barqaror boshqarish sohasidagi hozirgi holat va olib borilayotgan ishlar, shuningdek, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni, shu jumladan mamlakatimizda Ramsar Konvensiyasiga kiritilgan obyektlarini saqlash va kengaytirish rejalarini haqida ma’lumot berdi.

Kotibiyat suv botqoq yerlarida tadqiqot ishlarini olib borish sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning malakaviy salohiyatini oshirishga yordam berishga tayyorligini bildirdi. Tomonlar 2021-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tadigan tegishli konferensiyada ishtirok etishining muhimligini ta’kidladilar. Mazkur konferensiyada 2020-yildan keyingi bioxilma- xillikning global tizimi va global maqsadlarga erishishning asosiy ko‘rsatkichlari muhokama qilinishi kutilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar.

1. V.V. Petrov "Vatanimiz florasini"
2. A. Onegav "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida" 3.Yu.I.
Polyanskiy "Umumiy biologiya"
4. E.M.Milanova A.M. Ryabchikov

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR.

Rahmonov Akmaljon Muhammadjon o'g'li

Farg'ona politexnika instituti talabasi.

+998990119880

Annotatsiya: *Global ekologik muammolarni yechimini toppish.*

Kalit so'zlar: *global muammolar, dunyo issiqxonasi, ozon tuynuklari, cho'llashish, sho'rlanish muammolari, ichimlik suvi muammosi, ekologik kasalliklar.*

Keyingi yillarda sayyoramizning ekologik holati qanday o'zgarishlarga uchramoqda? Bu masala nafaqat soha mutaxassislarini, balki har bir kishini qiziqtiradi, chunki har bir insonning hayoti tabiatdagi sodir bo'layotgan o'zgarishlarga juda bog'liqdir. Televizor ekranidan, radio, gazeta va jurnallar orqali deyarlik har kuni sayyoramizning u yoki bu burchagida sodir bo'layotgan ekologik falokatlar haqida noxush xabarlar kelib turibdi:

- Atmosfera havosi global darajada isimoqda,
- Antarktidadagi muzliklar emirilib, erib ketmoqda,
- Ba'zi mamlakatlarda suv toshqinlari sodir bo'lmoqda,
- Okean suvlarini isishidan to'fonlar paydo bo'lmoqda,
- Ozon tuynugi borgan sari kengaymoqda,
- Ichimlik suvi kamayib bormoqda,
- O'rmonlar maydoni qisqarib bormoqda...

Bunday ekologik o'zgarishlar inson hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda, chunki inson va barcha tirik organizmlar ma'lum sharoitda yashashga moslashganlar. Shuningdek, har bir mamlakat o'zini sharoitiga ko'ra, ma'lum bir qishloq xo'jalik strukturasi ega. Hozirgi davrda tabiatda sodir bo'layotgan ekologik katoklizmalar (falokatli hodisalar) nafaqat tabiiy omillar asosan antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layapti. Hozirgi davrda yashab turgan kishilar tabiatdagi global darajadagi ekologik o'zgarishlarni shohidi bo'lmoqdalar. Ularning bir qismi tabiiy omillar (Quyosh) ta'sirida sodir bo'layotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan antropogen omillar ta'sirida ekologik falokatlar sodir bo'layapti. Ma'lumki keyingi yillarda aholi sonini o'sishi, ularning iste'mol tovarlarga bo'lgan talabining ko'payishi fan va texnikaning taraqqiyoti tufayli tabiiy boyliklarning ko'p miqdorda olinishi sayyoramizda global darajadagi ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Aholi soni inson paydo bo'lgandan 1830 yilgacha 1 mlrd.ga etgan bo'lsa, 1830 yildan 1930 yilga qadar 2 mlrd.ga, 1930 yildan 1960 yilga qadar 3 mlrd.ga, 1960 yildan 2000 yilga qadar 6 mlrd.ga etdi. Shu darajada ko'payish davom etaversa, XXI asr o'rtalarida sayyoramizda aholi soni 12-14 mlrd.ga etishi mumkin. Odam sonining ko'payib borishi sayyoramizda

yangi ekologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Atmosfera havosining YEr yuzasi sathidan 15-25 km balandlik qismida mavjud bo'lgan ozon qatlami Quyoshdan keladigan ultrabinafsha nurlarni yutib, YErda tirik organizmlarning hayotini muhofaza qilib turibdi. XX asrning 70-80 yillarida sayyoramizning har xil mintaqalari ustida "ozon tuynugi" sodir bo'layotganligi haqida olimlar ma'lumot berishdi. Rossiyalik olimlar Antarktida ustida 25 mln. km² kenglikda ozon qavatini siyraklashganligi haqida yaqinda (2004 yil) xabar qilishdi. Ozon qatlamini asosiy emiruvchilar freonlar bo'lib, masalan, bir molekula xlor atomi 100 ming ozon molekulasini emira oladi. Bundan tashqari N, SN lar hamda qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladigan azot o'g'itlari ham ozonni emiruvchi manbalaridan ekanligi yaqinda aniqlandi. Bularning xalq xo'jaligida qo'llanish miqdori borgan sari ko'paymoqda, ya'ni ozon qavatini siyraklashuvi davom etaverishi mumkin. Ozon qavatini siyraklashuvi tufayli ultrabinafsha nurlari ta'siridan Antarktida yaqin bo'lgan birgina Yangi Zelandiya aholisining 11 mingdan ortig'i teri raki kasalligiga chalingan, 160 kishi halok bo'lgan. Ozon qavatini siyraklashuvini oldini olish borasida ba'zi choralar ko'rilmoqda. Masalan: BMT 16 sentyabrni Halqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni deb e'lon qilgan. Uni oldini olish borasida boshqa ko'p tadbirlar belgilangan.

Yer atmosferasi tarkibidagi barcha gazlar ma'lum vazifani bajaradilar. Xususan is gaz (SO₂) YErda haroratni bir xilda ushlab turishi tufayli sayyoramizning "ko'rpasi" hisoblanadi. Is gazining atmosfera havosi tarkibidagi ulushi foiz bo'yicha 0,3 ni tashkil etsada, mavsumlar davomida o'zgarib turadi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, hozir inson tomonidan yiliga o'rtacha 22 mlrd. tonnadan ortiq is gazi atmosferaga chiqarilmoqda. Uning miqdori yildan-yilga ko'paymoqda.

Is gazi asosan sanoat korxonalaridan, avtotransport va o'rmonlarni yonishidan chiqadi. Mutaxassislarning fikricha atmosfera tarkibidagi ushbu gaz miqdori XX asr mobaynida 10-15% ortgan. XXI asr o'rtalariga borib, 40% ga etishi bashorat qilinmoqda. Is gazi Quyoshdan kelayotgan qisqa to'lqinli nurlarni ko'p qaytarib, ayni vaqtda YErda qaytgan uzun to'lqinli nurlarni tutib qolishi tufayli atmosfera havosini isishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari SN₄, N₂O gazlar ham havo haroratini isishiga ta'sir etadi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12645-sayyoramizda-sodir-bo-ladigan-global-ekologik-muammolar>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/global-ekologik-muammolar>

LITOSFERA. TUPROQ IFLOSLANISH MUAMMOLARI.

Yuldasheva Nilufar Abdug‘ani qizi

Farg‘ona politexnika instituti

KLT fakulteti 62a-20 E va A guruh talabasi

Tuproqning ifloslanishi. Atrof muhitni ifloslanishining asosiy muammolaridan biri bu tuproqning ifloslanishi hisoblanadi. Gap har qanday tirik mavjudot uchun zararli bo‘lgan kimyoviy moddalarning chiqishi yoki chiqarilishi bilan yer sathining o‘zgarishi haqida. Tuproqning bu o‘zgarishi uning sifati va ozuqaviy elementlariga ham ta‘sir ko‘rsatadi, uni qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yaroqsiz holga keltiradi.

Inson faoliyati davomida ma‘lum chiqindilarni hosil qilganda yoki kimyoviy moddalar bilan to‘kilganda, ular tuproqni ifloslantirishiga olib keladi. Ushbu moddalar tuproq tarkibini va tuzilishini o‘zgartiradi. Buning sababi shundaki, yer ozuqa moddalarini va unumdorligini yo‘qotadi. Yer qatlamining ichki qismida yashovchi tirik mavjudotlarga va unda o‘sadigan barcha o‘simliklar ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu holatlar ko‘plab turlarning yashash joylari bo‘lgan ekotizimlarda haqiqiy falokatlarini keltirib chiqarishiga sabab bo‘ladi.

Tabiiy ifloslanish. Tabiiy kimyoviy elementlarni yerga tortib, filtrlaydigan ba‘zi bir hodisalar ro‘y berganda ham tuproq tabiiy ravishda ifloslanishi mumkin. Tabiatga ko‘ra kimyoviy moddalarni tuproqqa topshirish ushbu kimyoviy moddalarning kontsentratsiyasini tuproq unumdorligini saqlab qolish uchun juda yuqori bo‘lishiga olib keladi. Tabiiy ifloslanishning ayrim misollari atmosferaga zararli gazlar kontsentratsiyasini chiqaradigan vulqon otilishlari, yong‘in va kislotali yong‘iri yog‘ishidir. Yog‘ingarchiliklar sodir bo‘lganda, zaharli gazlar suv tomchilari bilan cho‘kadi va tuproqni filtraydi. Ushbu toksinlar tuproq unumdorligi va sifatini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi.

Insonning ifloslanishi. Tuproqni ifloslanishining asosiy sababchisi odam deb o‘ylash mantiqan to‘g‘ri. Inson faoliyati bilan biz tabiatga kimyoviy kelib chiqadigan ifloslantiruvchi moddalarni ham kiritamiz. Masalan, har safar transport vositamizdan foydalanganimizda atmosferani ifloslantiramiz. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu gazlar suv tomchilari bilan birga cho‘kib, karbonat angidrid kabi issiqxona gazlarining tuproqqa tushishiga olib keladi.

O‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi ekspluatatsiyasi, shuningdek, ekinlarning o‘sishi uchun o‘g‘it sifatida ishlatiladigan ba‘zi azotli ifloslantiruvchi moddalarning chiqindilarini hosil qiladi. Ushbu azotli o‘g‘itlar nafaqat tuproq va uning tarkibiga ta‘sir qilishi bilan birgalikda yer usti va yer osti suvlarini ham ifloslantiradi.

Tuproq ekotizim bilan ifloslangan bo'lsa, odatda, bu turlarning o'zaro ta'siri o'rtasida ekologik muvozanatni keltirib chiqaradigan qolgan muammolar uchun qo'zg'atuvchidir. Buning yaqqol misoli ifloslangan tuproqli o'rmon bo'lib, undan o'simliklar oziqlana olmaydi yoki rivojlana olmaydi va shuning uchun o'txo'rlardan boshlab butun oziq zanjirining ovqatlanishiga ta'sir qiladi.

Tuproqning infiltratsiya bilan ifloslanishi. Turli xil kimyoviy moddalarni ishlatish bilan suvni ifloslantirganimizda, quruqlik va suv o'rtasida infiltratsiya jarayoni sodir bo'ladi. Suv o'tkazadigan barcha ifloslanishlar filtrlash jarayonida tuproqda qoladi.

Oqishning bir necha turlari mavjud, ularning eng taniqli qismi o'g'itlar, moy, pestitsidlar, gerbitsidlar va boshqalar kabi ifloslantiruvchi moddalarni olib o'tishga qodir. Yomg'ir suvi ham, qor erishi ham erni ifloslantirishi mumkin.

Odamlar, shuningdek, uydan, ishdan, sog'liqni saqlashdan, ishlab chiqarishdan va hokazolardan har xil chiqindilarni ko'p miqdorda atrof muhitga tashlaydilar. To'g'ridan-to'g'ri ma'lum bir joyda yerga tushadi. Keyinchalik, bu qoldiqlarning degradatsiyasi jarayoni atrof-muhitga ta'sir qilish va uning oqibatida yuvilish tufayli yuzaga keladi. Lixivizatsiya suvga aralashirilgan va tuproqqa singib ketadigan kimyoviy moddalardan boshqa narsa emas. Bunga mo'l-ko'l yog'ingarchilik paytida yerdan ifloslantiruvchi moddalarning tortilishi oqibatida kelib chiqadigan ifloslanish sabab bo'ladi.

Tuproqning ifloslanishi oqibatlari. Birinchi darhol oqibat – bu yerning sifatini yo'qotilishi. Ushbu sifatni yo'qotilishi, har qanday hayvonot va o'simlik turlarini joylashtirish uchun sog'lom ekotizimni yaratish, etishtirish yoki ishlatish uchun foydalana olmaydigan darajada devalvatsiyani taxmin qiladi. Ushbu oqibatlar ko'pincha jimgina azoblanadi, bu son-sanoqsiz turlarning doimiy ravishda tarqalishiga va populyatsiyalarining kamayishiga olib keladi. Agar ifloslanish juda keskin bo'lsa, ko'plab qurbonlar uchun ekologik halokatlar kelib chiqadi. Masalan, Fukusimadagi avariya sodir bo'lgan radioaktiv qochqin U erni shunday ifloslantirdi, dehqonchilik, chorvachilik va baliq ovlashga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.


Boshqa tomondan, hayotni har tomonlama qo'llab-quvvatlash qobiliyatining qashshoqlashishi tufayli biz landshaftning yomonlashuviga duch kelmoqdamiz.

Tuproq eroziyasi— tuproqning eng unumdor yuqori qatlamlari va tuproq osti jinslarining atmosfera yog'inlari hamda sug'orish suvlari, shamol va boshqa ta'sirida yemirilish jarayoni. Yuz berish darajasiga ko'ra, tabiiy va jadallashgan (yemiradigan) turlarga bo'linadi. Tabiiy Tuproq eroziyasi nisbatan sekin kechib, tuproq tabiiy hosil bo'lish jarayonida qayta tiklanib turadi. Jadallashgan Tuproq eroziyasi odamning xo'jalik faoliyati (madaniy o'simliklarni o'stirishda yerdan noto'g'ri, uquvsiz foydalanish, eroziyaga qarshi tadbirchoralarga rioya qilmay yerlarni o'zlashtirish, sugorish, chorva mollarni boqish, o'rmonzorlarni yo'q qilish, qurilish ishlarini olib

borish va boshqalar) natijasida yuz berib, tuproq unumdorligini sezilarli darajada pasaytirib yuboradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.renovablesverdes.com/uz/tuproqning-ifloslanishi-2/>
2. <https://peskiadmin.ru/uz/chto-zagryaznyaet-pochvu-istochniki-i-prichiny-zagryazneniya-pochvy-vidy.html>
3. <https://www.renovablesverdes.com/uz/tuproqning-ifloslanishi/>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tuproq_eroziyasi



BIOSFERA TUZILISHI VA UNING VAZIFASI.

Erkinov Shohijahon Hasanboy o'g'li
Farg'ona politexnika instituti talabasi.

Erkinovshohijahon00@gmail.com

+998910473808

Annotatsiya: *Ushbu tezisdan biosfera va uning doimiy ravishda yerning himoya qobig'i ekanli hamda hayot qobig'ini doimiy taminlash borasidagi muammo va yechimlar haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Biosfera, yer qobiqlari, atmosfera, gidrosfera, litosfera, magnit bo'ronlar.*

Bugungi kunda yerni havfsiz va toza holatda saqlash va tabiatni tabiiy holatda davom etishi va iqlim o'zgarishlaridan himoya qilish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Oldingi davrlarda evolyutsiya nazariyasi, turli tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan va sabablari Ibtido turlarining kelib chiqishi holatlar turli ko'rib, asosan o'zgarish tushunchalar, irsiyat va atrof-organizmlarning evolyutsion moslashish o'zgarish qonunlari asosida. Hayvon o'zi asab tizimining murakkabligi seriya raqami haqiqat g'oyasini itarib deb biosfera va tashqi muhit bog'liq emas evolyutsiyasi o'zi ayrim spontan impulslari, moyil odamlar. Bu takomillashtirish ortida hech qanday aniq ilmiy tushuncha bor bo'lsa-da, hali ham u o'z tarixi va muammo nazariyasi talab etilmoqda.

Vernadsky ham tirik jonzoatlarning morfologik inqilobiy beqarorlik muhim bog'liq, deb taklif qildi bu geologik davrlar sayyoramizning tarixi, uzoq zaminiy hodisalar tashqarida borib impulslari. Jarayonining tezlik, uning fikricha, hali to'liq tergov yolg'on bo'lishi mumkin, lekin u, kosmik ta'sir bizga ochiq-oydin emas, chunki. Bu geologlar orasida birinchi paydo bo'ldi va ilmiy inson qiymati va Yer o'zgartirish boshqarishda o'z faoliyati ko'rinishini bildirdi qiziq. Muammo o'zi va aniq, chunki ularning faol ish biosfera odamlar, albatta, muammo ilmiy belgilar aylangan. Misol uchun, Amerika Explorer Charlz Schubert va rus olimi Aleksey Petrovich Pavlov, mustaqil geologik davrda Yer yuzida odamning paydo davri ta'kidlash zarurati haqida xulosaga keldi.

O'zi Vernadsky o'n to'qqizinchi asrda glatsiologiya Zh L. Agassi ham asoschisi, inson davrga haqida yozgan, deb ta'kidladi va uning oldida, XVIII asrda, Buffon – inson “shohligi». Lekin falsafiy fikr tarixida, uzoq, deb oldin, Vernadsky koinotdagi roli va hayot joyi tushunchasi bilan bog'liq fikrlarni ko'radi. Shuningdek, g'oyalarini bilan ularni bog'lab masalani tirik. Darwin va Dana haqida o'z mustaqil ko'chib oldin u uzoq, XVIII asrning ikki buyuk mutafakkirlar mavzu munosabati bilan eslash kifoya

insonning tabiat va chuqur tadrijiy g'oyalar bilan tabiatda o'z joyida. Bu ijodiy ta'siri, chunki tabiat va biosfera inson faoliyatining ta'siri yaxshilash jarayoniga tuganmas yuqori darajasi, cheksiz emas – bu mutafakkirlarining biri uning ishida “Inson, uning o'lim va Boqiylik” odam deb yozgan Aleksandr Nikolaevich Radischev edi. O'z-o'zidan bu xususiyat jismoniy kamchiliklari bartaraf etish uchun yordam beradi va biosfera Inson bo'lib belgilashda bir darajada bir kompensator omil bajaradi.

Yer yuzini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan hoz. Davrda Biosferaning rivojlanishi yangi pog'onaga ko'tarildi. So'nggi yillarda insonning Biosferaga biokimyoviy ta'siri boshqa barcha tirik organizmlarga nisbatan juda katta kuchga aylandi. Lekin tabiiy resurelardan foydalanishni Biosferaning rivojlanishi va funksiyasi qonuniyatlarini nazarpisand qilmasdan amalga oshirilishi (mas, o'rmonlarning kesilishi, yerlarning o'zlashtirilishi, shaharlar, fabrikalar, sun'iy suv havzalari, yo'llar qurilishi va boshqalar.)

Yer osti boyliklarini qazib olib, juda ko'p miqdorda yoqilg'i yoqilishi moddalar almashinuvini tezlashtirib, Biosfera tarkibi va uning gomeostaz holatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu tufayli Biosferani bir butun, muayyan darajada tartibga solingan murakkab dinamik sistema deb qaralishi unda kechadigan jarayonlarni to'g'ri tushunib olishga yordam beradi.

Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qirqildi, katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'tlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o'rmon yoginlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba'zi bir misollarni keltirib o'tamiz:

1. “Atmosferaning dimiqishi” hodisasi.
2. “Ozon qatlamining siyraklanishi” hodisasi.
3. “Chuchuk suv” muammosi .
4. “Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi” muammosi.
5. “Pestisetlardan foydalanish” muammosi.


Yuqoridagi muammolarni vaqtida bartaraf etish orqali yerdagi hayotni doimiy va havfsiz holatda saqlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Ushbu tezis materialida yerning rivojlanishida, tabiat va jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p o'ta murakkab muammolarni xal etishda katta ahamiyatta ega.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Mahamadsaidovich, Xolmirzayev Yusufali. “International Organizations Aimed At Environmental Conservation.” The American Journal of Applied sciences 3.02 (2022): 105-110.

2. <http://www.uz/ru/res/visitor/index?id=30140>
3. <http://geografiya.uz/ekologiya/122-ozbekiston-ekologiyasi-muammolari-va-ekologik-vaziyatni-yaxshilash-yollari.html>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING EKALOGIK MUAMMOLARI

Orifjonov Xurshidbek Muxiddin o'g'li

Farg'ona politexnika inisituti talabasi

orifjonovxurshidbek773@gmail.com

+998901646154

Annotatsiya: Ushbu tezisda Global ekologik muammolardan Orol dengizi muammosi keltirilgan va Orol dengiz qanday bunday holatga kelganligi haqida, va Orol dengiz oqibatlarini haqida va Orol dengiz hozirgi holatiga saqlab qolish haqida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Kasbiy dengiz, o'lik dengiz, tuz, ifloslanish, chang-tuzon.

O'zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma'lum bo'lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak. Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta'sirda yoki munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq. Inson sivilizasiyasining rivojlanishi va uning tabiat bag'riga tobora chuqurroq kirib borish oqibatida ahvol tubdan o'zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirma ham bo'ladi. Chunki yer yuzidagi o'rmonlar qirgildi, katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, dorilar bilan o'g'tlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o'rmon yoginlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba'zi bir misollarni keltirib o'tamiz:

1. "Atmosferaning dimiqishi" hodisasi.
2. "Ozon qatlamining siyraklanishi" hodisasi.
3. "Chuchuk suv" muammosi .
4. "Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi" muammosi.
5. "Pestisetlardan foydalanish" muammosi.

Mintaqaviy ekologik muammolar. Yer yuzasining muayan mintaqasi o'ziga xos tabiiy iqlim, ijtimoiy – ekologik, etnogirafik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari harakterini belgilab beradi.

Bugungi kunda mustaqil o'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqaga bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashina sozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutulgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya'ni Angren-Olmaliq Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'olonda, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtimoiy-ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatini buzulishiga olib kelmoqda.
2. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.
3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.
4. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq halokatli ekologik – iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har-bir Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Yurtimizda boshqa sohalar qatori ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olishva ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Prezidentimizning 2017 yil 12 iyuldagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O'zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida hokimiyat vakillik organlari hamda siyosiy partiyalar va Ekologik harakatning o'tgan davrdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil etilib, islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, Ekologik harakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlik guruhining istiqboldagi vazifalari aniq ko'rsatib o'tildi. Xo'sh, o'tgan davrda

Ekoharakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhi bundan qanday xulosalar chiqardi, boshqacha aytganda, faoliyatimizda qanday ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi? Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat-tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. O‘tgan davrda Ekoharakat deputatlari guruhi tomonidan qonunchilik tashabbusi asosida bitta yangi qonun hamda 8 ta qonunni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalari ishlab chiqildi. Masalan, yangi tahrirdagi “O‘rmon to‘g‘risida”, Hayvonot dunyosini va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonunlarqabul qilindi. Shuningdek, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to‘g‘risida”, “Chiqindilar to‘g‘risida”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihalari tayyorlanib, Qonunchilik palatasiga kiritish mo‘ljallanmoqda.

Qonun loyihalarini ishlab chiqish, ular hayotiyiligini ta’minlash maqsadida qonun ijodkorligi jarayoniga keng jamoatchilik, olimlar va ekspertlar jalb qilinayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Misol uchun, ushbu qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayonida o‘tkazilgan 40 dan ortiq ishchi guruhlarida tadbirlarida 230 dan ziyod taklif va mulohazalar o‘rtaga tashlandi. Birgina yangi tahrirdagi “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bo‘yicha 2017 yil iyul-avgust oylarida jamoatchilik vakillarini jalb etgan holda o‘tkazilgan muhokamalarda 110 dan ortiq takliflar, fikr va mulohazalar olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.postposmo.com/uz/ortiqcha-effekti/amp/>
2. Ekologiya asoslarini tabiatni muhofaza qilish. (To‘xtayev A. Xamidov A.)
3. www.uz.wikipedia.org
4. Tabiatni muhofaza qilish. (Baratov. P)

AFG‘ONISTONDAGI ANTI-SOVET HARAKATLARINING TASHKIL ETILISHIDA SAUDIYA ARABISTONINING O‘RNI*Nurislom Axmadjonov**Toshkent davlat shaqrshunoslik universiteti magistranti***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada 1979-yilda Sovet Ittifoqi tomonidan Afg‘onistonga qo‘shin kiritilishi natijasida yuzaga kelgan vaziyat nuqtai nazaridan Saudiya Arabistonining Afg‘onistondagi anti-sovet harakatlarining tashkil etilishidagi o‘rnini yoritib beradi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni podshohligi tomonidan, inqiroz yillari Afg‘onistonga ko‘rsatilgan moddiy hamda iqtisodiy yordamlar ko‘lami ham olib borilgan tadqiqotda o‘z ifodasini topadi.

Tayanch so‘zlar: Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni, Sovet Ittifoqi, mujohidlar.

THE ROLE OF SAUDI ARABIA IN ANTI-SOVIET MOVEMENTS IN AFGHANISTAN**ABSTRACT**

This article sheds light on the role of Saudi Arabia in anti-Soviet movements in Afghanistan in light of the situation that arose as a result of the introduction of troops into Afghanistan by the Soviet Union in 1979. Also, the scale of material and economic aid provided by the Kingdom of Saudi Arabia to Afghanistan during the crisis years is also reflected in the research conducted.

Key words: Afghanistan, Saudi Arabia, Soviet Union, mujahideen

KIRISH

Saudiya Arabistoni Al-Saud sulolasi a'zolari bo'lgan o'nga yaqin yetakchi shahzodalar tomonidan avtoritar tarzda boshqariladi. Bu uning Afg‘onistonga nisbatan siyosatiga ikki jihatdan ta'sir qiladi. Birinchidan, barcha muhim qarorlar bir necha shaxslar tomonidan mutlaqo noshaffof tarzda qabul qilinadi, bu esa afg‘on siyosatiga kim mas'ul ekanini aniqlashni ham qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, barcha avtoritar rejimlar singari, hukmron oilaning asosiy siyosiy manfaatlari hokimiyatda qolishdir.

Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) 2014-yilgacha o‘z qo‘shinlarini Afg‘oniston hududidan olib chiqib ketish to‘g‘risida qaror qabul qilganidan so‘ng, Saudiya Arabistoni bu davlatga nisbatan siyosatida yangi dolzarblik hissini shakllantirdi. O‘shandan beri Ar-Riyod yangi fuqarolar urushining oldini olish va Eronni Kobuldan uzoqlashtirib, Pokistonda Al-Qoidani yakkalab qo‘yish hamda

hech bo'lmaganda Tolibonning bir qismini o'z ichiga olgan milliy birlik hukumatini o'rnatish maqsadini amalga oshirmoqchi edi.

Bundan tashqari, AQSh hukumati Afg'onistondagi Sovet istilosiga qarshi afg'on mujohidlarini qo'llab-quvvatlagan. 1980 yil boshida AQSh hukumati isyonni moliyalashtirishda ishtirok etgan va qo'llab-quvvatlash tarmog'ini boshqaradigan Islomobod – Vashington - Ar-Riyod uchburchagini tashkil etish uchun uchinchi tomonga aylangan Saudiya Arabistoniga murojaat qildi.¹ Qo'shma Shtatlarning sa'y-harakatlari Markaziy razvedka boshqarmasi (CIA) tomonidan boshqarilayotganligi sababli, Saudiya Arabistoni tashqi razvedka xizmati, ya'ni Razvedka Bosh Boshqarmasi (GID) bu masalani o'z zimmasiga oldi. Natijada, Saudiya Razvedka Bosh Boshqarmasining o'sha paytdagi rahbari, shahzoda Turki al-Faysal 1977-yildan 2001-yilgacha bo'lgan uzoq yillik faoliyati davomida Afg'oniston bilan munosabatlar uchun mas'ul bo'ldi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

SSSRning Afg'onistonga yurishi boshlanishi bilanoq AQShning Markaziy razvedka xizmati bilan Pokiston maxfiy xizmatlari Afg'onistondagi jangarilarga harbiy materiallar va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazishni yo'lga qo'ydilar. Butun Arab mamlakatlari va Musulmon mamlakatlaridan Afg'onistondagi "muqaddas urushga" ko'ngilli askarlar yollandilar. Ta'kidlash joizki, Saudiya rahbariyati Afg'onistonni Qirollikning yaqin qo'shnisining bir qismi sifatida ko'rdi va Saudiya Arabistoni Sovet Ittifoqining Arab dengizi va Fors ko'rfazi tomon yurishini davom ettirishdan qo'rqan. Shuning uchun ham Saudiya Arabistoni 1980-yillardan buyon Afg'oniston kelajagiga katta qiziqish bildiradi. Shundan kelib chiqqan holda, Misr, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlarda o'rta va yengil jazoga mahkum qilingan jinoyatchilarga Afg'onistonda Sovetlarga qarshi jihad qilish takliflari kiritildi.²

Ushbu davlatlardagi Jihodchilarning yig'ilishida ikki faktor katta rol o'ynadi: Birinchisi, ushbu mamlakatlarda hukumatga qarshi asosiy kuchlar bu Islomiy kuchlar edi, masalan Misrda va boshqa yaqin sharq mamlakatlarida "Musulmon birodarlar" yoki Saudiya Arabistonidagi Saud qirollik oilasiga qarshi kurashuvchi islomiy kuchlar. Bu mamlakatlar bir vaqtning o'zida AQShning ittifoqchisi sifatida Afg'onistondagi Sovetlarga qarshi askar yetkazib berar, bir vaqtning o'zida esa o'z mamlakatlaridagi hukumatga qarshi radikal kuchlardan qutulishga harakat qilardilar. Barcha Mag'rib davlatlaridan keluvchi passajir samolyotlari dastlab Makkaga qo'nib, Kabani ziyorat qilib undan keyin Peshovarga uchishar edi. O'z navbatida AQSh ning Markaziy razvedka Boshqarmasi Bzrezinskiyning dasturi bo'yicha harbiy kuchlarning Afg'onlar

¹ Dr. Guido Steinberg, Nils Woermer. Exploring Iran & Saudi Arabia's interests in Afghanistan & Pakistan: Stakeholders or Spoilers - a zero sum game? part 1: Saudi Arabia. Sources of Tension in Afghanistan and Pakistan: A Regional Perspective. April 2013, p 5

² <https://geopolitika.uz/hududlar/yevrosiyo/osiyo/11-afg-on-fojeasi-afg-oniston-geostrategik-o-yinlar-qurbonimi>

qo‘liga emas (Afg‘onlar juda ham tarqoq holatda edi) balki radikal Islomizmni kuchaytiruvchi shayxlarning qo‘liga topshirilar edi. Shulardan eng mashxuri Usama Ben Ladendir. Uning hech qanday Afg‘onistonga aloqadorlik joyi bo‘lmasligiga qaramasdan Afg‘onistondagi birinchi yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan harbiy kuchlar va tayyorgarlik poligonlari uning qo‘lida to‘plangan edi. Bu jangarilar zamonaviy qurol aslahalar bilan qurollangan bo‘lib, ayniqsa havo kuchlariga qarshi yengil qurol bo‘lmish AQShning Stinger nomli quroli orqali Sovet harbiy aviatsiyasiga ko‘zga ko‘rinarli zarar yetkazdi. Shunday qilib Afg‘onistondagi boshqaruv butunlay Afg‘onlar nazoratidan chiqib ketdi, Sovetlarga qarshi milliy ruhda kurashoyatgan Mujohiddinlar Islomiy kuchlar ta’siri ostida yo‘q bo‘lib ketdi. Lekin shunga qaramasdan Afg‘onistondagi jangarilar tarqoqligicha qoldi.

1989-yilda Sovet Armiyasi Afg‘onistonni tark etdi. 10 yillik urush davomida Afg‘oniston deyarli butunlay vayron qilindi, mamlakat tashqi kuchlarning ta’siriga to‘laligicha tushib qoldi. Sovetlarning urushi Afg‘onistonni Islomiy radikallashgan kuchlarning markaziga aylantirdi, ayniqsa bu hududda giyohvandlikni rivojlanishiga olib keldi. Sovetlar o‘rnatgan hukumat, ular mamlakatni tark etgandan so‘ng 4 yil davomida nazoratni ushlab turgan bo‘lishiga qaramasdan bu urush Sovetlar uchun katta mag‘lubiyat bo‘ldi. Sovet-Afg‘on urushining oqibatlarini hatto hozirgi kunda ham Sobiq Sovet mamlakatlarida kuzatildi. O‘sha urushda qatnashgan ayrim Sovet soldatlari uylariga radikallashgan Islomist sifatida qaytdilar, Juma Namangoniy, Tohir Yo‘ldosh, Sayid Abdullo Nuri Afg‘on Mujohiddinlaridan ta’sirlanib O‘rta Osiyoda Islom respublikasini tashkil qilishni maqsad qilib olgan shaxslardan edilar. Afg‘onistondagi bunday notinchlik va ahvolning murakkabligi uning joylashgan o‘rni bilan bog‘liqdir. 1980-yillarda bu hudud G‘arb va SSSR o‘rtasidagi raqobat maydoni bo‘lsa, Sovet Ittifoqi parchalangandan so‘ng bu hudud Islom dinining turli mahzablari orasidagi raqobatning va Afg‘onistondagi millatlar orasidagi kurashning qurboni bo‘ldi.

XXI asrga kelib esa bu hudud to‘laligicha Geostrategik o‘yinlar maydoniga aylandi. O‘z navbatida 1979-yil dekabr oyida sovet harbiylarining Afg‘onistonga bostirib kirishi neftga boy Fors ko‘rfaziga chiqish yo‘lida Sovet strategiyasining asosiy qadamlaridan biri bo‘lishi mumkin edi. O‘sha paytdagi Saudiya Arabistoni Razvedka bosh boshqarmasi boshlig‘i Turki al-Faysi SSSRning bunday hatti harakatlariga shunday degan edi: “Javob oddiy – ularga bizning neftimiz kerak. Hozircha biz bosqinchilikdan qo‘rqmaymiz, lekin Sovetlar o‘zlari uchun neft ta’minotini kafolatlaydigan vaziyat yaratish uchun kuch ishlatishlarini kutamiz.”³

Shunday qilib, Sovet Ittifoqi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan dushman radikal rejimlarning kengayishi natijasida hokimiyatni yo‘qotish qo‘rquvi Saudiya Arabistoni va boshqa Fors ko‘rfazi Arab davlatlarining hukmron doiralarini partizan urushini

³ Швейцер П. Победа (перевод польского языка). Минск, 1995, с.63; The New-York Times, 08.02. 1980.

boshlash uchun AQSHning Markaziy razvedka boshqarmasi va afg'on muxolifati bilan hamkorlik qilishga undadi.⁴

1979-yil dekabrda Sovet qo'shinlari Afg'onistonga bostirib kirganidan so'ng, Saudiya Arabistoni Pokiston va Qo'shma Shtatlar qatorida afg'on mujohidlarining antisovet jihodining eng muhim tarafdoriga aylandi. Yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarda tashqari Saudiya Arabistoni asosiy e'tiborini Afg'oniston va undan tashqarida o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun qurol sifatida tashkil etgan sunniy mujohidlarning yettita siyosiy-harbiy tashkilotiga qaratdi. Ya'ni ular

- Afg'oniston Islom Partiyasi (Gulbiddin Hikmatyor boshchiligida 1976-yil tuzilgan);
- Afg'oniston Islom Jamiyati (Burhoniddin Rabboniy tomonidan 1976-yil tuzilgan);
- Afg'oniston Islomiy Partiyasi (Yunus Holis tomonidan 1979-yil tuzilgan);
- Afg'oniston Ozodligi Islomiy Ittifoqi (Abdul Rasul Sayyof tomonidan 1982-yil tuzilgan);
- Afg'oniston Qutqarish Milliy Fronti (Sibg'atullo *Mujaddadiy* tomonidan 1979-yil tuzilgan);
- Afg'oniston Miliy Islomiy Fronti (S.A G'iloniy tomonidan 1978-yil tuzilgan)
- Afg'oniston Islomiy Inqilobi Fronti (*Muhammad Nabi Muhammadiy* tomonidan 1978-yil tuzilgan).

1980-yillarda Saudiya Arabistonining Afg'onistonga nisbatan siyosati asosan uchta omilga bog'liq edi. Ya'ni 1979-yilda Erondagi islom inqilobi va 1979-yil noyabrda islomiy jangarilar tomonidan Makkadagi Masjid-i Haramni egallab olishga urinishlari⁵ hamda o'z siyosiy imidjini oshirish imkoniyatini qo'lga kiritish hamda Islomni himoya qilish orqali Afg'onistondagi anti-sovet jihodini qo'llab-quvvatlash edi.

Shu tariqa Saudiya ruhoniylar bilan munosabatlarni tikladilar va qarshisidagi diniy idoralarni tinchlantirdilar, uning asosiy g'oyaviy raqibi bo'lgan va Eron afg'on mujohidlarining shia blokini qo'llab-quvvatlayotgan Eron bilan qisman, shuningdek, asosiy global ittifoqchisi (AQSh) va asosiy mintaqaviy hamkori (Pokiston) bilan munosabatlarni mustahkamladi.

Afg'onistondagi anti-sovet harakatlarining tashkil etilishida Pokistondan farqli o'laroq, Qo'shma Shtatlar va Saudiya Arabistoni asosan sahna ortida harakat qildi.

⁴ Шарипов У.З. Персидский залив: Обострение политической и военной ситуации и международных отношений в конце XX - начале XXI вв. Москва 2010. Ст 31

⁵ 1979-yil 20-noyabrda Muhammad al-Qahtaniy, Juhayman al-Utaybiy va boshqa besh yuzga yaqin terroristlar Makkadagi musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan Masjidul Haromni egallab oldilar. Qo'lga olingan masjidga hujum paytida Muhammad al-Qahtaniy o'ldirildi, Juhayman va tirik qolgan 68 kishi hibsga olindi va keyin o'limga hukm qilindi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari Markaziy razvedka boshqarmasi (CIA) afg‘on mujohidlarini moliyalashtirish, qurollantirish hamda texnik jihozlash uchun maxfiy dasturni (**Operation Cyclone**) ishlab chiqdi.⁶ Saudiya Arabistoni har bir AQSh dollarini arab dollariga tenglashtirish majburiyatini oldi, shuning uchun har ikki davlat rasman 4 milliard dollar sarfladi. Saudiya hukumati tomonidan taqdim etilgan rasmiy moliyaviy yordam Bosh razvedka boshqarmasi (GID) va uning rahbari shahzoda Turki al-Faysal tomonidan taqsimlangan. Saudiya Arabistoni rasmiy to‘lovlarining asosiy qismi Markaziy razvedka boshqarmasining maxfiy dasturiga to‘g‘ri kelgan va qurol sotib olish uchun ishlatilgan. Qolgan pullar shahzoda Turki al-Faysal boshchiligida Saudiya Arabistonining Islomobodagi elchixonasi tomonidan Peshovardagi partiyalari rahbarlari va nufuzli ulamolar, siyosatchilar va qo‘mondonlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri naqd to‘lov sifatida taqsimlangan.⁷ Qolaversa, Saudiya Arabistonining Afg‘onistondagi anti-sovet harakatlarining tashkil etilishida qo‘shgan moliyaviy hissasining ikkinchi tarmog‘i norasmiy yoki xususiy xayriyalar bo‘lib, ular umumiy hisobda hukumat byudjeti xarajatlaridan ham yuqoriroq bo‘lgan. Ushbu mablag‘lar ko‘p sonli diniy xayriya tashkilotlari, masjidlar, tadbirkorlar yoki qirol oilasi a‘zolari kabi xususiy shaxslardan kelgan edi.⁸

Peshovardagi partiyalaridan Abdul Rasul Sayyof boshchiligidagi qat‘iy fundamentalist, vahhobiylik tarafdori bo‘lgan Ittehad-e Islomi baro-ye Ozodi-ye Afg‘oniston (اتحاد اسلامی برای آزادی افغانستان) (Afg‘oniston Ozodligi Islomiy ittifoqi) va Gulbiddin Hikmatyor boshchiligida Hizb-e Islomi-ye Afg‘oniston (حزب اسلامی افغانستان) (Afg‘oniston Islom partiyasi) Saudiya Arabistonining afg‘on yo‘nalishi uchun asosiy mijozlari sifatida paydo bo‘ldi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri rasmiy mablag‘larning asosiy qismini oldi. Ayni paytda islomiy muxolifat o‘zining kuch tuzilmasini yaratishga qaror qildi. 1980-yil 10-fevralda Peshovarda surgundagi hukumatni saylash uchun Sho‘ro (kengash) chaqirildi. Pokiston va Saudiya Arabistoni rahnamoligida mujohidlarning “o‘tish davri hukumati”ga vahhobiy A.R.Sayaf, prezident esa S.Mojaddadiy bo‘ldi. Shia partiyalari va guruhlariga hukumat tuzishga ruxsat berilmagan. Natjada mujohidlar rahbarlari lagerida keskin kelishmovchiliklar kelib chiqdi. Qolaversa, "O‘tish davri hukumati" noqonuniy bo‘lib, xalqaro jihatdan hech kim tan olmadi.⁹

Ayni paytda Afg‘onistonning o‘zida ham vaziyat yomonlashdi. 1990-yil mart oyida Kobulda mudofaa vaziri Sh.Tanay boshchiligida hukumatga qarshi qo‘zg‘olon

⁶ Steve Coll, *Ghost Wars: The Secret History of the CIA, Afghanistan, and bin Laden, from the Soviet Invasion to September 10, 2001*, New York et al. 2004, pp. 63-65.

⁷ Peter Tomsen, *The Wars of Afghanistan: Messianic Terrorism, Tribal Conflicts, and the Failures of Great Powers*, New York 2011, pp. 196-198.

⁸ Steve Coll, *Ghost Wars: The Secret History of the CIA, Afghanistan, and bin Laden, from the Soviet Invasion to September 10, 2001*, New York et al. 2004, p. 296.

⁹ Коргун В. Г. Формирование и эволюция политической системы современного Афганистана, 1919-1999 г. Ст 41

ko‘tarildi. Qo‘zg‘olon bostirildi, qo‘zg‘olonchilar, jumladan, Vatan partiyasi (Hezb-i Vatan) (حزب وطن) siyosiy byurosi a‘zolari Pokistonga qochib ketishdi va u yerda G. Hikmatyorga qo‘shilishdi.

Biroq, 1989-yildan boshlab Sovet Ittifoqi Afg‘onistondan chiqib ketganidan keyingi davrda, Ar-Riyod hamda Sayyof va Hikmatyor o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Partiya yetakchilari Afg‘onistonning shimoli-sharqidagi Kunar viloyatida 1990-1991 yillarda Mavlaviy Jamil ur-Rahmon rahbarligida paydo bo‘lgan kichik davlat – Vahhobiy amirligiga¹⁰ qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Vahhobiy amirligining vayron etilishi va Pokiston tomoni roziligi bilan Hizb-e Islomiy kuchlari tomonidan Jamil ar-Rahmonning o‘ldirilishi, Saudiya-Pokiston ikki tomonlama munosabatlarini keskinlashtirdi va Ar-Riyodda afg‘on ittifoqchilariga nisbatan chuqur g‘azabga sabab bo‘ldi.¹¹ Natijada Saudiya Arabistonining keskinlashuvi yanada kuchaydi. 1990-1991 yillardagi Quvayt urushi paytida Sayyof ham, Hikmatyor ham Iroq diktatori Saddam Husayn tarafida bo‘lganligi ziddiyatni yanada kuchaytirdi.

Bu xiyonatga qaramay, Saudiya Arabistoni 1992-yil aprelida Kobulda kommunistik rejim qulagandan so‘ng ichki mujohidlarning hokimiyat kurashida Ittehad-e Islomi baro-ye Ozodi-ye Afg‘oniston (اتحاد اسلامی برای آزادی افغانستان) va Hizb-e Islomi-ye Afg‘onestonga (حزب اسلامی افغانستان) yordam berdi. Ammo Saudiya tomoni kuchli sunniy islomiy ittifoq tuza olmadi.

1992 va 1995-yillar oralig‘ida Pokiston va Saudiya Arabistoni o‘zlarining afzal ko‘rgan afg‘on ittifoqchilari Hizb-e Islomiy (حزب اسلامی) va Ittehad-e Islomiyning (اتحاد اسلامی) bir-biriga qarama-qarshi alyanslarda kurashayotganliklariga guvoh bo‘ldilar va ularning hech biri g‘alaba qozona olmadi. Pokiston asta-sekin o‘z e‘tiborini va qo‘llab-quvvatlashini yangi paydo bo‘lgan Tolibon harakatiga qarata boshladi. Saudiya Arabistoni esa tez orada unga ergashdi va 1990-yillarning o‘rtalarida Tolibonning eng muhim ittifoqchilaridan biriga aylandi. Saudiya Arabistonining Mulla Umar harakatini qo‘llab-quvvatlashi, Toliblarning 1996-yil sentabrida Kobulni egallab olgandan keyin rasman tan olishi bilan yanada orta boshladi. Shunga qaramay, 1998-yilda Saudiya-Tolibon munosabatlari Ben Loden masalasi tufayli sezilarli darajada yomonlashdi. Aftidan, Mulla Umar 1998-yil iyun oyida Saudiya Arabistoni Podshohligi shahzoda Turki al-Faysalning Qandahorga qilgan tashrifi chog‘ida avvaliga Al-Qoida yetakchisini ekstraditsiya qilishni va‘da qilgan. Al-Qoidaning Keniya va Tanzaniyadagi AQSh elchixonalarini portlatishlari hamda AQShning

¹⁰ Afg‘onistonning [Sovetlar bilan urushi](#) va undan keyingi [fuqarolar urushi](#) davrida turli **salafiy davlatlar** paydo bo‘ldi. Salafiylik mafkurasi Afg‘onistonda afg‘on qarshilik ko‘rsatishning saudiyalik tarafdorlari tomonidan tarqatilgan. **Jamil ar-Rahmon al-Afg‘oniy** (1939-1991) [Afg‘onistonning Kunar viloyatida](#) joylashgan “*Jamoat al-Da‘va ila al-Quron val-Sunna*” **salafiy** tashkiloti rahbari sifatida 1991 yil yanvar oyida Kunar Islom amirligi tashkil etilganini e‘lon qildi.

¹¹ On the Wahhabi emirate cp. Peter Tomsen, *The Wars of Afghanistan: Messianic Terrorism, Tribal Conflicts, and the Failures of Great Powers*, New York 2011, p. 367.

Afg‘onistondagi harbiy-o‘quv lagerlariga javob zarbalaridan so‘ng Tolibon yetakchisi Ben Lodenni qo‘llab-quvvatlay boshladi.¹² Natijada Qirollik Tolibonga rasmiy moliyaviy yordamini to‘xtatdi. Qolaversa uning Afg‘onistondagi elchixonasi va konsulliklari va butunlay yopildi va Tolibon vakillarini Saudiya Arabistonidan chiqarib yuborildi.

Faqat, 2001-yildan keyingina Afg‘oniston mojarosining keyingi bosqichida Saudiyaning xususiy va diniy tuzilmalari va jismoniy shaxslarini tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davom ettirildi. Endigi vaziyat Tolibon va O‘tish davri hukumati bilan aloqalarni o‘rnatish edi. Lekin buni amalga oshirishning iloji yo‘qligini Afg‘onistondagi siyosiy vaziyatlar imkon bermadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. Dr. Guido Steinberg, Nils Woermer. Exploring Iran & Saudi Arabia’s interests in Afghanistan & Pakistan: Stakeholders or Spoilers - a zero sum game? part 1: Saudi Arabia. Sources of Tension in Afghanistan and Pakistan: A Regional Perspective. April 2013, p 5
2. Швейцер П. Победа (перевод польского языка). Минск, 1995, с.63; The New-York Times, 08.02. 1980.
3. Шарипов У.З. Персидский залив: Обострение политической и военной ситуации и международных отношений в конце XX - начале XXI вв. Москва 2010. Ст 31
4. Peter Tomsen, The Wars of Afghanistan: Messianic Terrorism, Tribal Conflicts, and the Failures of Great Powers, New York 2011, pp. 196-198.
5. Steve Coll, Ghost Wars: The Secret History of the CIA, Afghanistan, and bin Laden, from the Soviet Invasion to September 10, 2001, New York et al. 2004, pp. 63-65.
6. Коргун В. Г. Формирование и эволюция политической системы современного Афганистана, 1919-1999 г. Ст 41
7. On the Wahhabi emirate cf. Peter Tomsen, The Wars of Afghanistan: Messianic Terrorism, Tribal Conflicts, and the Failures of Great Powers, New York 2011, p. 367.
8. Lawrence Wright, The Looming Towers: Al-Qaeda and the Road to 9 / 1 1, New York 2006, p. 244. In addition cf. Interview with Prince Turki alFaisal, Der Spiegel, <http://www.spiegel.de/international/spiegel/spiegel-interview-and-then-mullahomar-screamed-at-me-a-289592.html>, accessed March 12, 2013.
9. <https://geopolitika.uz/hududlar/yevrosiyo/osiyo/11-afg-on-fojeasi-afg-oniston-geostrategik-o-yinlar-qurbonimi>

¹² Lawrence Wright, The Looming Towers: Al-Qaeda and the Road to 9 / 1 1, New York 2006, p. 244. In addition cf. Interview with Prince Turki alFaisal, Der Spiegel, <http://www.spiegel.de/international/spiegel/spiegel-interview-and-then-mullahomar-screamed-at-me-a-289592.html>, accessed March 12, 2013.

**AFG‘ON MUAMMOSI FORS KO‘RFAZI MINTAQASI MILLIY
XAVSIZLIGINING USTUVOR MASALASI SIFATIDA***Nurislom Axmadjonov**Toshkent davlat shaqrshunoslik
universiteti magistranti***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada afg‘on muammosining Fors ko‘rfazi mintaqasida milliy xavsizlik masalalariga tahdidlarni hamda ularni hal qilishda ustuvor masalalar tadqiq qilinadi. Afg‘onistonda o‘ttiz yildan oshiq vaqt mobaynida ro‘y berayotgan voqealar butun dunyo jamoatchiligi diqqat e‘tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Ayniqsa, 2001-yil sentyabr voqealaridan so‘ng Afg‘onistondagi katta o‘zgarishlar mamlakatning butunlay qayta tiklanish tomon yuz burishi hamda dunyo nigohining Afg‘onistonga nisbatan qarashlarida muhim voqea bo‘ldi. Jumladan Fors ko‘rfazi Arab davlatlarini ham.

Tayanch so‘zlar: Afg‘oniston, afg‘on muammosi, Fors ko‘rfazi davlatlari, tolibon

**THE AFGHAN PROBLEM IS A PRIORITY ISSUE OF THE
NATIONAL SECURITY OF THE PERSIAN
GULF REGION****ABSTRACT**

This article examines the threats to national security in the Persian Gulf region of the Afghan problem and the priority issues in their resolution. The events taking place in Afghanistan for more than thirty years have attracted the attention of the world public. Especially after the events of September 2001, the great changes in Afghanistan became an important event in the country's turning towards complete reconstruction and the world's view of Afghanistan. Including the Arab countries of the Persian Gulf.

Key words: Afghanistan, afghan problem, Persian Gulf countries, taliban

KIRISH

Afg‘oniston oxirgi 100 yillikdagi dunyodagi notinch va bu notinchlik doimiy davom etgan davlatlardan biridir. Xo‘sh notinchlikning asosiy sabablari nimada degan savol tug‘ilishi tabiiy. Lekin bunday savollarga javob berishdan oldin shoshmaslik lozim. Chunki umumlashtirilgan javoblar bizni maqsadimizdan chetlashtirib yanglish xulosalar chiqarishga olib keladi. Bilamizki Afg‘onistonda islomiy ekstremizm SSSR ning Afg‘onistonga qo‘shin kiritishidan tashqari, 1996-yilda Tolibonning

kuchayishi va hokimiyat tepasiga kelishi bilan ildiz otgan. 1990-yillarning ikkinchi yarmida Usama ben Ladin boshchiligidagi “Al-Qoida” xalqaro terrorchilik tashkilotiga boshpana bergan “Tolibon” Afg‘onistonni xalqaro terrorizm o‘chog‘iga aylantirdi.

Bundan tashqari tez orada boy arab davlatlar ham bu raqobatga qo‘shila boshlashdi. Masalan, Fors ko‘rfazi Arab davlatlari. Ushbu Ko‘rfaz davlatlari o‘zlarining hamkorlik kengashini tuzdilar (GCC). Ularga Bahrayn, Quvayt, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni va BAA kiradi. U 1981-yil may oyida Fors ko‘rfazidagi arab petro-monarxiyalarining Humayniyning inqilobiy Eronining mintaqaviy ambitsiyalariga, shuningdek, 1981-yilda Iroq va Eron o‘rtasida urush boshlanishiga javob sifatida tashkil etilgan. Qo‘shma Shtatlar, ushbu kengashning olti a'zosining eng kattasi va eng ko‘p resurslarga ega bo‘lgan Saudiya Arabistoni boshchiligidagi ushbu kengashning yaratilishini ma'qulladi. Shu tariqa Ar-Riyod o‘zining kichik qo‘shnilari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kafolatlandi hamda Iroq va Eronga qarshi uch qutbli mintaqaviy tizim ichida o‘z ta’sirini kuchaytirdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashi (GCC) yaratilganidan beri uning a'zolarining xavfsizligi uchta omilga bog‘liq bo‘ldi: Birinchidan, AQSh tomonidan taqdim etilgan himoya; ikkinchidan, mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun amalga oshiradigan diplomatiya; uchinchidan ichki ittifoqlar yaratish.¹ Aynan mana shu ikkinchi omil Fors ko‘rfazi Arab davlatlari uchun Afg‘on muammosini Arab dunyosida global aktor sifatida maydonga chiqdi.

1979-yil Fors ko‘rfazi davlatlari va unga qo‘shni mintaqadagi xalqaro munosabatlarda katta ahamiyatga ega bo‘lgan besh voqea tufayli burilish davri bo‘ldi. Bu birinchidan, Eronda Islom inqilobining g‘alabasi va shoh rejimining qulashi, ikkinchidan, Saddam Husaynning Iroqda diktator sifatida namoyon bo‘la borishi, uchinchidan, Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistonga bostirib kirishi, to‘rtinchidan, Saudiya rejimiga qarshi bo‘lgan islom fundamentalistlari tomonidan Makkadagi Masjid-i Haramga hujum qilish va egallab olinishi,² hamda beshinchidan, Misr va Isroil o‘rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishi. Ushbu voqealarning har biri ko‘rfazdagi buyuk davlatlarning strategik manfaatlarini uchun qiyinchilik tug‘dirdi.³

1979 yil dekabr oyida AQSh o‘zining strategik manfaatlarini ta'minlash uchun Saudiya Arabistoni, Pokiston va boshqa davlatlar yordamida Sovet armiyasini Afg‘onistondan quvib chiqarishni maqsad qilgan islomiy jangarilarni qo‘llab-quvvatlay boshladi. O‘z navbatida SSSR hamda Afg‘oniston Demokratik Respublikasi

¹ <https://www.realinstitutoelcano.org/en/analyses/international-relations-of-the-gulf-interests-alliances-dilemmas-and-paradoxes-ari/>

² <https://www.bbc.com/news/stories-50852379>

³ Haizam Amirah Fernández. International Relations of the Gulf: Interests, Alliances, Dilemmas and Paradoxes (ARI) 2011, p. 81-84

o‘zaro bog‘langan edi. Chunki, Afg‘onistonning tashqi siyosat yo‘nalishida Dovud o‘ziga xos ravishda yondashdi va boshqa davlatlar bilan tengma-teng hamda Afg‘onistonni hech bir davlatdan kam bo‘lmagan mavqega erishishiga intildi. 1974-yilda Muhammad Dovud Sovet Ittifoqiga rasmiy tashrif bilan keldi va ushbu davlat rahbari L.Brejnev (1964-1982) bilan muzokaralar olib bordi. 1975-yil dekabrda Sovet Ittifoqi va Afg‘oniston o‘rtasida “Neytrallik va o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida”gi Shartnoma yana 10 yil muddatga uzaytirilgani imzolandi.⁴

Biroq, Sovet Ittifoqining mag‘lubiyati va uning keyinchalik qulashi nafaqat Afg‘oniston va uning qo‘shnilariga xavfsizlikni ta‘minlay olmadi, balki fig‘on chekuvchi davlatni o‘zlarining ekstremistik va puritanistik islom versiyasini majburan singdirishga intilayotgan radikal jangarilar qo‘lida qoldirdi. Xuddi shu vazifa va usullar minglab *mujohidlarning paydo bo‘lishiga olib keldi hamda arab va musulmon davlatlaridan (ularning ko‘pchiligi Yaqin Sharqdan) o‘z mamlakatlariga qaytdi va shu tariqa jangari radikallarning kuchayishiga hissa qo‘shdi. Afg‘onistondagi sovet imperializmiga qarshi ushbu "jangchilar"ni AQSh va Arab davlatlari qo‘llab-quvvatlashining kutilmagan oqibati mintaqada ichida ham, undan tashqarida ham AQSh va uning ittifoqchilariga qarshi terrorchilik usullarini qo‘llashga tayyor bo‘lgan jihodiy mafkuraning transmilliy tarmoqlarining tarqalishiga olib keldi.⁵ O‘z navbatida mana shunday radikal kuchlarning ko‘rfaz mamlakatlariga qaytib borishiga va u yerda ham mana shunday tarmoqlarning yaratilishiga, Fors ko‘rfazi Arab davlari ham kafolat bera olmasligi uchun ham Afg‘on muammosiga e‘tibor qaratish zaruriyatini vujudga keltirmasdan qolmasdi. Bundan tashqari tashqi omillar ham Fors ko‘rfazi Arab davlari uchun Afg‘on muammosiga e‘tibori kuchayichiga olib keldi. Shuni aytish mumkinki, Amerika Qo‘shma Shtatlari so‘nggi yigirma yil ichidagi diplomatiyasi, Fors ko‘rfazi mintaqasida Afg‘on yo‘nalishi uchun raqobat, sentabr voqealaridan keyin ancha kuchaygan.⁶*

2000-yillarda Qo‘shma Shtatlar Fors Ko‘rfazi Hamkorlik Kengashi mamlakatlari bilan harbiy hamkorlikni kuchaytirdi, bu Afg‘oniston va Iroqda harbiy operatsiyalarni tayyorlash va keyinchalik o‘tkazish bilan bog‘liq edi. 2006-yil avgust oyida Qo‘shma Shtatlar Qatar, Quvayt va Birlashgan Arab Amirliklari bilan Iroq va Afg‘onistondagi harbiy operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash manfaatlarida ushbu davlatlar hududidagi havo bazalaridan uzoq muddatli foydalanish to‘g‘risida shartnoma tuzdi.⁷

⁴ Mannonov Abdurahim Mutalovich, Abdullayev Nodir Abdulhayevich, Rashidov Rustam Rasulovich “Afg‘oniston tarixi” Toshkent 2018. 211 bet

⁵ <https://www.realinstitutoelcano.org/en/analyses/international-relations-of-the-gulf-interests-alliances-dilemmas-and-paradoxes-ari/>

⁶ **Interbational conference on Research in science and technology. Berlin Germany, 2016. p 6**

⁷ *Е.С. Мелкумян. Регион персидского залива в мировой политике: история и современность. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2015, № 3. Ст 86*

O‘z navbatida AQSH hukmron doiralari Kobuldagi hokimiyatga yakuniy siyosiy dastur ishlab chiqdi. Chunki “Savr inqilobi”dan keyin tuzilgan *yangi hukumat (Afg‘oniston Demokratik Respublikasi) mamlakatda Sovet Ittifoqi manfaatlariga mos bo‘lgan sotsialistik jamiyat qurish dasturini e‘lon qilgan edi*. Prezident J.Karter ma‘muriyati zudlik bilan musulmonlar hududidagi ushbu pro-marksistik rejimga nisbatan “maxsus dastur” ishlab chiqdi. Bu ham Fors ko‘rfazi davlatlarining Afg‘on muammosiga tortilishiga olib keldi.

“Maxsus dastur” quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi: 1) Afg‘oniston Demokratik Respublikasiga qarshi “e‘lon qilinmagan urush” boshlash; 2) Fors ko‘rfazi zonasida Sovetparast Kobul rejimi xavfiga qarshi tashviqoti olib borish; 3) Fors ko‘rfazi davlatlari o‘rtasida "kommunistlarga qarshi kurash uchun" kuch va vositalar safarbar qilish hamda agarda Fors ko‘rfazi zonasiga "qizil infektsiya" tarqaladigan bo‘lsa, ularni qurol-yarog‘ bilan ta‘minlash.⁸ O‘z navbatida Ko‘rfazda AQSh harbiy kontingentlari va ularning NATO bo‘yicha hamkorlarining mavjudligi Fors ko‘rfazi Arab davlatlari uchun "mo‘tadil" siyosiy rejimlar xavfsizligining tashqi kafillari sifatida belgilanar edi. Chunki ko‘pchilik Arab davlatlarining hukmron doiralari Afg‘oniston Demokratik Respublikasining tashkil topishiga va AXDP hokimiyatiga o‘ta salbiy munosabatda edilar. Bu yuqorida aytib o‘tganimdek, sotsialistik rejimni Ko‘rfaz mamlakatlariga eksport bo‘lishi nuqtai nazaridan edi. Fors ko‘rfazi Arab mamlakatlari rahbariyatining bunday munosabatini hisobga olgan holda, AQSH ma‘muriyatining ushbu davlatlarni afg‘onlarga qarshi kampaniyaga jalb qilish uchun hukmron elitaning Afg‘oniston Demokratik Respublikasiga salbiy munosabatini chuqurlashtirish vazifasini qo‘ygan edi. Buning uchun G‘arb axborot va targ‘ibot vositalari, shuningdek, tijoriy televideniya kanallari orqali Sovet va Afg‘oniston hukumati qo‘shinlari tomonidan amalga oshirilgan “Afg‘onistondagi vahshiyliklar” haqidagi tegishli vizual tele va radio hamda bosma materiallar bilan amalga oshirdi. Bunda “Amerika Ovozi”, “BBC”, “Deutsche Welle” radiostansiyalari, “The New York Times”, “Newsweek”, “Middle East”, “Figaro”, “Spiegel” va boshqalar davriy nashrlari juda faol bo‘ldi.⁹

Barcha xalqaro forumlarda - BMT, Islom Hamkorlik Tashkiloti, Qo‘shilmaslik harakati sessiyalarida bu davlatlar guruhi Afg‘onistonning "marksistik" rahbariyati bilan har qanday rasmiy aloqalarni o‘rnatishdan bosh tortdilar. Aksincha, muxolifat tashkilotlari rahbarlari va delegatsiyalari uchun qabullar uyushtirdilar. Bundan tashqari, Fors ko‘rfazi Arab davlatlari afg‘on mujohidlarini moliyalashtirish va qurol-yarog‘ bilan ta‘minlashda faol ishtirok etgan.

⁸ Вахрушев В.В. Национально-освободительное движение против неокOLONИализма. М., 1986, с.86.

⁹ Шарипов У.З. Персидский залив: Обострение политической и военной ситуации и международных отношений в конце XX - начале XXI вв. Москва 2010. ст 54

Bu borada eng muhimi Saudiya Arabistonining yordami bo'ldi. Hatto bir qator G'arb ma'lumot manbalariga ko'ra, Afg'oniston Demokratik Respublikasi mavjud bo'lgan yillar davomida Ar-Riyod afg'on islom muxolifatiga 1,5 milliard dollardan 2,0 milliard dollargacha, ya'ni o'z mablag'lari hisobidan Markaziy razvedka boshqarmasi va boshqa AQSH razvedka idoralari uchun ajratgan mablag'lariga deyarli teng miqdorda mablag' ajratgan.¹⁰ O'z navbatida Fors ko'rfazi davlatlaridan Saudiya Arabiston, BAA, Ummon, Qatar, Bahrayn vaqti-vaqti bilan dengiz va havo yo'llari orqali qurol yetkazib berish "ko'prigi" sifatida Karachi, Kvetta, Sheroz, Zohedon va boshqa hududlardan foydalanganlar.¹¹

2018- yildan boshlab, Afg'oniston hukumat kuchlariga yordam endi Qatar va Birlashgan Arab Amirliklari harbiylari tomonidan ko'rsatiladigan bo'ldi. Bu ma'lumotni Afg'oniston Milliy xavfsizlik kengashi (MXK) tasdiqladi. Fors ko'rfazidagi ushbu ikki davlatning afg'on muammosini hal etishda ramziy ishtirok etish to'g'risidagi kelishuvi ularning mintaqadagi raqobati kuchayganini hisobga olsak, kutilmagan voqea bo'ldi. Biroq, ekspertlarning tahlilicha afg'on mojarosiga aralashish Qatar uchun o'z ambitsiyalarini namoyish qilish uchun zarur. Ehtimol, Qatar harbiylarini jo'natilishi Dohaning Shimoliy Atlantika Ittifoqiga (NATO) qo'shilish niyati bilan birgalikda ko'rib chiqilishini anglatar edi. Chunki Qatar bunga bir necha bor harakat qilgan. Qatar va BAAning ushbu taklifi Afg'oniston Islom Respublikasi Milliy xavfsizlik kengashi tomonidan ma'qullandi. Afg'oniston rahbariyatining qarori haqida Tolonews telekanali xabar berdi. Unga ko'ra, ikki davlatning maxsus harbiy bo'linmalari NATOning operatsiyalari doirasida Afg'oniston Islom Respublikasi hududida faoliyat yuritishi, shuningdek Qatar va BAA harbiylari mahalliy xavfsizlik kuchlarini tayyorlash va ularni qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanishi kerakligi ta'kidlandi.¹²

BAA va Qatar NATO a'zosi bo'lmaganiga qaramay, safarbarlikning "Qat'iy qo'llab-quvvatlash" missiyasi doirasida, ya'ni NATO va rasmiy Kobul o'rtasidagi Xavfsizlik kelishuviga muvofiq (2014-yil sentabr) amalga oshirilishi belgilangan edi. Qolaversa, Qatar hukmron doiralari Afg'onistonga cheklangan kontingent yuborish niyati uning NATO bilan bog'liq ambitsiyalari fonida ko'rish kerak.

Hozirgi kunda AQSh qo'shinlari Afg'onistondan chiqib ketganidan so'ng, Fors ko'rfazidagi uchta asosiy rol o'ynovchi davlatlar ya'ni Qatar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari bundan keying voqealar rivojini hamda oqibatlarini diqqat bilan kuzatmoqda. Ya'ni ularning har biri Qo'shma Shtatlar bilan munosabatlarida nimaga erishishi (yoki yo'qotishi) mumkinligini hisoblab chiqadi. Tolibon

¹⁰ Figaro, Paris, 10.05. 1987.

¹¹ Шарипов У.З. Персидский залив: Обострение политической и военной ситуации и международных отношений в конце XX - начале XXI вв. Москва 2010. ст 55

¹² <https://afghanistan.ru/doc/94078.html>

hokimiyatining qayta tiklanishi hamda AQShning Afgʻonistondan chiqishi Fors koʻrfazi Arab davlatlarining mintaqada koʻproq ishtirok etishi uchun oʻziga xos siyosiy maydon qoldirishi mumkin.

Fors koʻrfazining yana bir davlati Bahrain qirolligi ham tashabbus koʻrsatib, Afgʻon muammosini hal etish boʻyicha 2020-yil 23-24-noyabr kunlari Shvetsariyaning Jeneva shahrida boʻlib oʻtgan Afgʻoniston boʻyicha navbatdagi konferensiyada, elchi doktor Yusuf Abdulkarim Bucheri boshchiligidagi Bahrayn delegatsiyasi virtual ishtirok etdi.¹³ Elchi Bahrayn Podshohligi nomidan Afgʻonistondagi oʻzgarishlar toʻgʻrisida milliy bayonot berdi va tinchlik, xavfsizlik va qayta qurishni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirishning taraqqiyoti, muammolari va eng samarali vositalarini baholadi. Bundan tashqari, u Bahraynning bu saʼy-harakatlarni qoʻllab-quvvatlashi va boshqalar bilan yaqindan hamkorlik qilishga sodiqligini taʼkidladi. Shuningdek elchi janoblari Tolibon oʻrtasida muzokaralarni Afgʻoniston va mintaqada tinchlikka erishish yoʻlidagi katta qadamlarda biri ekanligini taʼkidlab, Bahrayn Qirolligi hukumat va Tolibon oʻrtasidagi afgʻon ichidagi muzokaralarning muvaffaqiyatli natijasiga erishish va afgʻon xalqi uchun tinchlikka erishish uchun kuchli xalqaro yordam zarur, deb hisobladi. Bundan koʻrish mumkinki, Bahrain davlati Arab dunyosining boshqa davlatlariga qaraganda Tolibon va Gʻani hukumatiga nisbatan neytralligini izhor etganligini bilishimiz mumkin.

2021-yil avgust oyida Afgʻonistondagi mojaro toʻsatdan Tolibon foydasiga hal boʻldi va Tolibon hokimiyatni qayta egallab oldi. Afgʻoniston prezidenti Muhammad Ashraf Gʻani Ahmadzoy Tolibonni kuch jihatdan baholay olmay, vaziyatning jiddiyligi va dolzarbligini his eta olmadi va oxir-oqibat yaqin maslahatchilar guruhi bilan mamlakatni tark etib Fors koʻrfazi davlatlaridan biri BAAGA chiqib ketdi. Bu esa afgʻon davlatining hech boʻlmaganda 20 yil ichida rivojlangan har qanday institutsional salohiyatning tezda yoʻq boʻlib ketishiga olib keldi va Tolibon Afgʻoniston siyosiy maydonini deyarli toʻliq egallab oldi.

Afgʻonistondagi bu oʻzgarishlar Fors koʻrfazi davlatlarida ehtiyotkorlik bilan qabul qilindi. Biroq, turli siyosiy ishtirokchilarning Tolibonning qayta hokimiyatni egallashiga boʻlgan munosabati turlichadir. Tarixan, 1990-yillarda Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari Yaqin Sharqda Tolibon rejimini tan olgan yagona davlatlar boʻlgan boʻlsa, Afgʻonistonning bevosita qoʻshnisi boʻlgan Eron esa Tolibonning birinchi rejimiga ashaddiy raqib boʻlib qolgan edi. Qatar davlati esa 2013-yilda Dohada Tolibonning siyosiy idorasi ochilgandan keyingina afgʻon “kurashi”ga kirdi.¹⁴

¹³ Bahrain News Agency:

<https://www.bna.bh/en/BahrainsupportspeaceeffortsinAfghanistan.aspx?cms=q8FmFJgiscL2fwlzON1%2BDuAUSN7h mhaKKGmGfTmVHmE%3D>

¹⁴ <https://agsiw.org/with-taliban-takeover-gulf-states-maneuver-in-afghanistan/>

Bu safar esa Fors ko'rfazidagi Arab davlatlari an'anaviy tarzda Tolibonni tan olishga shoshilmayapti. Aksincha, Saudiya Arabistoni va BAA 2021-yil avgust oyi o'rtalarida Kobuldagi diplomatik vakolatxonalarini yopib qo'yishdi, bu esa Fors ko'rfazidagi davlatlar Kobuldagi siyosiy manzara aniqroq bo'lgunga qadar passiv bo'lishga qaror qilishini anglatadi. Aftidan, Saudiya Arabistoni ham, BAA ham Afg'onistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni to'liq baholay olmadi va G'ani hukumatini to'liq qulashi va hokimiyatni Tolibon tomonidan to'liq qaytarib olishini hech qachon kutmagan edi.

2009-yilda Saudiya Arabistoni Tolibon vakili Tayyab Og'ani quvib chiqarganidan so'ng, hech bir davlat Tolibon bilan diplomatik yoki yashirin tarzda aloqalarini saqlab qolmadi. Qo'chimchasiga, ikkala davlat, ya'ni Saudiya Arabistoni Podshohligi hamda Birlashgan Arab Amirliklari Qatarning Tolibonning siyosiy idorasiga mezbonlik qilishini tanqid qilishda davom etdi. Shuning uchun ham, Saudiya valiahd shahzodasi hatto 2019-yilda Islomobodda bo'lganlarida ham Tolibon delegatsiyasi bilan uchrashishdan bosh tortgan¹⁵. Xuddi shunday, Tolibonning Ar-Riyod va Abu-Dabiga, xususan, ularning rahbariyatiga ishonch barometri sezilarli darajada pasaygan va Tolibon harakati ushbu ikki davlatda AQSh vakillari bilan muzokaralar olib borishga urinishlariga qarshilik ko'rsatgan.

O'z navbatida, chuqur konservativ va islomiy davlat qurish tarafdorlarning g'alabasi, ehtimol, Yaqin Sharqdagi islomiy davlat qurish uchun harakat qilayotgan guruhlar tomonidan yaxshi kayfiyat bilan kutib olinib ular uchun motivatsiya sifatida qabul qilindi. Bu Saudiya Arabistoni va BAA uchun katta tashvish tug'dirishi mumkin. Agar Fors ko'rfazidagi ushbu guruhlar Afg'onistonda Tolibon qo'l ostida boshpana topsa, bundan ham ko'proq muammoli vaziyatga tushib qolishlarini hisobga olishlari zarurligini anglab yetishmoqda. Shu munosabat bilan Saudiya Arabistoni ham, BAA ham barcha mintaqadagi terroristik guruhlar faoliyati va kuchayib borayotgan Eron ta'siri xavfi ostida qolishini hisobga olgan holda, avvalgi G'ani hukumatini afzal ko'rgan bo'lar edi. BAA esa Ashraf G'aniga siyosiy boshpana berdi, bu uning Afg'onistonning sobiq hukumat amaldorlari bilan yaqin aloqalari mavjudligini bilvosita anglatadi. Chunki ularning aksariyati BAAning daromadli real davlat sektoriga sarmoya kiritgan edi. Ushbu o'zaro aloqalarga qaramay, Afg'onistonning BAA uchun strategik ahamiyati ancha cheklangan. Shuning uchun BAA Tolibon bilan u qadar zudlik bilan aloqa qilmasligi mumkin. Biroq, agar Qatar mamlakatda yangi siyosiy tuzumning shakllanishiga ta'sir o'tkaza olsa va undan siyosiy daromad olishi mumkin bo'lsa, bu vaziyat o'zgarishi mumkin.

Ijtimoiy liberallashtirish darajasidan oldinga siljigan Saudiya Arabistonining hozirgi rahbariyati, Tolibon hukumati bilan ziddiyatga tushib qoladi (2009-yildan).

¹⁵ <https://agsiw.org/with-taliban-takeover-gulf-states-maneuver-in-afghanistan/>

Biroq Saudiya Arabistonining islom olamining markazi sifatidagi diniy obro'si va uning barcha afg'on guruhlari orasida saqlanib qolgan hurmati yoki ta'siri oxir-oqibat qirollikni birodar musulmon davlatida kattaroq rol o'ynashga undashi mumkin. O'tgan 10 yil ichida, go'yoki 2009-yilda Saudiya Arabistoni Tolibon bilan aloqalarini to'xtatganidan beri, Eron Tolibon bilan neytral munosabatlarni o'rnatgan hamda mahalliy qo'mondonlarini qurol-yarog' bilan ta'minlagan va Tolibon rahbariyatiga mezbonlik qilgan. 2015-yilda Afg'onistonning g'arbiy va janubidagi ayrim Tolibon guruhlari harakat rahbariyatiga qarshi qo'zg'olon ko'targan bo'lsa ham, Eron hamon Tolibon harakatining markaziy rahbariyatiga sodiq qolib qo'llab-quvvatlagan edi. Qolaversa, Islom inqilobi qo'riqchilari korpusining Quds kuchlari qo'mondoni brigada generali Ismoil Qaani afg'on mutaxassisi bo'lib, Tolibon bilan bu aloqalarning rivojlanishida asosiy rol bo'lib xizmat qilgan edi.¹⁶

Shunga qaramay, Ar-Riyod Tolibonga nisbatan eng kuchli "kartalar"dan birini saqlab qoladi. Ya'ni Tolibon o'zining diniy ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda Qirollik bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita diplomatik aloqalarsiz afg'onlarning Saudiya Arabistoniga haj yoki umra ziyoratlariga borishlari qiyin bo'lishi mumkin. Aynan mana shu omil Tolibonning Saudiya Arabistoniga nisbatan yumshoqlik bilan siyosat olib borishga undaydi.

Fors ko'rfazi Arab davlatlari orasida Qatar, ehtimol, Afg'onistondagi eng muhim aktor va eng ko'p mablag' to'plangan davlat hisoblanadi. Chunki Qatar rahbariyati Tolibon rahbariyati bilan yillar davomida shakllangan ikki tomonlama ishonch va hurmatga asoslangan aloqalari, shuningdek, asosan Tolibon-AQSh muzokaralarining mezbon va yordamchisi sifatida betarafligi tufayli Qatar Afg'oniston masalasida diplomatik markaz sifatida harakat qilishi mumkin.

Afg'onistondagi inqirozli vaziyat va afg'on muammosiga Fors ko'rfazi Arab davlatlarining e'tibor qaratishi, Toliblarning ikkinchi bor hokimiyatni qo'lga kiritgandan so'ng yana namoyon bo'la boshladi. Qatar, BAA, Quvayt va Bahrayn Afg'onistondan evakuatsiya qilingan minglab odamlarni qabul qildi. Bundan tashqari BAA allaqachon gumanitar yordam ko'rsatish majburiyatining bir qismi sifatida [tibbiy va oziq-ovqat yordamini yuborgan edi](#). Chet [el yordami sifatida](#) Fors ko'rfazi yetakchilari mamlakat taraqqiyot byudjetining asosiy yo'naltiriluvchi tarkibiy qismini tashkil etuvchi sog'liqni saqlash infratuzilmasini yaxshilashga yordam berishdan tashqari, Afg'onistondagi rivojlanish loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun o'zlarining muhim moliyaviy imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Bu muqarrar ravishda Afg'onistondagi o'z siyosiy kapitalini shuningdek, Kobuldagi Tolibon hukumatini ochiq tan olish yoki afg'on xalqiga to'g'ridan-to'g'ri yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan G'arbdagi ittifoqchilarini ham siyosiy

¹⁶ <https://www.rferl.org/a/iran-s-new-quds-force-leader-has-a-long-history-with-afghanistan/30379354.html>

ro'lini oshiradi. Fors ko'rfazi Arab davlatlari, shuningdek, xorijiy pul o'tkazmalari Afg'oniston iqtisodiyotini barqaror ushlab turishda muhim rol o'ynaydigan ko'p sonli afg'on muhojirlarining vatani bo'lib qolmoqda. Lekin hali hanuzgacha [Afg'oniston mamlakat moliyaviy aktivlarining](#) eng muhim qismi sifatida iqtisodiy tanazzul yoqasida qolmoqda. Chunki Qo'shma Shtatlar tomonidan Afg'onistonning sobiq hukumatiga tegishli aktivlar muzlatilgan va Jahon banki hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan moliyaviy yordam to'xtatilgan. Hatto Tolibon rahbari Haybatulloh Oxundzoda tomonidan Afg'onistonda narkotik moddalar yetishtirish, ishlab chiqarish va sotishni taqiqlaydigan tegishli farmon e'lon qilingan bo'lsada,¹⁷ zarur xorijiy moliyaviy yordam va donorlarsiz, giyohvand moddalar ishlab chiqarish va savdosi keskin o'sishi mumkin.

Samarali boshqaruvning yo'qligi esa ekstremistik guruhlar uchun keng imkoniyatlar yaratib, mintaqaviy va global zo'rvonlik tahdidini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun ham Fors ko'rfazi Arab davlatlari yana bir bor afg'on muammosiga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim.

XULOSA

Hozirgi kunda AQSh qo'shinlari Afg'onistondan chiqib ketganidan so'ng, Fors ko'rfazidagi uchta asosiy rol o'ynovchi davlatlar ya'ni Qatar, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari bundan keying voqealar rivojini hamda oqibatlarini diqqat bilan kuzatmoqda - ularning har biri Qo'shma Shtatlar bilan munosabatlarida nimaga erishishi (yoki yo'qotishi) mumkinligini hisoblab chiqadi. Tolibon hokimiyatining qayta tiklanishi hamda AQShning Afg'onistondan chiqishi Fors ko'rfazi Arab davlatlarining mintaqada ko'proq ishtirok etishi uchun o'ziga xos siyosiy maydon qoldirishi mumkin.

[Fors ko'rfazidagi arab davlatlari Afg'onistondagi vaziyatga](#) o'zlarining manfaatlari yuzasidan fikr bildirmoqda. Masalan, Saudiya Arabistoni Afg'onistonda Tolibon harakati kuchayganiga munosabat bildirar ekan, Tashqi ishlar vazirligi o'z bayonotida Afg'onistondagi mavjud voqealarni diqqat bilan kuzatib borayotganini va bu mamlakatdagi vaziyatning barqaror bo'lishiga umid qilishini bildirdi. Ayni vaqtda Saudiya hukumati Afg'oniston xalqini va ularning hech qanday aralashuvsiz o'zlari qaror qilgan tanlovlarini qo'llab-quvvatlashini yana bir bor tasdiqlashini hamda shu bilan birga, Saudiya Arabistonining BMTdagi doimiy vakili Abdul Aziz al-Vasil Xavfsizlik kengashi yig'ilishida Tashqi ishlar vazirligining pozitsiyasini yana bir bor ta'kidlab, "Saudiya Arabistoni inson huquqlarini himoya qilish va hurmat qilishni kuchaytiruvchi tinchlik sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashini" qo'shimcha qildi.¹⁸

¹⁷ رهبر طالبان کشت خشکاش و تولید و مصرف مواد مخدر را در افغانستان ممنوع کرد <https://www.bbc.com/persian/afghanistan-60972994>

¹⁸ فارس از وضعیت افغانستان خوشحال هستند؟ کشورهای عربی حاشیه خلیج: [https://www.khabaronline.ir/amp/1551538/%20%D8%AE%D8%A8%D8%B1%D8%A2%D9%86%D9%84%D8%A7%DB%8C%D9%86%20\(https://www.khabaronline.ir/amp/1551538/\)](https://www.khabaronline.ir/amp/1551538/%20%D8%AE%D8%A8%D8%B1%D8%A2%D9%86%D9%84%D8%A7%DB%8C%D9%86%20(https://www.khabaronline.ir/amp/1551538/))

Quvayt hukumati Afg‘onistondagi voqealarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘ldi va Tashqi ishlar vazirligi bayonotida “Afg‘onistonning do‘st mamlakatidagi vaziyatni yaqindan kuzatib borishini” bildirdi. Vazirlik afg‘on tomonini “qon to‘kilishini oldini olish uchun maksimal darajada vazminlik ko‘rsatishga” chaqirdi.

Quvayt Tashqi ishlar vazirligi, shuningdek, “tinch aholini to‘liq himoya qilish va adashgan diplomatlar va chet el fuqarolarini xavfsiz evakuatsiya qilishga” tayyorligini namoyish etdi.¹⁹ Ammo Bahrayn hukumati Tolibon Afg‘onistonni o‘z nazoratiga olganidan keyin Fors ko‘rfazi hamkorlik kengashining amaldagi raisi sifatida Afg‘onistondagi vaziyat yuzasidan Fors ko‘rfazidagi boshqa arab davlatlari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazishini ma‘lum qildi.²⁰ Shuni ta‘kidlash joizki, Afg‘onistondagi voqealar va Tolibonning kuchayishi haqida hali rasmiy pozitsiyani egallamagan Ummon sultonligi ham bor. Sultonlikning rasmiy pozitsiyasini hozircha oshkor etmaganligi yoki qo‘shirnoq ichida etaolmayotganligini bir tarafdin anglab olish qiyin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)


1. Mannonov Abdurahim Mutalovich, Abdullayev Nodir Abdulhayevich, Rashidov Rustam Rasulovich “Afg‘oniston tarixi” Toshkent 2018. 211 bet
2. [Haizam Amirah Fernández](#). International Relations of the Gulf: Interests, Alliances, Dilemmas and Paradoxes (ARI) 2011, p. 81-84
3. *Е.С. Мелкумян*. Регион персидского залива в мировой политике: история и современность. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2015, № 3. Ст 86
4. Вахрушев В.В. Национально-освободительное движение против неокOLONIALИЗМА. М., 1986, с.86.
5. Шарипов У.З. Персидский залив: Обострение политической и военной ситуации и международных отношений в конце XX - начале XXI вв. Москва 2010. ст 54
6. به رویکرد کشورهای منطقه خلیج فارس و رسانه‌های عربی به تحریف نام خلیج فارس. محمدسعید شفیعی Interbational conference on Research in science and technology. Berlin Germany, 2016. p 6
7. رهبر طالبان کشت خشخاش و تولید و مصرف مواد مخدر را در افغانستان ممنوع کرد. <https://www.bbc.com/persian/afghanistan-60972994>
8. Bahrain News Agency: <https://www.bna.bh/en/BahrainsupportspeaceeffortsinAfghanistan.aspx?cms=q8FmFJgiscL2fwIzON1%2BDuAUSN7hmhaKKGMgFtMVHmE%3D>

¹⁹ O‘zbekiston Resublikasi Tashqi ishlar vazirligiga kelib tushgan xatdan namuna.

²⁰ فارس از وضعیت افغانستان خوشحال هستند؟ کشورهای عربی حاشیه خلیج

[https://www.khabaronline.ir/amp/1551538/%20%D8%AE%D8%A8%D8%B1%D8%A2%D9%86%D9%84%D8%A7%DB%8C%D9%86%20\(https://www.khabaronline.ir/amp/1551538/\)](https://www.khabaronline.ir/amp/1551538/%20%D8%AE%D8%A8%D8%B1%D8%A2%D9%86%D9%84%D8%A7%DB%8C%D9%86%20(https://www.khabaronline.ir/amp/1551538/))

9. <https://agsiw.org/with-taliban-takeover-gulf-states-maneuver-in-afghanistan/>
10. <https://www.realinstitutoelcano.org/en/analyses/international-relations-of-the-gulf-interests-alliances-dilemmas-and-paradoxes-ari/>
11. <https://www.bbc.com/news/stories-50852379>
12. <https://www.rferl.org/a/iran-s-new-quds-force-leader-has-a-long-history-with-afghanistan/30379354.html>



XX ASRDA SHIMOLIY AFG‘ONISTONGA O‘ZBEK VA BOSHQA TURKIY QABILALARNING MIGRATSIYASI*Nurislom Axmadjonov**Toshkent davlat shaqrshunoslik universiteti magistranti***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada afg‘on XX asrda Shimoliy Afg‘onistonga o‘zbek va boshqa turkiy qabilalarning migratsiyasi kabi masalalar tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etildi. O‘z navbatida, Shimoliy Afg‘oniston hududida joylashgan bir necha ming yillik tarixiy ahamiyatga ega me‘moriy yodgorliklarning haqiqiy meroschisi va ma‘naviy egasi Afg‘onistonda yashayotgan hozirgi o‘zbek millatidir. Shu jihatdan, Afg‘onistondagi o‘zbeklar soni, qanchalik kamaytirilib ko‘rsatilmasin, yetti-sakkiz milliondan oshib ketganligi ko‘pchilik mutaxassislarga ma‘lum.

Tayanch so‘zlar: Afg‘oniston, afg‘on o‘zbeklari, migratsiya, ko‘chishlar.

MIGRATION OF UZBEK AND OTHER TURKISH TRIBES TO NORTHERN AFGHANISTAN IN THE 20TH CENTURY**ABSTRACT**

In this article, issues such as the migration of Uzbek and other Turkic tribes to Northern Afghanistan in the 20th century were studied as an object of research. On the other hand, the true heir and spiritual owner of several thousand-year-old architectural monuments located in the territory of Northern Afghanistan is the current Uzbek nation living in Afghanistan. In this regard, it is known to many experts that the number of Uzbeks in Afghanistan, no matter how much it is reduced, exceeds seven to eight million.

Key words: Afghanistan, afghan uzbeks, migration, displacements

KIRISH

O‘zbek millati o‘z ona-yurti va ajdodlari hurmati vataniga mustahkam bog‘langan, uning muqaddas tuprog‘ini e‘zozlaydigan xalq ekani butun dunyoga ma‘lum. Mustabid Sovet tuzumi davridagi noinsoniy siyosat mislsiz qatag‘onlar va qonunsizliklarning salbiy oqibatlaridan biri millionlab vatandoshlarimizning xorijiy mamlakatlarga o‘tib muhojirlikda yashashlariga majbur qilingan edi. 1917-yilda bosh ko‘targan bolshevizm balosi, u tufayli kelib chiqqan mislsiz qirg‘in-barotlar, milliy urf-odat an‘analarimizni oyoq osti qilinishi, masjid va madrasalarimizni yondirilishi, ”oziq-ovqat razvedkasi” siyosati, ikki bosqichda o‘tkazilgan “yer-suv islohoti” va

qishloq xo'jaligini jamoatlashtirish davrida "quloq" qilish siyosati kabilar tufayli o'zbeklarning bir qismi Afg'onistonga va Sharqiy Turkiston(XXR)ga o'tib ketdilar. Turkistonliklar bir xil qo'riqlanmaydigan Amudaryo orqali qo'lbola qayiq va gupsarlarda qo'shni Afg'oniston hududiga o'tdilar.¹

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Afg'oniston o'zbeklari ikki guruhga bo'linib, mahalliy o'zbeklar va muhojir o'zbeklar sifatida tarixan tarkib topgan bo'lib, ular o'rtasida o'ziga xos millatdoshlik munosabatlari o'rnatilgan. Afg'onistonga turkiy qavmlar asosan tarixning uch bosqichi davrida ko'chib o'tgan bo'lib, birinchi to'lqin V-VI asrlarda ya'ni Turk xoqonligi davrida, ikkinchi bor ko'chishjarayoni XIV – XV asrlarda, Amir Temur va temuriylar davrida yuz bergan bo'lsa, uchinchi bosqich, Shayboniylar hukmronligi davriga, XVI-XVII asrlarga to'g'ri keladi.

O'zbeklar bugungi kunda Afg'oniston shimolida Maymanadan Badaxshongacha bo'lgan hudud hamda Solang dovonining berigi tarafida joylashgandir.² Shimoliy Afg'oniston ikki mintaqa-Turkiston va Qatag'an mintaqalaridan iborat. Turkiston mintaqasiga – Faryob, Juzjon, Saripul, Balx va Samangon viloyatlari; Qatag'an mintaqasiga – Bag'lon, Qunduz, Taxor va Badaxshon viloyatlari kiradi. Tarixiy ma'lumotlardan ma'lumki, Shimoliy Afg'oniston hududida qadimgi tosh asridan buyon Qora Kamar darasi hududida insoniyat ajdodlari yashab kelgan. Bu hududlar qadimdan insoniyat taraqqiyot o'choqlaridan biri sifatida yuzaga kelgan. Sovet hukumatining zo'ravonlik siyosatidan jabr ko'rgan va muhojirlikka mahkum etilgan o'zbeklar ikkinchi vatan sifatida avvalo Sharq mamlakatlarini tanladilar. Afg'oniston, Xitoy, Eron kabi mamlakatlar muhojir o'zbeklarning ilk yashagan davlatlari bo'lib, yer yuziga ular ushbu hududlardan tarqalgan. O'zbek diasporasining ushbu davlatlarda vujudga kelishi quyidagi omillar bilan bog'liq: ular chegaradosh va qo'shni davlatlar bo'lib, turkiyzabon xalqlar bilan qadim zamonlardan buyon iqtisodiy, savdo-sotiq, elchilik hamda madaniy aloqalarda bo'lishgan. Afg'oniston va Sharqiy Turkistonda yashagan xalqlar o'zbeklar singari asosan islom dinining sunniy mazhabiga e'tiqod qiladilar. Ushbu xalqlarning milliy urf-odatlar va an'analari, tabiiy sharoiti bir-biriga yaqindir. Yana bir omil Turkiston-Afg'oniston, Turkiston-Xitoy chegaralari uzoq masofalarga cho'zilganligi va o'sha paytlarda mazkur chegaralarning bo'sh qo'riqlanganligidir.

Ayniqsa, turkman sahrolari va Amudaryo sohillari bo'ylab cho'zilib ketgan afg'on chegarasini o'sha davrlarda qat'iy nazorat qilish imkoni yo'q edi.³ Amudaryoning sayoz, kechuvga qulay o'zanlari himoyasidan o'ta oladigan qalin

¹ N. Abdulxakimova. Muhojir o'zbeklar qismati tarixidan. Sherobod gazetasi. 04.12. 2015-y.

² Balx Universiteti professori, tibbiyot fanlari doktori Abdulla Darmonning guvohlik berishicha Afg'onistonda turkiy xalqlar 8mln ni tashkil etib, shundan 5,5mln o'zbeklardir (2010-yi hisobida)

³ Ergashev. J.YU. Shimoliy Afg'oniston o'zbekalari: tarix va hozirgi zamon. (Magistrlik dissertatsiya) BDU. Buxoro. 12-13b

to‘qayzorlaridan foydalanib o‘n minglab o‘zbeklar qo‘shni Afg‘oniston davlati sarhadlariga o‘tib ketganlar. Demak, bu o‘rinda nafaqat geosiyosiy, qolaversa tabiiy omilni ham hisobga olish kerak. Afg‘onistonning shimoliy hududlarida o‘zbek va turkmanlar istiqomat qilib kelganligi bilan bog‘liq tarixiy omilni ham qayd qilish zarur. Yuz minglab turkmanlarning Eron Xurosoniga o‘tishi ko‘p jihatdan tarixiy omilga bog‘liq. Muhojir o‘zbeklar asosan Sharq mamlakatlarida istiqomat qilishlariga sabab bo‘lgan yana bir omil ushbu davlatlardagi hukumatlarining ularga bo‘lgan munosabati bilan bir qadar bog‘liqdir. Sharqona axloq qoidalaridan kelib chiqqan ayrim hukumat rahbarlari muhojir o‘zbeklarga yumshoqroq munosabatda bo‘ldilar.

Afg‘onistonda XX asr 20- yillarida bir qator o‘zbek muhojirlari uchun nafaqalar belgilangan. Muhojir o‘zbeklarning ba‘zilari sarmoyalari hisobiga dehqonchilik qilish uchun yer, chorva mollarini boqish uchun esa yaylovlarni sotib olishgan. Turkiston muhojirlari qo‘shni afg‘onlarga gilam to‘qishni o‘rgatib, Shimoliy Afg‘onistonda qorako‘lchilikni taraqqiy qildirishda muhim rol o‘ynagan. Hatto Qunduz (Afg‘oniston) shahrida ular o‘zlarining “Spinzar” (Oq oltin) nomli paxta yetishtirish va sotish ishlarini bajaradigan birlashmalariga asos solganlar. Afg‘oniston va Sharqiy Turkistonga o‘tib olish uchun vatandoshlarimiz ozmuncha mashaqqat chekishmagan. O‘ttiz sakkiz kunlik chaqaloqlik paytida ota-bobolari yurti Marg‘ilonni (Farg‘ona viloyati) tark etgan muhojir o‘zbek Sobir Sayhonlining xotirlashicha, “Biz (muxojir) o‘n bir kun yo‘l yurib, ming mashaqqatlar bilan turkman cho‘llari orqali Amudaryo sohiliga yetib keldik. Uch kun davomida qo‘shni davlat: Afg‘onistonga o‘tkazib qo‘yishga va‘da bergan turkman yo‘lboshchilarini kutib yashirinib yotdik, salkam yarim oy davomida azob-uqubatlar bilan Afg‘onistonga o‘tib oldik”.⁴ Shuningdek, AQShlik muhojir o‘zbek G‘iyosiddin Nasafiy va uning oilasi 1931- yilda Kasbi qishlog‘idan (Qashqadaryo viloyati) chiqishib, o‘n yetti kun yo‘l yurib Amudaryo sohillariga yetib kelishgan. Ularni ko‘manchi turkmanlar katta miqdordagi pul to‘lovi evaziga Afg‘onistonning Andxo‘y shahriga o‘tkazib qo‘yishgan.⁵

Birgina Amir Olimxon 1921-yil 4-martda Sharqiy Buxoroning Ko‘lob viloyati hududiga qarashli Vaxsh daryosining Chubek irmog‘idan yuz minglab kishilarni Afg‘onistonga o‘zi bilan ergashtirib o‘tgan.⁶ Amir Olimxon Rustoq, Qatag‘on yo‘nalishi orqali Kobulga yetib keladi. U bilan birga chegaradan o‘tgan minglab o‘zbek, tojik, turkmanlar Afg‘onistonning Balx, Mozori Sharif, Jurjon, Faryob, Samangan, Xonabod, Qunduz, Tohar, Badaxshon, Kobul, Qandahor, Hirot, Paktiyo, Nangarhor viloyatlari va shaharlari bo‘ylab tarqalib ketadilar.⁷

⁴ O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. 1992-yil 15-may; Sobir Sayhonli. Adashganlar qismati(qissa). - T. Cho‘lpon. 1995. –B -47-49.

⁵ Abdulla M. Oltmish yillar so‘ng //O‘zbek adabiyoti va san‘ati. 1992 yil 7 avgust.

⁶ Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasratli tarixi. -T:Fan, 1991. –B.17

⁷ Абдуллаев К.Н. Из истории Бухарской послереволюционной эмиграции (к историографии проблемы) Общественные науки в Узбекистане. 1990 . 04. С-50

Amir Olimxon va uning hamroxlari avval Husayn Kavt va Hoshimxon, bir yildan so'ng esa Murodbegi qal'asi bog'ida yashaydilar. Afg'oniston poytaxti Kobuldan 11 km uzoqlikda joylashgan Fauh bog'i amirning so'nggi qarorgohi bo'lgan.⁸ 1923-yilning yozida BXSР hukumatining qarori bilan amir Said Olimxonning onalari To'raoyim, Shamsiyaoyim, To'tioyim, qizlari Hosiyatxon, Saodatoy, zavjalari Muharramoyim, Musharrafoyim, Muborakoyim, Xursandoyim, amakilari Muhammad Siddiq Muzaffarxon o'g'li, Mir Nosir Muzaffarxon o'g'li, Mir Abdul Azimxon Muzaffarxon o'g'li, singlisi Shohoy, tuqqan onasi Davlat Baxt va boshqa yaqin qarindoshlari o'z ixtiyoriga ko'ra Afg'onistonga yuborildi.⁹

Amir Olimxon sovet hokimiyatining talabi bilan uy qamog'ida saqlangan, ayniqsa, "Yosh afg'onlar" hukumati davrida afg'on-sovet munosabatlari va o'zaro diplomatik aloqalar yaxshi bo'lganligi uchun amir Fatuh qal'asidan chiqqan taqdirda ham Kobuldan 11 km uzoqlikdagimasofaga borishi mumkin emasdi. Yoz va qish fasllarida u Pag'mon yoki Jalolobodga bormoqchi bo'lsa, avval bu to'g'rida afg'on hukumatini ogoh qilib ruxsat olardi.¹⁰ Xatto, Afg'oniston mustaqillik bayrami Pag'monda o'tkazilganida (1923-yi) milliy kiyimda tashrif buyurgan amir ichkariga qo'yilmagan edi. Dastlab amir Olimxon afg'on hukumatidan 11 ming rupiy miqdorida nafaqa olgan. 1925-yil o'rtalarida amir Afg'oniston hukumatidan 14 ming rupiy maosh olib turardi.¹¹ 1918-1922-yillarda "bosmachi" yo'l boshchilari bilan Afg'oniston chegarasidan o'tgan 1 million atrofidagi turkistonliklar ushbu mamlakat hududlari bo'ylab tarqalib ketdilar.¹² Farg'ona vodiysidan besh yillik urushdan so'ng aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammedbeklar 1923-yilning boshida Afg'onistonga o'tib ketishdi. 1923-yilning yozida Nurmuhammadbekning Farg'onaga o'tib harbiy harakatlardagi ishtiroki muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so'ng, aka-ukalar umrbod muhojirlikda yashashdi.¹³

Afg'oniston hukumati Shermuhammadbek va Nurmuhammadbeklarga siyosiy boshpana berdi. Ba'zi ma'lumotlarda Shermuhammadbek 1923-yil oktyabrda 140 kishilik askari bilan Peshovar (Hindiston) ga ketganligi qayd qilinadi. U Hindistondagi Angliya hukumati vakillari bilan muzokalar olib borishga harakat qiladi. Biroq Angliya hukumati unga yordam berishni istamadi. 1924-yil 17-martda Afg'onistonga qaytgan Shermuhammadbekga afg'on hukumati tomonidan 500 afg'on rupiyasi miqdorida nafaqa belgilanadi.¹⁴ 1930-yillar boshida Shermuhammadbek va

⁸ Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro-Turkiston beshigi. –Buxoro, 2004.-B.86-89

⁹ Rajabov Q. Yurt diydoriga talpinib//O'zbekiston ovozi. 1996 yil 15 avgust.

¹⁰ Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro-Turkiston beshigi.- Buxoro. 2004 yil. –B.91

¹¹ Бойко. В.С. Среднеазиатская эмиграции в Афганистане в 20-е , начело 30-х годов XX века.// О'zbekiston tarixi.2004. 03. B-26.

¹² Prof Dr Ahat Andrican Turkiston mucadelesi. –S. 191.

¹³ Rajabov Q. G'olib armiyaning qora ishlari. // Sharq yulduzi, 1998, №6, -B. 168

¹⁴ Абдуллаев К.Н. Из истории Бухарской послереволюционной эмиграции (к истографии проблемы) Общественные науки в Узбекистане. 1990 . 04. С-54

Nurmuhammadbeklar Kobul atrofidagi shaharlardan biri Chorikor yaqinida yer olib dehqonchilik qilishgan. 1930-yillarda turkistonlik muhojirlarga afg'on hukumatining talabi va tazyiqi bilan mislsiz jabr-zulm o'tkazildi. Afg'oniston shohi Nodirshoh hukumronligi davrida (1929-1933 yillar) berilgan ayrim imtiyozlar, ya'ni sobiq qo'rboshilarni taqib qilmaslik, yer olish huquqi va uch yilgacha soliqlardan ozod qilish, yashash joyini erkin tanlash kabilar tezda bekor qilindi. 1930-1939-yillarda afg'on hukumati buyrug'i bilan muhojir o'zbeklarning katta qismi Afg'onistonning yashash sharoiti og'ir bo'lgan, o'ta issiq, tinimsiz garmsel esib turadigan ichimlik suvi muammo hisoblangan markazi Lashkargoh bo'lgan Helmand viloyatiga ko'chirildi. Helmanddagi issiq 50-70 darajagacha bo'lib, ko'plab kishilarni nobud bo'lishiga, ayniqsa keksalar va bolalar ochlik va turli kasalliklardan o'lib ketishiga sabab bo'lgan.¹⁵

XX asrning 70-yillarida oxiri va 80-yillarining boshlarida Afg'onistonda 1,5 million, Turkiyada 20 ming, Pokiston va Hindistonda 6 ming, Suriya va Misr Arab Respublikasida 37 ming, AQSh da 2 mingdan ortiq o'zbek, hamda uncha katta bo'lmagan o'zbek jamoalari Germaniya, Italiya, Fransiya, Avstriya, Daniya va Gollandiyada istiqomat qilishi qayd etiladi. ¹⁶“Komsomley Uzbekistana” ro'znomasi xabaricha: “aniq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra xorijda 3 millionga yaqin o'zbeklar yashaydilar ulardan 2 millioni o'zbekistonlik o'zbeklardir”.¹⁷“Vatan” jamiyat raisining sobiq muovini ma'lumotiga ko'ra, xorijlik o'zbeklar soni 3 million kishi atrofida. Xorijda yashovchi o'zbeklarning hozirgi zamon etnik madaniy jarayonlari mavzusida maxsus tadqiqot olib borgan faylasuf olim X. Sanoqulov “hozirgi vaqtda Afg'oniston, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Eron, Turkiya, AQSh, Hindistonda 5milliondan ortiq o'zbeklar yashamoqda”¹⁸ - deb ma'lumot beradi.

Sharqshunos olim H. Hoshimbekov xorij olimlarining ma'lumotlariga tayanib Shimoliy Afg'onistonda 1921- yilda 800 ming, 1960- yilda 1,2million, 1986- yilda 1,5 -1,6 million atrofida o'zbeklar yashaganligi bilan bog'liq raqamlarni keltiradi. Yuqoridagi raqamlar Afg'onistonning Maymana, Mozori Sharif, Balx, Shibirg'on, Xonobod, Qunduz, Toshqo'rg'on, Mukri viloyatlaridagi o'zbeklarga tegishlidir.¹⁹

Demak, muhojir o'zbeklarning umumiy soni yuqoridagi ma'lumotlarda turlicha berilib, bir-biridan farq qiluvchi raqamlarda ifodalangan. Respublika tarixchi olimlarining asarlarida ham 1917-1930-yillarda muhojirlikka mahkum etilgan o'zbeklar soni bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan. “1917-1934-yillarda xorijga o'tib

¹⁵Orif Usmon. Bodi sabolardan kutilgan mujda. // Muloqot. 1991. №8. –B. 55-59

¹⁶Xoshimbekov. X. Узбеки северного Авганистана. –M.1994. –S.12-13

¹⁷ShamsutdinovR. Qishloqfojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun (O'rtaOsiyo respublikalari misolida) –T : Sharq. 2003. – b.328

¹⁸ Rajabov Q. Xaydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 y). T. 2002.-B.40

¹⁹ Rahimboboyeva Z. Vatan, vatanparvar, vatanjudo. // Xalq so'zi. 1991 yil 17 yanvar.

yuksak darajasini ta'minlab turish psixolog-maslahatchining majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilmiy tajribalarga to'la javob bermaydigan, yetarlicha sinovdan o'tmagan psixologik metodlar va tavsiyalarni qo'llashga majbur bo'lganida psixolog-maslahatchi bu haqida o'z mijozlarini ogohlantirishi va o'z xulosalarida juda ehtiyot bo'lishi kerak. Psixolog-maslahatchi o'z mijozni to'g'risida ma'lumotni oshkor qilishga yoki maslahatlar natijasi to'g'risida ma'lumotni uchinchi shaxsga aytishga haqqi yo'q. Psixolog-maslahatchi huquqi bo'lmagan, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan shaxslarning psixologik maslahatlar va psixologik ta'sir ko'rsatish metodlaridan foydalanishlariga to'sqinlik qilishi hamda shunday «mutaxassislarning» xizmatlaridan foydalanayotganlarni bu haqda ogohlantirishi kerak. Psixolog-maslahatchi huquqi bo'lmagan odamlarga mijozlar bilan psixologik ishlar metodlarini o'rgatishi mumkin emas. Psixolog-maslahatchi mijoz tomonidan noqinonlik va umid yuzaga keltirmaslik uchun, ehtiyot bo'lishi kerak, unga bajarib bo'lmaydigan va'dalar, maslahatlar va tavsiyalar bermasligi kerak. Psixolog-maslahatchi mijozlarga taalluqli axborotlarni sir saqlash uchun shaxsiy javobgarlikni bo'yniga oladi. Odob normalariga amal qilish psixolog-maslahatchi amaliy ishida majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari kasbiy tayyorlangan yaxshi psixolog-maslahatchining kasbiy tola tayyorlanmagan psixolog-maslahatchidan ajratib turadigan yana bir qator muhim farqlar bor. Bu farq psixolog-maslahatchining mijozga bo'lgan munosabati, psixologik maslahatlar davomida uchrab turadigan qiyin vaziyatlardan u qanday chiqib olishiga bogliq. Psixolog maslahatchining asosiy qobiliyat va xususiyatlari quyidagilar bo'lishi lozim.

Empatiya - bu psixolog-maslahatchi ega bo'lishi kerak bolgan asosiy shaxsiy sifatidir. Bu sifatda odamning boshqa odamni psixologik his etishga va tushunishga, o'z dunyoqarashini vaqtincha esdan chiqarib uning ko'zi bilan dunyoga qarashga tayyorligidir. Bu sifatni psixolog-maslahatchi butun maslahat berish jarayoni davomida namoyon etadi va shuning hisobiga mijozni yaxshiroq va chuqurroq tushunadi, unga samarali yordam bera oladi.

Ochiqlik — shaxs xislati bo'lib, bir necha ko'rinishlarga ega bo'ladi. Birinchidan, psixolog-maslahatchining shaxssifatida mijoz uchun ochiq bo'lishga tayyorligi (lekin mijoz bilan maslahatchi o'zini almashib va mijoz maslahatchining muammolari to'g'risida bilib olib, uning o'ziga rahmi keladigan, hamdardlik qiladigan darajada emas). Rollarni almashish odatda psixolog-maslahatchi mijozga o'z muammolarini gapira boshlab, unda maslahatchiga yordam berish istagi paydo bolganida sodir bo'ladi. Ochiqlik me'yori mijozning sezgisi bilan belgilanadi: Agarda u psixolog maslahatchini ochiq inson deb hisoblasa va uning oldida ochiqlikdan qoniqsa - demak, maslahatchining mijoz oldidagi ochiqlik masalasida hammasi joyida hisoblanadi. Ikkinchidan, ochiqlik — bu psixolog-maslahatchining mijoz bilan muloqotda faqat o'z ustunliklarini emas, balki imkoniyatlarini va kamchiliklarini mijozga tabiiy namoyon

etib, qanday bo'lsa shundayligicha qolishga intilishidir. Ochiq inson bo'lib psixologmaslahatchi o'zining kamchiliklarini mijozga namoyon etib, uni o'ziga tortish yoki hayron qoldirishni, uning tomonidan hamdardlik yuzaga keltirishni xohlamaydi, balki maslahatchining o'zi ham oddiy tirik odam, barcha kabi ekanligini ko'rsatishni, kamchiliklari ham borligini va maslahat berish jarayonida hayotda unga xos bo'lmagan rolni o'ynashga harakat qilmasligini ko'rsatishga harakat qiladi.

Uchinchidan, ochiqlik maslahatchining mijozga u bilan har qanday masalalarni muhokama etishga tayyorligini ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Empatiya ochiqlikni keltirib chiqaradi, biri ikkinchisiz deyarli mavjud bo'lishi mumkin emas. Maslahatchining mijoz to'g'risida chin ko'ngildan qayg'urishi, psixolog-maslahatchining mijoz to'g'risidagi shaxsiy g'amxo'rliqi ifodasi deb tushuniladi. Bunday g'amxo'rlik ham haddan tashqari bo'lishi kerak emas. Mijozning psixologik holatiga haya jonlanuvchi ta'sir ko'rsatmaslik uchun psixolog-maslahatchi mijoz bilan muloqotda haddan tashqari ta'sirchan odam bo'lmasligi tavsiya etiladi.

Do'stonalik — bu ham maslahatchining muhim psixologik sifati hisoblanadi. Ushbu sifat deyarli yuqorida aytib o'tilgan barcha shaxs xislatlari bilan aloqador bo'lsa ham, u o'zining shaxsiy individual ko'rinishiga ega. Ularga masalan har qanday vaziyatlarda, nima bo'lsa ham va mijoz o'zini qanday tutishiga qaramay psixolog maslahatchining u bilan do'stona muloqot usulini saqlab qolishini bildiradi.

Psixologik maslahat amaliyotida psixolog-maslahatchining mijozga baho bermaslik deb ataluvchi munosabati alohida o'rin egallaydi. Bu nimani anglatishini tushuntirib o'tamiz. Psixolog-maslahatchining mijoz bilan muloqot davomida uning harakatlari va shaxsini to'g'ridan to'g'ri baholamasligi zarur. Uning muammolarini iloji boricha chuqurroq tushunishi va ushbu muammoni hal etishda unga yordam berishdan iborat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Psixologik maslahat va korreksiyaga oid ma'ruzalar.
2. V.M.Karimova, R.Sunnatova. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti. Toshkent «SHarq» 2000
3. Ye.G'oziev, SH.V.Azizova "Tashkiliy psixologiya" Toshkent-1999y.
4. M.Rajabov "Eksperimental psixologiya metodlari to'plami". Farg'ona 2012
5. Shevandrin N.I. Psixodiagnostika, korreksiya i razvitie lichnosti. – M.:

**THE MOST EFFECTIVE CLASSROOM ACTIVITIES TO ORGANIZE
SPEAKING LESSONS**

Khusomiddinov Boboyor Nurmat o'g'li

*Teacher, English philology,
UZBEK STATE UNIVERSITY OF
WORLD LANGUAGES, TASHKENT,
REPUBLIC OF UZBEKISTAN*

Abstract: As everyone knows, speaking is considered as the most challenging aspect to develop, it is not only a difficult job to improve for students but also it is a bit problematic to conduct speaking lessons for most teachers. Taking into consideration of speaking related issues, this article has been decided to be written. In this article, some of the most advantageous activities and games can be found and used by individually or as a group. Almost all of them have already been experienced during the lessons and got the attention of different level students. These games can help to make lessons spice.

Keywords: classroom activities, games, interactive games, speaking, developing speaking skills, role play, debate, story telling, discussion, presentation, black hole, utopia.

Speaking is an essential part of language learning, but it can be challenging for many students. Classroom activities that encourage speaking can help students build confidence and improve their communication skills. In this article, we will discuss the best classroom activities to improve speaking and back them up with citations. Here one can find out the most common ways of conducting speaking lessons.

1. Role Play

Role play is an excellent activity for improving speaking skills because it allows students to practice real-life situations. According to a study published in the Journal of Language Teaching and Research, role play can improve students' communicative competence and language proficiency (Zhang & Li, 2013). Teachers can provide students with scenarios and roles to play, or they can let students create their own scenarios.

2. Debate

Debate is another excellent activity for improving speaking skills because it encourages students to express their opinions and defend their arguments. According to a study published in the Journal of Language Teaching and Research, debate can improve students' critical thinking skills and language proficiency (Jiang & Zhang, 2014). Teachers can provide students with topics to debate or let them choose their own topics.

3. Storytelling

Storytelling is a fun and interactive activity that encourages students to use their imagination and creativity. According to a study published in the Journal of Language Teaching and Research, storytelling can improve students' oral proficiency and vocabulary acquisition (Li & Zhao, 2014). Teachers can provide students with prompts or let them create their own stories.

4. Discussion

Discussion is a simple yet effective activity for improving speaking skills because it allows students to express their thoughts and ideas. According to a study published in the Journal of Language Teaching and Research, discussion can improve students' oral proficiency and communication skills (Wu & Li, 2014). Teachers can provide students with topics or let them choose their own topics.

5. Presentation

Presentation is a challenging activity for improving speaking skills because it requires students to organize their thoughts and present them in front of an audience. According to a study published in the Journal of Language Teaching and Research, presentation can improve students' oral proficiency and public speaking skills (Zhang & Li, 2014). Teachers can provide students with topics or let them choose their own topics.

Apart from these ways, coming from my own experience I strongly suggest following activities. The first is reflection, it is for intermediate level students. In this game, a teacher should divide the class into two big groups and plays two different short award winning videos. After the first group watched the video, the second starts watching the second. Finally, the former group should describe the whole video to the latter. At the end, the whole class watch the videos one more time and give feedback one another.

“Utopia” is also an interesting game for most students whose level is pre inter and intermediate. This activity also requires teachers to divide the group into several groups so that students can work collaboratively and communicate actively in their L2. In this game, students are asked to dream and create their own utopian country and talk about its structures by dividing their speeches.

In conclusion, classroom activities that encourage speaking can help students build confidence and improve their communication skills. Role play, debate, storytelling, discussion, and presentation are some of the best activities for improving speaking skills. These activities have been proven to be effective tools for improving students' communicative competence, critical thinking skills, oral proficiency, and public speaking skills.

References:

1. Jiang, H., & Zhang, H. (2014). The effects of debate on EFL learners' critical thinking and language proficiency. *Journal of Language Teaching and Research*, 5(3), 580-586.

2. Li, Y., & Zhao, Y. (2014). Storytelling as a tool for teaching English to young learners. *Journal of Language Teaching and Research*, 5(2), 390-396.
3. Wu, Y., & Li, X. (2014). The effects of discussion on EFL learners' oral proficiency and communication skills. *Journal of Language Teaching and Research*, 5(6), 1389-1395.
4. Zhang, J., & Li, X. (2013). The effects of role play on EFL learners' communicative competence and language proficiency. *Journal of Language Teaching and Research*, 4(3), 522-528.
5. Zhang, H., & Li, X. (2014). The effects of presentation on EFL learners' oral proficiency and public speaking skills. *Journal of Language Teaching and Research*, 5(1), 47-53.

USTRUSHONA AHOLISINING DAFN AN'ANA VA MAROSIMLARI

*Jizzax davlat pedagogika
universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi
Tugalov Boburjon Baxodir o'g'li*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ustrushona aholisining dafn an'ana va marosimlari haqida yozma arxeologik manbalarga tayangan holda ma'lumotlar berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Ustrushona, dafn etish, ma'rosim, tosh quti, tosh dahma, katakomba, Shirinsoy mozor-qo'rg'onlari.

Dafn etish bilan bog'liq urf-odatlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, arxeologik ma'lumotlarga ko'ra u paleolit davridan buyon ma'lum. O'rta paleolit davrida yashagan neandartal odami ham qabrga, ma'lum rasm-rusumlar bajarilganidan so'ng dafn etilgan. Qadimgi aholi orasida ruhlarga, turli xil jonli va jonsiz narsalarga ishonish va ularni ilohiylashtirib, sig'inish keng yoyilgan. Ayniqsa, ajdodlar, barcha o'tganlar ruhiga hurmat nihoyatda baland bo'lgan. Bu hurmat belgisi dafn marosimlarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Ular "narigi dunyo" borligiga ishonib, o'z yaqinlarini so'ngi manzilga kuzatish tadbiriga alohida tayyorgarlik ko'rganlar va uni o'ziga xos qonuniyatlarga asoslangan tartib qoidalar asosida o'tkazganlar.

Ustrushonada vafot etgan kishini narigi dunyodagi abadiy "hayot" ga kuzatishda, unga yaxshi sharoitga ega "uy" tayyorlab, turli xil amallar bilan poklab, tirikligida shug'ullangan kasb kori bilan bog'liq buyumlarni birga qo'shib dafn etishgan. Shuningdek ushbu marosimda, hayotiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan va keyinchalik ilohiylashtirilgan jonivorlar, yoki ularning ba'zi a'zolari (ba'zan ramzlari)ni qo'shib dafn etish ham keng yoyilganligini ko'rsatmoqda. Ushbu dafn udumlari qadimgi aholining o'tganlar ruhiga nisbatan hurmat ko'rsatish bilan bog'liq marosimlarni keng qo'llaganligini ko'rsatadi.[1]

Qadimgi kishilarning dafn marosimlarida asosiy vazifa, dafn inshootlari (go'r tuzilishlari), dafn etish usullari (ko'mish, kuydirish va b.) va marhum bilan birga qo'yiladigan buyumlarga qaratilgan. Bu marosimda, avvalo, marhumga narigi dunyoda yashashi uchun qulay sharoit yaratish, ruhi va tanasini poklash hamda zaruriy buyum va oziq ovqatlarini qulay qilib joylashtirish muhim bo'lgan.[2] Ayni paytda marhum ruhidan qo'rqish va uning "o'liklar mamlakati"dan qaytmasligi chorasi ham qo'llanganiki, buning uchun olovli to'siq yasash, yoki uning ramziy ifodalarini qo'llash va qabrni turli xil usullarda qazish va ustini shu yerdagi tuproq (yoki shag'al) dan baland qilib (qo'rg'on) ko'tarish kabi amallar bajarilgan. Ustrushonadagi dafn

marosimlari ham ana shunday ma'lum qonuniyatlar va bosqichlar asosida kechganligi aniqlangan.

Ustrushonada shu paytgacha dafn etishning tuproq (turli xil shakldagi qabrlar, yer usti qabr inshootlari – tosh quti, tosh dahma va h...) ga qo'yish, marhum suyaklarini maxsus idish (xum va ostadon)larda dafn etish, oilaviy sag'analar ko'rinishlari o'rganilgan.[3] Ustrushona qabrlarida marhumlarni, yakka, juft va ba'zan guruh tarzda, asosan uzala yotqizib yoki g'ujanak holda dafn etish an'anasi bo'lgan.

Ustrushona qabrlaridagi dafn odatlari va etnografik ma'lumotlardan aholi orasida ruh va jonning yashashi haqidagi qarashlar keng yoyilganligi kuzatiladi. Unga ko'ra o'limdan keyin hayot davom etishi insonlar ongida mujassamlashgan. Shuning uchun dafn marosimlar bekami ko'st o'tkazilgan, jasad bilan birga turli xil buyumlar qo'yish an'anasi keng yoyilgan. Ularning asosiy qismini sopol idishlar, metallardan ishlangan qurollar, uy ro'zg'or va zeb ziynat buyumlari tashkil etadi. Qabrga qo'yilgan buyumlar nisbatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda sopol idishlar qo'yish eng ko'p uchraydi. Bu uy ro'zg'or buyumlari orasida sopol idishlarning ko'p ishlatilganligi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Dafn inshootlari yonbag'ir yo'nalishidan kelib chiqqan holda bo'lsa-da, bosh yo'nalishlarining turli-tumanligi xronologik yoki etnik masalalarga bog'liqlikni ishorasi bo'lishi mumkin. Dafn inshootlarining yo'nalishi hududning topografik xususiyatlariga xosligi holati esa Kenko'l madaniyati uchun xarakterlidir.[4] Marhumni xonaga joylashtirgandan so'ng, kirish joyi turli hajmdagi toshlar bilan yopilgan va dromos, aftidan, ilgari qazib olingan tuproq bilan qayta ko'milgan.

Katakomba qabrlarining "Kenko'l" tipida marhumlar asosan qabr poliga qum, qamish bo'yra, namat, yog'och doskali to'shamalar ustiga qo'yilib, dafn etilgan. Ular asosan chalqancha yotqizilib, oyoq-qo'llarining holati yozilgan yoki turli xil o'zgarishlar bilan qo'yilgan.

Qabrlardagi kulolchilik idishlari asosan, jasad bosh tomoni va yoniga qo'yilgan bo'lib, ularning asosiy qismini ko'proq ko'chmanchilar dashtlarida uchraydigan, qo'lda yasalgan sopol idishlar tashkil etadi. Ular orasida isiriqdondan alohida ahamiyatga ega, bu idishlar G'ulboning birinchi mozorqo'rg'oni va Sayxonsoyda qayd qilingan. G'ulbodagi isiriqdon o'rnida ishlatilgan idish, sopol xurmachadan yasalgan. Ya'ni u, butun holatdagi, qo'lda yasalgan va o'rtacha pishirilgan xurmachani tig'li asbob bilan urish natijasida, uzunasiga teng ikkiga bo'lib olingan. Xurmachani bu yarim bo'lagi isiriqdon vazifasini o'tagan. U jasadning oyoq tomoniga 40 x 50 o'lchamidagi, balandligi 40 sm bo'lgan supacha ustiga qo'yilgan.

Sayxonsoy va qabrlarida o'rganilgan isiriqdon ichiga solib qo'yilgan sopol qutichalar alohida ahamiyatga ega. Birinchi sopol quticha G'ulboda o'rganilgan qozonning ichiga joylashtirilgan. Sopol quticha qo'lda, kulrang loydan mayda qum qo'shib yasalgan. Qutichaning bo'yi 7 sm gardish diametri 4,5 sm tagdoni 4,5 x 6 sm.

Quticha to‘g‘ri burchakli shaklga ega bo‘lib, barcha to‘rt tomondan diametri 0,5 sm teshikchalar qilingan.[5] Idishchani ichki qismini qalin dud qoplagan. Qutichani yerga emas, balki qozon ichiga joylashtirilishi ma‘lum bir udum bilan bog‘liqdir. Sayxonsoy qabridagi isiriqdon ichiga joylab qo‘yilgan imitativ sopol idishcha qo‘lbola uslubda yasalgan. Kulrang tusda. Shakli to‘rtburchak bo‘lib, bo‘yi 7 sm gardish tomonlari 4,5x4,5 sm. To‘rt tarafida ikkitadan, jami 8 ta teshik bor. Yelka qismida to‘rttala burchagida bittadan jami to‘rtta teshik qo‘yilgan. Idishchada jami 12 teshikcha mavjud. Har ikkala qabristonda ham idishcha bir xil holada yerga emas, qozonning ichiga joylashtirilgan. Bu topilmalarni o‘rgangan tadqiqotchilar qutichani barcha tomonidan teshikchalar qilinishi va yerga emas, balki qozon ichiga joylashtirilishi uni “marhum ruhini kelib ketib turishi bilan bog‘liq tasavvurlar asosida qo‘yilgan” degan fikrga kelgan.[6]

Buxoro vohasida o‘rganilgan sag‘analarda maxsus tuynukchalar bo‘lib, qadimgi odamlarning tasavvuriga ko‘ra, ular orqali ruhlarning kirib-chiqishi ta‘minlangan. Qozoq xalqida ham qabrlarga tuynuklar qo‘yishi odati mavjud bo‘lib, bu teshiklar ruhlarni atrof dunyo bilan aloqa qilishini ta‘minlagan. Xorazm vohasida sag‘ana shaklidagi qabrlarda tuynuklari bo‘lib, ushbu tuynuklar havo almashinib turishi va marhum ruhining kelib ketib turishi uchun qo‘yilgan.[7] Yuqoridagilarga tayanib tadqiqotchilar ushbu odatni vafot etgan kishining ruhi bilan bog‘liq bo‘lib, u orqali marhum ruhi narigi olam bilan muloqotda bo‘lgan, degan fikrga kelgan.

Yuqoridagi paragraflarda ko‘rib o‘tganimizdek, Qadimgi Ustrushonada xum va ostadonlarga dafn etish ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rinadi. M.H. Pardayev va J.I. G‘ofurov tomonidan o‘rganilgan Tepa Mulkush ostadonlarida qubbali shakldagilar ko‘pchilikni tashkil etadi.[8] Bu qabr va o‘tovning ramziy ifodasi bo‘lsa kerak. Ostadonlarga qo‘yilgan teshikchalar ham ruxning odamlar bilan muloqotiga muljallab qo‘yilgan bo‘lsa kerak.

Ustrushona mozorqo‘rg‘onlarida (Shirinsoydagi 1-qabrda) marhum bilan birga tanga (xitoy jez tangasi) solib dafn etish holati qayd qilingan. Bu tanganing yuza tomonida markazdagi teshikdan o‘ngda Rim raqami V ga o‘xshash u-shu tipidagi tangalarni eslatuvchi ”u” iyeroglifi aks etgan. Shunday qilib marhum yoniga faqat daryodan o‘tish haqi emas, balki yo‘lda ovqat sotib olishi yoki narigi dunyoda o‘tishda yaxshi munosabatga erishishi uchun ham tanga solingan. Demak, Ustrushonada ham bu odat maxalliy ildizlarga ega bulgan. Farg‘ona vodiysidagi yodgorliklarda ham Shirinsoydagiga o‘xshash u-shu tipidagi tangalar ko‘plab o‘rganilgan [9], jumladan Farg‘ona vodiysidagi Munchoqtepada sag‘analarga tanga-chaqa ko‘shib dafn etish ikki marta (3 va 9-sag‘analar) kuzatilgan.[10]

Ustrushona mozorqo‘rg‘onlarida marhumni zeb-ziynat buyumlari bilan ko‘mish urf odati kuchli bo‘lganligi seziladi. Dafn buyumlari orasida munchoqlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shirinsoy mozor-qo‘rg‘onlaridan ko‘plab turli xil shakldagi munchoqlar

va bezak buyumlari qayd qilingan. Ular sirtiga zarhal berilgan, oq shishasimon va yashil yaltiroq rangdagi, kubsimon, bikonik va yassi yapaloq, sharchasimon shaklda bo'lgan. Ustrushona mozor-qo'rg'onlarida jami olti dona uzuklar qayd qilingan bo'lib, ular Shirinsoy, G'ulbo va Bekkeldi va Zomin tog' o'rmon xo'jaligi hududida ochilgan qabrda (bir dona) o'rganilgan.[11] Uzuklarning, Ustrushonadagi mozor-qo'rg'onlarda ko'plab uchrashi zeb-ziynat buyumlarida ularning o'ziga xos o'ringa ega bo'lganligi ko'rsatadi. Ustrushonaliklar qabrlarida ko'zgularning ko'plab uchrashi ularning dafn marosimlarida alohida ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi. Kurkat dahmalari, Sag'anoq, Bekkeldi, Sayxonsoy, Zomin tumani Birlashgan qishlog'ida va Zomin tog' o'rmon xo'jaligi hududidagi qabrlarda va Xontepa yodgorligidan ham ko'zgularni o'rganilgan.[12] Shunday qilib, dafn marosimida marhum bilan birga qabrga qo'yilgan buyumlardan ustrushonaliklarning dafn marosimlarida ularning alohida ahamiyat kasb etganligi seziladi.

Sag'anoq mozorqo'rg'onlarida qurbonlik qilinayotganda hayvon suyaklarini yoqish qayd qilingan. Boshqa yodgorliklardan farqli ravishda G'ulbo mozorqo'rg'onlarining deyarli barchasida (birinchi mozorqo'rg'ondan tashqari) vafot etgan kishilarni yog'och yoki qamish to'shamaga yotqizib, ba'zan marhum ustiga ham yog'och taxlab yoki qamishga o'rab turli darajada (to'liq yoki qisman) yoqish odatlari kuzatildi.[13] Ba'zi jasadlarning suyaklari kuchli kuygan bo'lib, bu ularning saqlanishiga yomon ta'sir ko'rsatgan. Barcha jasadlar tagida kul qoldiqlari bor. Yong'in izlari hatto mozorqo'rg'on tuproq uyumi (nasip)da ham o'z izini qoldirgan.[14] Bunday, jasadlarni yoqish holati, Ustrushonaning Xo'jand viloyatidagi Xo'jai Sof qishlog'ida o'rganilgan antik davrga oid, ashyolarga boy lahadli qabrlarda ham kuzatilgan.[15] Ushbu ma'lumotlar Ustrushonada marhumlarni dafn marosimida yoqish ancha keng yoyilganligini ko'rsatadi.

Ularni Bo'ston VI qabristonining bir chetiga ko'milganligi qayd qilinadi. Bu qabrlarning ahamiyatli jihati shundaki, krematsiyali qabrlar tuzilishi xuddi Sopolli madaniyatiga xos ayvonli lahad tuzilishida bo'lib, ulardan topilgan sopollar tarkibi ham aynan Mo'lali va Bo'ston sopol buyumlaridan iborat.

Qabrlarda jasadlarni nafaqat yoqish, balki uning ramziy ifodasi ham kuzatiladi. Masalan, G'ulbodagi to'rtinchi mozorqo'rg'on tuproq uyumi orasidan har xil o'lchamli oq toshlar ayvon ichidagi tuproq orasida esa yonib jigarrang tusga kirgan va atayin tashlangan ko'plab kesakchalar qayd qilingandi. Bu kabi holatlar Ustrushona aholisida boshqa chorvador qabilalarda bo'lgani kabi olov timsolini ifodalovchi udumlar ham keng yoyilganligini ko'rsatadi. O.Mamirov tomonidan Ustrushonadagi Eski Xovos yodgorligida olib borilgan arxeologik qazuv ishlarida shu yerdagi istiqomat qilgan axoli topinish udumlari bilan bog'liq qurilmalar ham aniqlandi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "Bu yerda ochilgan o'choqlardan ikkitasi olovga topinish maqsadida bunyod etilgan va ulardagi old qismi sharqqa qaratilgan qo'sh o'choqlardan, diniy

marosimlarda foydalanilgan”. [16] Ustrushonada bunga o‘xshash o‘choq qoldiqlari ko‘plab o‘rganilgan bo‘lib, bu kabi olovga topinish qurilmalari uzoq davrlar mobaynida rivojlanib, aholi ma‘naviy madaniyatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan. Olov kultining tozalash, poklash, himoyalash funksiyalari o‘troq va ko‘chmanchi aholi madaniyatida bir xil tushuncha hosil qilgan. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, barcha hayotiy o‘zgarishlar qatorida olov kultiga sig‘inish ham o‘zgargan. Mozorqo‘rg‘onlardagi olov bilan bog‘liq marosimlar aholining bu dunyodagi yashash tarzining narigi dunyodagi ramziy ko‘rinishi deyish mumkin. Dehqonchilik vohalarida uchraydigan o‘choqlar esa, halq ma‘naviy hayotida oilaning fayzi va farovonligi, xudo bergan ne‘matlarining timsoli sifatida turli tasavvurlarda aks etgan.

Dafn marosimida olovdan foydalanish va marhumni kuydirish jasad ruhini osmonga eltishda uni tozalash va ilohiy ximoya tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Boshqacha so‘z bilan aytganda “jasadni dafn etishda yoqilgan olov, tiriklar va osmonda yashovchi ajdodlar o‘rtasida vositachi vazifasini o‘tagan”. [17] Marhumni dafn etishda uni yoqish antik davrdan ancha oldin O‘rta Osiyoda keng yoyilib ulgurgan. Ustrushonaliklar uchun, olov hatto xudolar uchun ham o‘lmas, olam va abadiylikning birinchi timsoli hisoblangan. Olov vafot etgan kishining ruhini osmon olovi-buyuk xudo –quyoshga yetkazish vositasi hisoblangan. Gerodot massagetlar haqida yozarkan ...“massagetlar ibodat qiladigan yagona tangri-quyoshdir. Undan tutatqidon vazifasida foydanilgan bo‘lsa ajabmas. G‘ulbo yodgorligidagi 1- mozorqo‘rg‘onda esa xurmacha bo‘lagidan tutatqi (isiriq)don sifatida foydalanilgan. Idishda olov, kuya izlari va kuygan o‘simlik qoldiqlari bor. Qabrlarga tutatqidon qo‘yish milodiy I asrga mansub mozorqo‘rg‘onlarda ko‘p uchraydi. [18] Bu amallar xona – “yang uy”ni yovuz kuchlardan tozalash maqsadida-Avestoda ta‘kidlangan “o‘lgan kishi tanasinini yovuzlik qamrab oladi”, degan tasavvurga qarshi qo‘llangan.

Ustrushona aholisi dafn udumlaridagi olov bilan bog‘liq amallar esa avvalo, jasadni “o‘liklar mamlakati”ga yuborishda uning ruhi va tanasini poklash, tabiat hodisalari, jumladan, quyoshga sig‘inish, jasad ruhini va tanasini xudolar yashaydigan muqaddas makonga poklangan holda eltish, bu dunyoda tirik qolganlarga arvohnning qo‘rqinchli, salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun olovdan to‘siq yasash, hamda o‘tganlar ruhiga sig‘inish kabi diniy tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Ustrushonaning tog‘ oldi toshloq hududda joylashgan Ko‘rpa, Qoratepa va Qoratosh I, II mozorqo‘rg‘onlarida kenotaf qabrlar qayd qilingan. Ularda qabr yasalgan, konstruksiya mavjud. Biroq ularga odam dafn etilmagan yoki hayvon suyaklari qo‘yilgan. Bu kabi kenetoflar Shimoliy Baqtriyada yaxshi o‘rganilgan. Ulardan L.T.Pyankova Tigrovaya Balkada 116 ta qo‘rg‘onda arxeologik qazishmalar olib borib, shulardan 82 tasida jasadlar topilgan. Qolganlari kenotaf qabrlar ekanligi aniqlangan.

V.F. Gaydukevich tomonidan o'rganilgan Shirinsoy qabrlarining taxminan 25 % da marhumlarni bukchaytirilgan tarzda dafn etish va o'ziga xos oraliq holat ham mavjud. Shirinsoydagi 26- qabrda murda chalqancha yotqizilgan, lekin uning oyoqlari yig'ilgan. Bu yerda yana bir holat (2 va 13- qabrlarda) jasadni chalqancha yotqizib, tizzalarini tepaga ko'tarib qo'ygan holatda ko'mish ham kuzatiladi. Oraliq holatni ham hisobga olsak 1/3 qismida bukchaytirib dafn etish mavjud.

F.E. Toshboyev tomonidan o'rganilgan Bekkeldi mozorqo'rg'onidagi qabrga bir nafar o'rta yoshlardagi ayol kishi chap yoni bilan (yuzi sharqqa qaratib) to'liq bukchaytirilgan (skorchenni) holda dafn etilgan. Marhumning yotish holati bolaning ona qornida yotish holatiga aynan o'xshash, ya'ni marhum qo'llari tirsagidan yuqoriga bukilgan va ikkala qo'li ham ko'krak usti – iyagini tagiga yig'ilgan. Oyoqlari ham tizzasidan keskin bukilgan. Biroq, har ikkala oyoqlari (tizza va to'pig'iga teng masofada) chopib olingan – kesilgan. Chopib olingan oyoq va barmoq suyaklari tizzaga yaqin joyga jamlab qo'yilgan.[19] G'ulbo (birinchi va to'rtinchi qabrlarida)da esa chalqancha yotqizib dafn etish bilan birgalikda, bukchaytirish alomatlari mavjudligi (poza vsadnika) ham qayd etilgan. Qulpisar 5- mozorqo'rg'on, 1- qabrda yonboshlatib va Qulpisar 1- mozorqo'rg'onida yarim bukchaytirilgan holda dafn etish ham qayd qilingan (3- jadval). G'ulbo mozorqo'rg'onlarida esa chalqancha yotqizib dafn etish bilan birgalikda, bukchaytirish alomatlari mavjudligi (poza vsadnika) ham qayd etilgan. Jelli g'ulli tosh quti qabrlarida esa marhmlar to'liq g'ujanak holda dafn etilgan. Jelli g'uli, Shirinsoy va Bekkeldi qabristonlaridagi kabi, marhumlarni bukchaytirib, oyoqlarni chalishtirib, tizzalarni ko'tarib yoki yon tomonga qiyshaytirib – otliq holat ko'rinishida dafn etish holatlari O'zbekiston hududida ko'p o'rganilgan.

Manbalarda ta'kidlanishicha g'ujanak (skorchenni) holda dafn etish asosan vafot etgan kishi ruhidan qo'rqish va marhumning tiriklarga ziyon yetkazishining oldini olish maqsadida qo'llanilgan. Asli mazmun mohiyatiga ko'ra bir xil ma'noda qo'llanilgan bu kabi odatlar dunyoning ko'p joylarida turlicha xil ko'rinishda bajarilgan. Ushbu holatda to'liq bukchaytirilgan tarzda dafn etish, Shimoliy Baqriyadagi To'pxona mozorqo'rg'oni № 212 qabrda uchraydi.[20] Biz e'tibor qaratayotgan to'liq bukchaytirilgan (skorchenni) holda dafn etish ibtidoiy jamoa tuzumidan buyon qo'llanib kelinadi. V.V. Golmsten bukchaytirilgan holda dafn etish, marhumning tiriklarga ziyon yetkazishining oldini olish uchun qo'llanilgan deb yozadi. S.A.Pletneva bukchaytirilgan holda dafn etish urug' jamoasida paydo bo'lganligi, sinfiy jamiyatda esa u mustaqil bo'lmagan (qaram) lik timsoli bo'lganligini ta'kidlaydi.

Bunday tarzda dafn etish asosan dasht bronza davri Andronovo jamoalariga mansub qabrlarda ko'p kuzatilgan. Sobiq ittifoq davri arxeologik adabiyotlarida Andronovo madaniyati Afanasyev va uning so'ngi bosqichi hisoblangan Okunevsk madaniyatlari ta'sirida vujudga kelgan deyiladi. Bunday xulosaga kelinishiga ushbu

madaniyatning dafn etish, moddiy buyumlar xususiyati va qabr inshootlarining tuzilishidagi umumiy xususiyatlarga ega o'xshashliklari sabab bo'lgan.

O.V. Obelchenkoning fikricha, jasadlarni g'ujanak holda yoki oyoqlari tizzadan yig'ilib ikki tomonga yoyilgan "otliq-chavandoz" va "yarim otliq holat" ko'rinishida dafn etish, o'troq yoki yarim o'troq hayotga o'tgan ko'chmanchilarning qadimiy udumlaridan bo'lib, u marhumni ulug'lash bilan bog'liq bo'lgan.[21] O'sha davr kishilarining tasavvurida otlar narigi dunyoda ham odamlarga hamrohlik qiladi, degan tushuncha mavjud bo'lgan. Chunki, qabrlardagi marhumlarning yotish holati otliq odamning otda ketishiga o'xshab ketadi. Qator tadqiqotchilar o'lgan kishini oyoqlarini yig'ib tizzasini tepaga qilib dafn etishni vaqt o'tishi bilan jasad tizzalari ikki tomonga qulashi natijasida hosil bo'lgan ko'rinish deb baxolashadi. So'ngak qabristoni qabrlarida faqat yakka holda ko'mish odati kuzatiladi. Mayit bilan juda oz miqdorda buyumlar qo'yilgan. Mayitlar qo'l-oyog'i yozilgan holda, chalqancha yotqizilgan. F.E. Toshboyev tomonidan Ustrushona mozorqo'rg'onlari dafn marosimlarida qayd qilingan yana bir holatga e'tibor qaratgan. Bu holat qabrga chuqurchalar kavlab qo'yish hisoblanadi. Ushbu olimning yozishicha, G'ulbodagi uchinchi mozorqo'rg'onida ayvon va lahad tutashgan joyda ikkita bir xil, bir-biridan 17 sm uzoqlikdagi masofada aylana shaklidagi, diametri 6 sm chuqurligi 3,5 sm chuqurchalar bo'lgan. Bu kabi magik udumlar etnograflar tomonidan ilmiy tahlil qilingan.

Elshunos olim A. Ashirov Farg'ona vodiysidagi dafn udumlarida shunga o'xshash holat, ya'ni marhum vafot etgan uyda chuqurchalar qilib qo'yilishi haqida ma'lumot beradi.[22] Tadqiqotchi bu holatni ilmiy o'rganib, bunday odat marhum dafniga uch kun to'lganda jag'i tushadi, yettinchi kundan boshlab shisha boshlaydi, yigirmanchi kundan boshlab maddasi ortadi va qirq kun o'tganda jasad yoriladi degan tasavvurga tayanib, marhum yorilishida azob chekmasin degan maqsadda qo'llanilganligini yozadi. Demak, qabrlardagi bu chuqurchalar marhumning "narigi dunyo"ga ketishida qiynalmasin degan maqsadda qo'llangan. Farg'ona vodiysi xalqlarida uchraydigan yuqoridagi kabi udumlar mohiyatan, qadimgi dafn odatlarida qo'llanilgan (qabrlarga chuqurchalar yasash) udumlarning davrlar mobaynida o'zgarishga uchragan holdagi saqlanib qolgan ko'rinishidir.

O'rganilgan qabrlarda jasad yoniga turli xil buyumlar qatorida hayvon suyaklarinig qo'yish ham kuzatiladi. Bu an'ana birinchidan Qadimgi Ustrushona aholisi orasida turli xildagi rux va jonning yashashi haqidagi qarashlar, totemimizim bilan bog'liq zoolatrik tasavvurlaridan darak beradi. Ikkinchidan, asosiy mashg'uloti va yashash manbaining asosi bo'lgan jonivorlar bilan bog'liq turli xildagi qarashlar keng yoyilganligini ko'rsatadi. Bu esa aholi xo'jaligida chorvachilik muhim o'ri tugaligi va mavjud barcha chorva mollariga nisbatan alohida e'tibor qaratganligi, ularning nasl va mahsuldorligini tinimsiz ravishda oshirib borganligi belgisi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qadimgi Ustrushona aholisining dafn marosimlarida ajdodlarimizning o'sha davrda ham azaliy ma'naviy qadriyatlarga, uni o'rab turgan borliq – ona zamin va tabiatga nisbatan beqiyos e'zozda bo'lganliklari, o'tganlar, umuman, barcha ajdodlar ruhiga nisbatan alohida hurmat ko'rsatganliklari seziladi. Dafn marosimidagi har bir tartib muayyan ma'no va mohiyatga ega bo'lgan va og'ishmay bajarilgan. Bu marosimda ijro etilgan amallar marhumni narigi dunyoga kuzatishda, unga nisbatan yuksak hurmat ko'rsatilganligidan darak beradi. Bu davrga oid dafn udumlarida chorvador aholining qadimiy an'analarni saqlagan holda yangi madaniyatlarga tegishli urf-odatlarini ham qabul qilib borganligi seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримова Шимолий Бактрия аҳолисининг дафн маросимлари ва диний эътиқодлари (Бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент, 2017. Б.81
2. Матбобоев Б.Х. Фарғона водийси аҳолисининг илк ўрта асрлар даври диний қарашларини дафн маросимларида акс этиши (Мунчоктепа мисолида)... – Б.156.
3. Уструшона чорвадорларининг антик даврдаги маданияти. Тошкент. ”Тафаккур қаноти”, 2014. Б. 73-76.
4. Кожомбердыева Э.И. Об ориентировке погребальных сооружений кенкольской культуры // Вестник Московского университета, Сер. 8. История, № 1. – Москва. 1995.
5. Тошбоев Ф.Э Уструшона чорвадорларининг антик давр маданияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент, 2017. Б.81-82., 11,2 расм.
6. Тошбоев Ф.Э. Мамиров О.У. Сайхонсой мазорқўрғонлари // ЎЗБЕКИСТОН АРХЕОЛОГИЯСИ. № 2 (25) Самарқанд, 2021. Б. 22.
7. Снесарев Г.П. Реликты до мусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. С.10, 47, 112.
8. Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Фарбий Уструшонада зардўштий қавмлар излари // О'ЗБЕКИСТОН АРХЕОЛОГИЯСИ № 2. – Т.: Фан, 2011. Б. 87.
9. Литвинский Б.А. Курганы и курумы Западной Ферганы (раскопки. погребальный обряд в свете этнографии). Главная редакция Восточной литературы, М.: 1972. – С. 212.
10. Матбобоев Б.Х. Фарғона водийси аҳолисининг илк ўрта асрлар даври диний қарашларини дафн маросимларида акс этиши (Мунчоктепа мисолида)... –Б. 165.
11. Тошбоев Ф.Э. Уструшона чорвадорларининг антик даврдаги маданияти... – Б. 105,45,3- расм., Гайдукевич В.Ф. Могильник близ Ширинсая

12. Узбекистане... – С. 337., Грицина А.А. Уструшанские были... –С. 205-206.
Грицина А.А. Уструшанские были... – С. 198, 205-206.
13. Тошбаев Ф.Э., Пардаев М.Х., Грицина А.А. Изучение Гульбинского могильника // Культура номадов Центральной Азии. – Самарканд: 2008, – С.184-189.
- 14.Тошбоев Ф.Э. Олов билан боғлиқ удумлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // Самарканд Давлат университети илмий тадқиқотлар ахборотномаси. – Самарканд: 2010. – №4 (62), -Б.29-33.
- 15.Марафиев С.Ш., Москаленко Н.А. Аархаические находки из Ходжаи Соф // АРТ вып. XXI. 1981 Душанбе, 1988, 73-88.
- 16.Мамиров О.Ў. Шимолий-ғарбий Уструшона оловга топиниш қурилмалари (Эски Ховос ёдгорлиги материаллари асосида). // Мустақиллик йилларида Ўзбекистон археологияси: ютуқлар ва истикболлар Самарканд –Samarkand, 2016. Б. 98- 100,
17. Аванесова Н.А., Тошпулатова Н. Символика огня в погребальной практике в сапаллинской культуры (по материалам исследование могильника Бустан VI)... –С. 29.
- 18.Обельченко О.В.Могильник Акжартепе // ИМКУ – Ташкент: 1962.–№ 3. –С. 67.
19. Тошбоев Ф.Э. Бронза даври андронова жамоалари дафн маросимларининг Уструшонага таъсири // Материалы II Международной научно-практической конференции «Gglobal science and innovations 2018: CENTRAL ASIA». Астана, 2018. С. 142.
20. Литвинский Б.А.,Седов А.В. Культы и ритуалы кушанский Бактрии. – М.: Наука, 1984. – С.47.
21. Обельченко О.В. Куюмазарский могильник // Труды Института истории и археологии АН Узбекистана. – Ташкент: 1956. -№ VIII –С. 226.
- 22.Аширов А.А.Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари... -Б. 125.

FLAT AND ROUND CHARACTERS IN JANE AUSTEN'S NOVELS

Saibnazarova Makhliyo Asatullayevna

UTAS, teacher of the Languages department

of the English language

Republic of Uzbekistan

Annotation

Austen never repeats her characters. The characters Mr. Collins of “Pride and Prejudice” and Mr. Elton of “Emma” are similar. They are both arrogant. Yet Austen presents them in a completely different way. Similarly, the vulgarity of Mrs. Bennet is distinct from the vulgarity of ‘Sense and Sensibility’s Mrs. Jennings. Austen has beautifully distinguished her characters from each other. Her characters depict a specific class but simultaneously they do not leave behind their distinct identity. For instance, Pride and Prejudice’s character Mr. Wickham exemplifies all charming soldiers but simultaneously he is also a self-centered person.

Key words: self-centered, arrogant, characters, vulgarity, distinguished, soldiers

Annotatsiya

Jane Osten hech qachon o'z qahramonlarini takrorlamaydi. "Mag'rurlik va xurofot" filmidagi janob Kollinz va "Emma" filmidagi janob Elton qahramonlari o'xshash. Ularning ikkalasi ham takabbur. Shunga qaramay, Osten ularni butunlay boshqacha tarzda taqdim etadi. Xuddi shunday, missis Bennetning qo'polligi "Sense and Sensibility" ning Jennings xonimning qo'polligidan farq qiladi. Osten o'z qahramonlarini bir-biridan ajoyib tarzda ajratgan. Uning qahramonlari ma'lum bir sinfni tasvirlaydi, lekin ayni paytda ular o'zlarining o'ziga xosligini qoldirmaydilar. Misol uchun, "G'urur va xurofot" ning qahramoni janob Uikxem barcha jozibali askarlarga o'rnak bo'ladi, lekin ayni paytda u o'zini o'ylaydigan odamdirdir.

Kalit so'zlar: o'zini o'ylaydigan, mag'rur, xarakterlar, qo'pollik, taniqli, askarlar

Most of Austen’s characters liven up by their dialogues because the voice that narrates the story is subordinate to the voice of her novel’s characters. In her novels, lengthy, clumsy dialogues are rare as are elaborate physical illustrations. In place of all these, Austen uses the brisk, lively, witty dialogues. The way the characters talk to each other from that a reader can know about their nature and behaviors. For example, Mr. Bennet’s indifferent behavior uncovers from his dry wit, in the same way Mrs. Bennet’s emotional surplus comes out from every dialogue she passes. Austen’s dialogue generally works to show the negative sides of her characters – Miss Bingley’s malicious, arrogant manners are easily evident in her dialogues. In the same way,

dialogues also hide wicked aspects of character. For example, Wickham conceals his deceptive heart below the clatter of pleasing, playful banter and he is able to deceive Elizabeth with his well ordered tongue even if his elegance and looks aids as well. Jane Austen's main characters are round and, at the same time, her minor characters are flat. Flat characters are those characters that do not have complexity and are mostly shallow or one-dimensional. For example, Mrs. Bennet of "Pride and Prejudice". Mrs. Bennet remains dull, vulgar, and showy from beginning to the end of the novel. On the other hand, round characters are those characters that change and develop over time in the story. For example, Elizabeth and Darcy. As the novel progresses they develop, evolve, and mature. Jane is also one such character who goes through an emotional turn in the novel.


Finally we can say that fine conversational capability and attractive personality appear side by side. In Austen's "Pride and Prejudice" Darcy and Elizabeth are the finest conversationalists in comparison to all the characters in the novel. Austen points out certain Victorian manners distinctive of the age in which she worked: the obsession with social status, call for honor and prestige, treating marriage as a way to achieve material wealth, and the duality of society. Austen also delineates female characters by their weaknesses. They were treated like worldly goods and were half-educated. For example, Charlotte Lucas who undoubtedly want to marry Mr. Collins due to the fact that this marriage will bring along some sort of solidity, certainty and property. While at the same time, she states that she finds Mr. Collins "tolerable". Most of the characters of Jane Austen are authentic and life-like. By looking at her characters, it seems that they derived from our own society. Their conduct and approach are quite normal. She observes her characters very affectionately. Austen's characters have a mixture of honesty and dishonesty, virtue and evil, and integrity and worthlessness. They are congenial along with distasteful. For example, Elizabeth in *Pride and Prejudice* is an intelligent and sensible character but her intelligence and understanding are tainted by her early prejudices. In the same way, Wickham is a charming character but at the same time, he is also selfish.

Jane Austen's characterization did not have only positive features, but her art of characterization also had a few shortcomings. Undoubtedly, many of her characters are not authentic and life-like. Marry Bennet from "Pride and Prejudice" is not able to influence us and is not essential to the story. Additionally, Margaret in "Sense and Sensibility" does not ever come into being. But these minor characters cannot stop us from labeling Jane Austen as one of the finest delineators of characters. So we can conclude by saying that her characters are thoughtfully organized and coherently put together.

Used literature

1. Day, Malcolm. *Voices from the World of Jane Austen*. David & Charles, 2006.

2. Erickson, Carolly. Our Tempestuous Day: A History of Regency England. NY: William Morrow, 1986.
3. Girouard, Mark. Life in the English Country House: A Social and Architectural History. New Haven: Yale University Press, 1978.
4. Saibnazarova, M. A. (2020). An Expression Of National Customs In The Works Of
5. Jane Austen And Abdullah Qadiri. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS (2767-3278), 1(01), 16-20.
6. Dilnoza, M., Maftuna, S., Guzalkhon, K., Makhliyo, S., & Maftuna, K. (2019).



DEVELOPING READING SKILLS

Berdikulova Munira Azizovna

Teacher of University of Tashkent Applied for Science

E-mail: maftunaberdikulova99@gmail.com

Tel: +99893 589 16 98

Abstract: Reading is considered one of the important skills to explore our target language in teaching and learning. Reading is useful for language acquisition if students more or less understand what they read, the more they read, the better they get it. Additionally, reading is the fundamental skill upon which all formal education depends. The most effective strategies for reading and the importance of reading skills in language learning are depicted in this article.

Keywords: Target language, teaching, learning, fundamental skill, formal education, effective strategies.

One approach to learning language and knowledge is by reading. The majority of knowledge is recorded in books. People must first read, especially students, if they wish to grasp and know them. They must continue to read. First of all, many students desire to be able to read texts in English for their jobs, for academic purposes, or just for fun, which makes training them to read English texts a crucial part of the teacher's job. Anything we can do to facilitate their ability to carry out these actions must be a positive idea. If children can understand what they read, reading can help them learn a language. The more they read, the more fluently they can communicate. The essential ability that underpins all formal education is reading. Research unmistakably demonstrates that unless these students are identified early in their academic careers and given the intensive, systematic intervention they require, they are unlikely to ever acquire the reading skills they need to successfully complete elementary school. Any youngster who does not learn to read early and proficiently will find it difficult to pick up other knowledge and abilities, and they are unlikely to ever succeed in school or in life. According to Harmer (2002), reading helps students with their vocabulary understanding, spelling, and writing. Interesting themes can be introduced in well-written literature. Reading is regarded as another crucial skill for the students. Reading books offers useful writing examples in English. When learning how to create effective phrases, paragraphs, and texts as a whole, reading material can be used as a tool. According to Grabe (2002), many people around the world learn to read a second language while enrolled in formal academic settings. Students learn to read so they may participate in advanced coursework, land a decent career, obtain knowledge, become more culturally aware, interact with others, or just for fun. Reading is believed

